

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 18



2023/18
July

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 18
JULY 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 18, JULY, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldasheva

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA SHAXSNI JINS JIHATIDAN IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Qobilova Mahbuba Mo'minjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи doktoranti

qmahbuba95@mail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O'zbek tilining izohli lug'atlarida berilgan shaxsni jins jihatda ifodalovchi leksik birliklarning farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlari haqida fikr yuritiladi*

KALIT SO'Z: *Gender, atash ma'no, erkak jinsiga mansublik, ayol jinsiga mansublik, leksikografiya, feministik tilshunoslik*

THE PROVISION OF LEXICAL UNITS EXPRESSING GENDER IN THE EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE UZBEK LANGUAGE

ABSTRACT: *This article discusses the distinguishing and generalizing features of the lexical units representing the given person in terms of gender in the explanatory dictionaries of the Uzbek language*

KEY WORDS: *Gender, meaning, belonging to the male gender, belonging to the female gender, lexicography, feminist linguistics*

KIRISH

Shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar orasida gender, ya'ni jins nuqtai nazaridan tavsiflovchi so'zlar o'zbek tilida alohoda agamiyat kasb etadi. Bilamizki, gender tushunchasi bir vaqtning o'zida shaxsning ijtimoiy-madaniy

shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o‘lashtirish jarayoni hamda natijasini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etiladi.

Til jamiyat a’zolari o‘rtasida eng muhim aloqa-aratashuv vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Til boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. O’tgan asr davomida gender tushunchasi bilan bog‘liq tadqiqotlar faollashdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu davrda til va sotsial munosabarlar doirasida til hodisalarini tadqiq etish ta’sirida tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar shakllandi.

1. Sotsiolingvistik tadqiqotlar
2. Feministik tilshunoslik
3. Ikki jinsn o‘rganuvchi sof gender tadqiqotlari
4. Maskulinlik tadqiqotlari
5. Jinsn psixolingvistik nuqtai nazardan o‘rganish
6. Krossmadaniy va lingvomadaniy tadqiqotlar¹.

Til hodisalarini ijtimoiy omillar bilan bo‘lgan munosabati sosida o‘rganishning asosiy maqsadi borliq hodisa va voqeligi tasvirlovchi, tavsiflovchi vositalarning tilda mavjudligi, xususan, shaxsni jins jihatidan ifodalovchi til birligi ma’nosining hosil bo‘lishida lisoniy va nolisoniy omillarning o‘rni, ta’sirini o‘rganishdir.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *o‘g‘il, qiz, yigit, o‘g‘lon, qizaloq, qizcha, er, erkak, ayol, xotin, juvon, chol, kampir, ojiza, zaifa, bekach, navjuvon, o‘spirin* va boshqalar kabi so‘zlar lisoniy ma’nosi shaxsnинг sotsial belgisidan biri bo‘lgan jinsi bilan bog‘liq holda shakllangan birliklar bo‘lib, ularning barchasi uchun birlashtiruvchi, umumiy omil shaxsni jinsiga ko‘ra ifodalash hisoblanadi. Shu asosda, ularning har biri alohida lisoniy ma’no va vazifalarga egaligi bilan o‘zaro farqlanadi. Bular uchun integral sema “jinsga xoslik” belgisi bo‘lsa, farqlovchi semalar sifatida “erkak jinsiga mansublik” yoki “ayol jinsiga mansublik” ma’nolarni belgilash

¹ Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 188 с.

mumkin. Aynan shu farqlovchi semalar asosida jinsiga ko‘ra shaxsni ifodalovchi lug‘aviy birliklar dastlabki bosqichda ikki guruhga ajraladi:

- 1) Erkak jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar;
- 2) Ayol jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar.

Birinchi guruhda er jinsiga mansub bo‘lgan semaga ega so‘zlar *o‘g‘il, yigit, er, erkak, chol, o‘siprin* kabi so‘zlar mansublik kasb etsa, ikkinchi guruh ayol jinsiga mansub semasiga ega bo‘lgan *qiz, qizaloq, ayol, xotin, kampir, bekach, juvon* kabi birliklar bilan to‘ldiriladi.

Ushbu leksik birliklarning barchasida shaxsni jins jihatidan ifodalash ma’nosи yetakchi mavqeni egallab turibdi. Bundan tashqari, shaxsni ham jins, ham qarindoshlik, ham kasb-kor, ham yosh jihatdan tavsiflovchi leksik birliklarni ham shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi leksik birliklar sifatida qarash lozim deb hisoblaymiz. Chunki, shaxsning ijtimoiy holat va munosabatlari turli omillarga bog‘liq, bu holat shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar lisoniy ma’nosiga ta’sir etmay qolmaydi. Jumladan, *kampir* so‘zining atash ma’nosida ayol jinsiga mansublik hamda shaxsning keksalik holati semalari birgalikda tarkib topgan. Shuningdek, *aktrisa, balerina, doya, hamshira* kabi so‘zlarning ma’nosida esa kasbi, shug‘ullanadigan faoliyati bilan birga ayol jinsiga mansublik belgisi ham mavjud. Qarindoshlik, jins, yosh belgilarini birgalikda ifodalovchi so‘zlar sifatida *tog‘a, aka, kuyov, singil, moma, buva, kelin, pochcha, amma, xola, bobo, opa, qaynota, qaynona* kabi leksik birliklarni qayd qilish mumkin.

Qayd qilingan shaxsni jins jihatidan ifodalovchi leksik birliklarni “nomlashning sotsial xoslanganligi” nuqtai nazaridan baholab, ularning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”² dagi leksikografik izohlariga diqqat qaratsak, shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi leksik birliklarning lisoniy xususiyatlari izohli lug‘atlarda atroflicha talqin qilingan. “Tilda mavjud faktik manbalardan anglashiladiki, otasi, onasi, bo‘tam, xonim, chirog‘im ko‘rinishli so‘zlar murojaat shaklida qo‘llanadi va sotsial

² Shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi so‘zlarning leksikografik tasnifi tahlili: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. 1-5-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

va lingvomadaniy xususiyatini namoyon qiladi”³. Xuddi shunday *o‘g‘il, qiz, yigit, xotin, kampir, kelin, kuyov yigit* kabi shaxsni jinsga ko‘ra ifodalovchi so‘zlarning ham murojaat shakli vazifasidagi faolligini ta’kidlash mumkin. S.Mo‘minovning tadqiqotida aytilishicha, o‘zbek oilalarida er va xotinning o‘zaro murojaatida o‘ndan ortiq murojaat shakli ishlatiladi⁴, bularga shaxsning jins belgisi bilan bog‘liq ifodalar katta o‘rin egallaydi..

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxsni jins jihatdan tavsiflovchi so‘zlarning o‘zbek tili leksikasida o‘ziga xos ma’no va xususiyatlari ega bo‘lib, ularning lisoniy ma’no tarkibini tekshirish lisoniy-ijtimoiy tabiatini ochishga, ularning leksikografik tasniflarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Hasanova D. O‘zbek tilida shaxs sotsial belgilarini ifodalash omillari, vositalari va usullari: Filol.fan.dokt. ... diss. – Qo‘qon, 2022
2. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari (monografiya). – Farg‘ona
3. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2012
4. Shaxsni jinsga ko‘ra tavsiflovchi so‘zlarning leksikografik tasnifi tahlili: O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jild. 1-5-jiddlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008
5. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999

³ Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol.fan.dokt. ...diss. – Toshkent, 2012. – 154-b.

⁴ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari (monografiya). – Farg‘ona. 2021. – 180-182-b.

QUYMA MONOLIT TEMIRBETONLI TURAR-JOY BINOLARIDA ICHKI VA TASHQI DEVORLARNI QURISH TEXNOLOGIYASI

Abdug‘aniyev Sardorbek Abduvoxid o‘gli

"Bin ova inshootlar qurilishi" yo‘nalishi talabasi.

Karimxonov Muhammadxo‘ja Akmalxon o‘g‘li

"Bin ova inshootlar qurilishi" yo‘nalishi talabasi.

Ikromjonov Izzatbek Ibroximjon o‘g‘li

"Bin ova inshootlar qurilishi" yo‘nalishi talabasi.

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, Andijon vil. O‘zbekiston.

E. mail: dors9718@gmail.com

Xulosa: ushbu maqolada bin va inshootlarni barpo etish texnologiyasi bo‘yicha, quyma monolit temirbetonli binolarda ichki va tashqi devorlarni qurishda ishlarni olib borish usullari keltirilgan. Shu bilan birga, qurilish jarayonlariga texnika va texnologiyalarni olib kirish, ishchi kuchi sonini kamaytirib, qurilish vaqtini tezlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikga erishish usuli ko‘rsatilgan.

***Kalit so‘zlar:** avtokran, iqtisodiy samaradorlik, quyma monolit, ishchi kuchi, maxsus moslama, roxla, ichki va tashqi devor.*

Kirish.


Ushbu maqolada quyma monolit temirbetonli binolarda tosuvchi elementlar, ichki pardozlash materiallari, tashqi va ichki devor qurish uchun materiallar, xamda, paddonga qadoqlangan turli qurilish materiallarini bino ichiga tashib kirishda yuzaga keladigan qiyinchilik va muammolarga yechim topish, ishchi kuchi sarfini

kamaytirish, texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish usuli xaqida ish olib borilgan.

Asosiy qism.

Muammo. Bugungi kun qurilishida “quyma monolit” texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyani avzalligi ko‘p va shu bilan birgalikda ayrim kamchiliklari xam mavjud bo‘lib, ulardan biri; quyma monolit usulida bir qavatning barcha konstruksiyalari ustun, to‘sini va yopmalar yaxlit bitta qilib quyilishi sababli xonalarni bo‘lish uchun va tashqi devorlarni qurish uchun kerak bo‘ladigan qurilish materiallarini bino ichida qoldirib bo‘lmaydi. Chunki, quyma monolit quyilgandan +20 °C da 28 sutkada to‘liq quvatga kirishida, bino ichida montaj ishlarini olib borish uchun quyma monolit kamida 75% quvat olishi kerak buning uchun kamida 7 sutka vaqt o‘tadi. Natijada ichki montaj uchun kerak bo‘ladigan materiallarni tashib chiqishga to‘g‘ri keladi. Xozirgi kunda ichki va tashqi devor uchun yegillashtirilgan g‘ovakli bloklar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu qurilish materiali qadog‘ida odatda 0.85m³ dan 1.25m³ gacha bo‘ladi va qadoqni xajmi kattaligi sababli qadoqni buzmasdan tashishda turli uammolarni keltirib chiqaradi, qadoqni buzib bo‘laklarga bo‘lingan xolda tashish esa ancha vaqtni oladi. Ayrim binolarda yuk tashish uchun liftlar mavjud bo‘lmaydi va qurilish materiallarini ishkuchi yordamida zinapoyalar orqali tashishga to‘g‘ri keladi va ish vaqtin uzunlashadi xamda qoshimcha xarajatlarni ortib ketishiga sabab bo‘ladi. Bunay xollarda qurilishga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri “Iqtisodiy talablar” bajarilmay qoladi.

Yechim. Bunday xollarda rigel va ustunga maxkamlanuvchi maxsus moslamadan foydalanib yaxshiroq yechim qilish mumkun. Ushbu moslama metal shvelirdan yasaladi va bo‘laklarga ajralish xususiyatiga ega bo‘lib, uni o‘rnatish va qayta yechib olishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi.



Moslamani birinchi bo‘lagi ustun va rigelga qadab yopma ustidan qo‘yiladi, ikkinchi bo‘lagi rigel osti va yopma ostiga qadalgan xolda rigel tomondan sharnirli, yopma tomonda esa maxsus bo‘lt va gayka yordamida maxkamlanadi. Birlashgan ikki bo‘lak rigel ni to‘liq aylanib o‘tadi, ustun va yopma plitaga maxkam qadalib turadi, shu sababdan tushayotgan yuk konstruksiyalarga taqsimlangan xolda tarqaladi. Moslamani maxkamlash uchun monolit yopma quyish mobaynida maxsus bo‘lt uchun teshik qoldirib ketish zarur.

Maxkamlangan moslamaga avtokran yordamida padonga terilgan xarqanday qurilish materiallarini xar bir etajga joylashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Buning uchun 1 siklda bajariladigan ishlar ketmaketligi quyidagicha bo‘ladi:

- 1-ishchi yukni maxsus arzon yordamida avtokran ilgagiga maxkamlaydi, ish vaqtি 1-daqiqa
- Avtokran yukni maxsus moslamaga ko‘taradi, ish vaqtি 2-daqiqa
- 2-ishchi arqonni yukdan bo‘shatadi, ish vaqtি 1 daqiqa
- 2-ishchi roxla yordamida yukni kerakli bolgan joyga yetgazadi, ish vaqtি 3 daqiqa
- Avtokran navbatdagi yukni ko‘tarish uchun qaytadi, ish vaqtি 2daqiqa

Ish sikli ushbu tartibda bajarilganda xar bir sikl uchun o‘rtacha 6-8 daqiqa vaqt ketadi. Bundan ko‘rinib turibdiki 2 nafar ishchi bilan barcha yuklarni qavatlar ichiga ko‘tarish mumkin bo‘ladi va ishchi soni kamligi va ish vaqtini qisqaligini xisobiga iqtisodiy samaradorlikga erishiladi.

Foydalingan adabiyotlar:

1. Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” 2018 yil. N.Bozorboyev, X.I.Yusupov, R.A.Narov, A.M.Ilmuradov, V. Rasulov, B.T.Xushnazarov, F.N.Bozorboyev, I.N.Salimova
2. QMQ 3.03.01-98. Yuk ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyalar. Toshkent, 1998.
3. QMQ 3.01.02-00. Qurilishda xavfsizlik texnikasi. Toshkent, 2000.
4. “Metall konstruksiyalari” Toshkent 2010 yil Q.A.Saydullayev, Q.Q.Shukurova

JISMLARNING SUYUQLIKDA SUZISH SHARTLARI

Tursunxo‘jayeva Sug‘diyona Talantbek qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

2-bosqich talabasi

Ushbu maqolada arximed qonuni ta’rifî jismlarning suyuqlikda suzish shartlari cho ‘kmaydigan jism harakati va shu holatlarga doir masalalar keltirilgan Kalit so‘zlar: Arximed qonuni, arximed kuchi, qiziqarli tajribalar

Kalit so‘zlar: Arximed qonuni, arximed kuchi, jismning zichligi, suzish shartlari.

УСЛОВИЯ ДЛЯ ОБЪЕКТОВ, ПЛАВАЮЩИХ В ЖИДКОСТИ

В данной статье представлены определение закона Архимеда, условия плавающих тел в жидкости, движение нетонущих тел и проблемы, связанные с этими ситуациями.

Ключевые слова: закон Архимеда, сила Архимеда, плотность тела, условия плавания.

CONDITIONS FOR OBJECTS FLOATING IN A LIQUID

In this article, the definition of Archimedes' law, the conditions of floating bodies in liquids, the motion of non-sinking bodies and problems related to these situations are presented.

Key words: Archimedes' law, Archimedes force, body density, conditions of swimming.

Turli jismlar suyuqliklarda turlicha harakat qiladi, ya’ni ularning suyuqlikdagi harakati ayrim parametrlariga asosan zichligiga hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Suyuqlikka botirilgan qattiq jismlar suyuqlik sirtida, suyuqlik ichida suzadi yoki suyuqlik tubiga cho‘kadi. Nima sababga ko‘ra bunday holat sodir bo‘ladi?

Suyuqlikka to‘la botirilgan jismga gidrostatik bosim ta’sir etadi. Soddalik uchun suyuqlikka to‘g‘ri burchakli parallelepiped shaklidagi jism botirilgan bo‘lsin. Bu jismning yon sirtlariga teng miqdorda va qarama-qarshi yo‘nalgan P_1 va P_2 bosim ta’sir qiladi va bu bosimlar o‘zaro muvozonatlashadi. Jismning ustki va ostki asoslariga ta’sir qiluvchi bosimlar har xil bo‘lib, ular mos ravishda balandliklari h_1 va h_2 bo‘lgan suyuqlik ustunlari bosimiga teng.

$$P_1 = p_s g h_1 \quad P_2 = p_s g h_2$$

Bu erda p_s , — suyuqlikning zichligi g — erkin tushish tezlanishi, Chizmadan $h_1 > A$, boiganligi sababli, jismning ostki asosiga pastdan yuqoriga yo‘nalgan P_1 va P_2 bosimlarning farqiga teng bo‘lgan ortiqcha bosim ta’sir qiladi.

$$\Delta P = P_1 - P_2 = p_s g h_1 - p_s g h_2 = p_s g (h_1 - h_2) = p_s g \Delta h$$

Bu ortiqcha bosim jismning pastki yuzi S bo‘lgan asosiga ta’sir qilib, pastdan yuqoriga yo‘nalgan F_A ko‘taruvchi kuchni vujudga keltiradi.

$$F_A = \Delta P S = p_s g \Delta h S \quad \text{bu yerda } \Delta h S \text{ ko‘paytma jismning hajmi } V, \text{ ga teng.}$$

$$F_A = p_s g V_j$$

Bu kuchni birinchi bo‘lib tajriba asosida qadimgi grek olimi, fizik va matematik Arximed aniqlagan. Shuning uchun suyuqlikdagi jismni yuqoriga itaruvchi F_A kuchga Arximed kuchi deyiladi.

Arximed qonuni quyidagicha ta’riflanadi: suyuqlikka botirilgan jismga suyuqlik tomonidan yuqoriga tik yo‘nalgan va jismning og‘irlik markaziga qo‘yilgan, son qiymati jihahdan siqib chiqarilgan suyuqlik o‘girligiga teng kuch ta’sir qiladi.

Jismning suyuqlikdagi holati:

Suyuqlikka botirilgan jismga ikkita kuch: vertikal pastga yo‘nalgan F_{og} , og‘irlik kuchi va vertikal yuqoriga yo‘nalgan F_A Arximed kuchi ta’sir qiladi. U vaqtida bu

kuchlarning ta'sirida jism katta kuch tomonga qarab harakat qiladi . Bunda quyidagi uch hol bo'lishi mumkin:

1. Agar jismning og'irligi $F_{og'}$. Arximed kuchi F_A dan katta, ya'ni $F_{og'} > F_A$ bo'lsa, jism pastga yo'nalgan natijalovchi $F = F_{og'}$.- F_A kuch ta'sirida suyuqlik tubiga cho'kadi. Boshqacha atganda, jismning zichligi ρ_j suyuqlikning zichligi ρ_s dan katta, ya'ni $\rho_j > \rho_s$ bo'lsa, cho'kish holati yuz

beradi. P kuchni cho'kuvchi jismning suyuqlikdagi og'irligi deb ham yuritiladi.

2. Agar jismning og'irligi $F_{og'}$, Arximed kuchi F_A ga teng, ya'ni $F_{og'} = F_A$ bo'lsa, jismga ta'sir qiluvchi natijalovchi kuch nolga teng bo'ladi. Bunda jism suyuqlikning ichтиориј joyida muvozonatda, ya'ni muallaq holatda bo'ladi. Boshqacha atganda, jismning zichligi ρ_j suyuqlikning zichligi ρ_s gateng,


ya'ni $\rho_j = \rho_s$ bo'lsa, muallaq turish holati yuz beradi yoki unga oldin biror tashqi kuch berilgan bo'lsa, o'zining to'g'ti chiziqli tekis harakatida davom etadi.

3. Agar jismning og'irligi $F_{og'}$, Arximed kuchi F_A dan kichik, ya'ni $F_{og'} < F_A$ bo'lsa, jism tepaga yo'nalgan natijalovchi $F = F_A - F_{og'}$, kuch ta'sirida suyuqlik yuziga qalqib chiqadi. Boshqacha atganda, jismning zichligi ρ_j suyuqlikning zichligi ρ_s dan kichik, ya'ni $\rho_j < \rho_s$ bo'lsa, qalqib chiqish holati yuz

beradi. F kuchni cho'kmaydigan jismning yuk ko'tarrish qobiliyati deb ham yuritiladi. Qalqib chiqayotgan jismning suyuqlik sirtiga etgandan keyingi ko'tarilishi Arximed kuchi F_A jismning og'irligi $F_{og'}$ ga tenglashganga qadar davom etadi. $F_A = F_{og'}$ bo'lganda jism ko'tarilishdan to'xtaydi va qisman suyuqlikka botgan holda suyuqlik sirtida suzib yuradi.

Arximed qonunidan kelib chiqadigan natijalar
Cho'kmaydigan jism harakati

Agar suyuqlikka cho'kmaydigan jism tushirilsa,
jismning havodagi og'irligi (yoki massasi), siqib
chiqarilgan suyuqlikning og'irligiga (yoki massasiga)



1-rasm

tengdir.

Sababi jism suyuqlikda muallaq suzib yurgan paytida boy a ikkinchi shartta aytilgandek $F_A = F_{og'}$ shart bajariladi. Arximed kuchi esa ma'lumki jism siqib chiqargan suyuqlik og'irligiga teng. Bundan

$$F_A = F_{og'} = P$$

Cho'kmaydigan jism suyuqlikka tushirilsa, jismning biror qismi suyuqlik ichida, qolgani esa suyuqlik tashqarisida bo'ladi. Jismning zichligi qancha katta bo'lsa, uning shuncha ko'p qismisuyuqlik ichida bo'ladi. Jism zichligi suyuqlik zichligiga tenglashganda esa jismning hamma qismi suyuqlik ichida bo'ladi, ya'ni to'la botgan holda muallaq turadi

$$F_{og'} = P \rightarrow \rho_j V_j g = \rho_s V_{bot} g \rightarrow V_{bot} = \frac{\rho_j}{\rho_s} V_j$$

Yoki

$$V_{bot} = S * h_{bot} \quad V_j = S * h_j$$

$$h_{bot} = \frac{\rho_j}{\rho_s} h_j$$

$$h_2 + h_{bot} = h_j$$

$$V_2 + V_{bot} = V_j$$


Suyulikning cho'kmagan qismini topish formulasi quyidagicha:

$$V_2 = \frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_s} V_j$$

$$h_2 = \frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_s} h_j$$

Cho'kmaydigan jismning yuk ko'tarish qobiliyati quyidagicha topiladi:

Ma'lumki cho'kmaydigan jismlarning og'irlilik kuchi



2-rasm

Arximed kuchidan kichik bo‘ladi va tenglashgan paytta jism cho‘ka boshlaydi.

$$F_A = F_{og'} + P_{yuk} \quad P_{yuk} = F_A - F_{og'}$$

$$P_{yuk} = \rho_s V_j g - \rho_j V_j g$$

$$P_{yuk} = (\rho_s - \rho_j) V_j g$$

To‘la botirilgach qo‘yib yuborilgan cho‘kmaydigan jism oladigan dastlabki tezlanishi:

Suyuqlik tubida turgan cho‘kmaydigan jism qo‘yib yuborilsa, u tepaga a tezlanish bilan ko‘tarila boshlaydi. Inersiya kuchi esa tezlanish yo‘nalishiga qaramaqarshi, ya’ni pastga yo‘nalgan bo‘ladi. Inersiya kuchi va og‘irlik kuchining yig‘indisi Arximed kuchiga teng

bo‘ladi.

$$F_{in} = F_A - F_{og'} \quad \rho_j V_j a = \rho_s V_j g - \rho_j V_j g$$

$$a = \frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_j} g$$

Zichligi ρ_j bolgan cho‘kmaydigan jismni h balandlikdan zichligi ρ_s bolgan suyuqlikka tashlasa, jismning suyuqlikka cho‘kish chuqurligi l quyidagicha topiladi (suyuqlik qarshiligi e’tiborga olinmaganda):

Jism h balandlikdan tushishda g tezlanish bilan erkin tushadi. Suyuqlikda esa l yo‘lda a


tezlanish bilan sekinlanuvchan harakat qiladi.

$$\begin{cases} h = \frac{v^2 - 0^2}{2g} = \frac{v^2}{2g} \\ l = \frac{0^2 - v^2}{2a} \end{cases} \quad \frac{l}{h} = \frac{g}{a} \quad l = \frac{g}{a} h = \frac{g}{\frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_j}} * h = \frac{\rho_j}{\rho_s - \rho_j} * h$$

$$l = \frac{\rho_j}{\rho_s - \rho_j} * h$$

Asos yuzi S , balandligi h , zichligi ρ_j bo‘lgan suyuqlikda turgan va cho‘kmaydigan prizmatik jismni suyuqlikka to‘la botirish uchun bajariladigan ish quyidagicha:

Dastlab jismga hech qanday kuch ta’sir qilmaganda jism h_2 qismi suvdan chiqgan holda suv yuzida muallaq turadi. Jism ustiga ozroq yuk qo‘yganda jism biroz cho‘kadi. Ko‘proq yuk qo‘ya borsak, cho‘kish chuqurligi orta boradi. Va nihoyat jismning ustiga uning yuk ko‘tarish qobiliyati F ga teng yuk qo‘ysak, u butunlay suvga ko‘miladi. Bunda o‘zgaruvchan kuch h_2 yo‘lda ish bajaradi, ya’ni jismning cho‘kmagan qismini to‘la botirishda ish bajaradi. Jismni to‘la botirish uchun bajarilgan ish kuch va ko‘chish bog‘langan grafikda chegaralangan yuzaga teng bo‘ladi.



$$dA = Fdh$$

$$F = F_A = \rho_s V_j g = \rho_s S h g$$

$$dA = \rho_s S g h dh$$

$$\int dA = \int_0^{h_2} \rho_s S g h dh$$

$$A = \frac{\rho_s S g h_2^2}{2} = \frac{\rho_s S g}{2} * \left(\frac{\rho_s - \rho_j}{\rho_s} h_j \right)^2 = \frac{S g h_j^2}{2 \rho_s} (\rho_s - \rho_j)^2$$

$$A = \frac{S g h_j^2}{2 \rho_s} (\rho_s - \rho_j)^2$$

Mavzuga doir masalalar.

- Yog‘och bo‘lagi hajmining $\frac{3}{4}$ qismi suvda botgan holda suzmoqda.

Yog‘och qanday zichlikka ega?

Berilgan

$$\frac{V_{bot}}{V_y} = \frac{3}{4}$$

$$\frac{V_{bot}}{V_y} * \rho_s$$

$$\rho_s = \frac{1000 \text{ kg}}{m^3}$$

ρ_y -?

Yechilishi

$$F_{og'} = P \rightarrow \rho_y V_y g = \rho_s V_{bot} g \rightarrow \rho_y =$$

$$\rho_y = \frac{3}{4} * \frac{1000 \text{ kg}}{m^3} = 750 \frac{\text{kg}}{m^3}$$

2. Yuzasi $1m^2$ va balandligi 0,4 m bo‘lgan muz parchasi suvda suzmoqda. Muzni suvgaga to‘liq botirish uchun qanday minimal ish bajarish kerak? Muzning zichligi $900kg/m^3$

$$g=10m/s^2$$

Berilgan

$$S=1m^2$$

$$h_m=0,4$$

$$\rho_s = \frac{1000kg}{m^3}$$

$$\rho_m = \frac{900kg}{m^3}$$

$$A-?$$

Yechilishi

$$dA = Fdh = \rho_s V_m g = \rho_s Shg$$

$$dA = \rho_s Sgh dh$$

$$\int dA = \int_0^{h_2} \rho_s Sgh dh$$

$$A = \frac{\rho_s Sgh_{z_2}^2}{2} = \frac{\rho_s Sg}{2} * \left(\frac{\rho_s - \rho_m}{\rho_s} h_m \right)^2 = \frac{Sgh_m^2}{2\rho_s} (\rho_s - \rho_m)^2$$

$$A = \frac{1m^2 * 10m/s^2 (0,4)^2}{2 * \frac{1000kg}{m^3}} \left(\frac{1000kg}{m^3} - \frac{900kg}{m^3} \right)^2 = 8J$$

3. 25 cm qalinlikdagi yassi bir jinsli muz parchasi 75 kg massali kishini suvda saqlay olishi uchun uning yuzasi kamida qandy bo‘lishi kerak? Muzning zichligi $900kg/m^3$

Berilgan

$$h=25 \text{ cm}=0,25 \text{ m}$$

$$m=75 \text{ kg}$$

$$\rho_m = \frac{900kg}{m^3}$$

$$\rho_s = \frac{1000kg}{m^3}$$

Yechilishi

$$F_A = F_{og'} + P_{yuk} \quad P_{yuk} = F_A - F_{og'}$$

$$P_{yuk} = \rho_s V_m g - \rho_m V_m g$$

$$P_{yuk} = (\rho_s - \rho_m) V_m g$$

$$S-?$$

$$m = \frac{P_{yuk}}{g} \quad V_m = S * h$$

$$S = \frac{m}{(\rho_s - \rho_m) * h} = \frac{75 \text{ kg}}{\left(\frac{1000kg}{m^3} - \frac{900kg}{m^3} \right) * 0,25} = 3m^2$$

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ

Шомуродова Шахло Баходир қизи

Термиз давлат педагогика институти

Филология факултети,

Ўзга тилли гурухларда рус тили йўналиши

1 босқич, 102 гурух талабаси

Аннотация: уибу мақолада Янги Ўзбекистонда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаолигини ошириши бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар хақида фикр юритилади.

Калим сўзлар: хотин-қизлар, гендер тенглик, жамият, хуқуқ, қонун, ислоҳот.

Аннотация: в данной статье рассматриваются реформы, проводимые для повышения общественно-политической активности женщин Нового Узбекистана.

Ключевые слова: женщины, гендерное равенство, общество, закон, закон, реформа.

Abstract: this article discusses the reforms implemented to increase the socio-political activity of women in New Uzbekistan.

Key words: women, gender equality, society, law, law, reform.

БМТ ҳисоботига кўра, аёлларнинг жамиятдаги ўрни ва ўрни масаласи бугунги куннинг глобал экологик ва иқтисодий муаммоларидан кейин иккинчи ўринда туради. Биз фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёни замонавий дунёда эркак ва аёл ролининг муқаррар ўзгаришига олиб келишини, аёллар

қарорлар қабул қилишда тобора кўпроқ иштирок этаётганини, гендер тенглиги ҳар томонлама ҳимоя қилинаётганини, унинг этник ва ижтимоий-маиший-ижтимоий манфаатларини кўриб чиқамиз. Маданий жиҳатлари ҳисобга олинади. Эркак боқувчи бўлган оиланинг илгари бузилмас шакли ўз шаклини ўзгартирмоқда.

Аёл оиласида тенгликка, турмуш ўртоқлар ўртасида мажбуриятларни уйғун тақсимлашга интилади. У янада мустақил бўлди, ўзини нафақат оиласида, балки ундан ташқарида, касбий соҳада ҳам амалга ошириш истаги бор эди. Энди аёл илгари фақат эркаклар кўриши мумкин бўлган позицияларни эгаллайди. Ва ҳатто "шиша шифтини" сақлаб турганда ҳам, аёл юқори лавозимларда ўз мавқеини тобора мустаҳкамламоқда. У ўзининг мулоқот қобилияtlари билан юқори чўққиларга чиқади.

Эркаклар аёллардан тажовузкор, вазифага йўналтирилган хатти-харакатлари билан ажralиб туради, бу бизнинг замонамизда талаб тобора ортиб бораётган бошқарувнинг янги моделига мос келмайди. Бироқ, шу билан бирга, кўпроқ мос келадиган мулоқот қобилиятига эга бўлган аёллар бошқарув муҳитига кира олмайди, чунки улар эркаклар томонидан ўрнатилган рецептлар ва кучли жинсий алоқа билан бевосита мулоқот қилиш, иқтисодий шериклик ўрнатиш ва бунинг учун уларнинг алоқа моделларини қабул қилиш зарурати билан дуч келишади. Ва эркаклар муҳитига кириб, аёллар мақом ва ҳокимият учун рақобатга қўшиладилар, бунинг натижасида улар ўзларининг ўзига хос алоқа усулларини йўқотадилар, бу ҳатто уларга гендер стереотиплари томонидан тайинланади.

Ролларнинг бундай чалкашлиги "икки томонлама боғланиш" деб номланади, агар сиз атрофдаги ижтимоий шароитлар туфайли бир турдаги хатти-харакатларга мос кела олмасангиз ва турли хатти-харакатлар ўртасида маневр қилишга мажбур бўлсангиз. Нафақат меҳнат соҳасида, аёл эркакка етиб олишга интилади, балки оиласида ҳам бу жараённи кузатамиз. Замонавий жамият учун иккита ишлайдиган ота-онаси бўлган оила модели янада жозибали ва

замонавий воқеликка мос келадиган кўринади. Ота бокувчи, она эса уй бекаси бўлган ан’анавий оила модели ўрнини шериклик ва тенглик ҳукм сурадиган бошқа оила модели эгалламоқда. 21-аср аёли унинг баҳти учун ҳаётининг асосий соҳалари, яъни оила ва ишни бирлаштириш кераклигини тушунади. Шу билан бирга, ҳар хил роллар бир-бири билан кесишмаслиги учун уйғун тарзда бирлаштиришинг ва аёл ҳаётнинг барча соҳаларида ўзини тўлиқ англай олади.

Маълумки, 2019 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг қонуни хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрнига қаратилган ҳуқуқий ҳимоя, ҳуқуқий кафолат сифатида маъқулланганди.

Қувонарли томони шундаки, минг йиллардан буён жамиятда аёл ва эркак ўртасидаги тенгсизлик ва уни ҳал этиш масаласи ҳамиша долзарб бўлиб келган ҳуқуқий муносабатларнинг нечоғлик долзарблигига қаратилган қонундир. Жумладан, қонуннинг 1-моддасида қайд этилганидек, қонуннинг мақсади хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Тўғри, ҳозир биз яшаётган давр янгиланаётган Ўзбекистоннинг ислоҳотларида инсон манфаатларининг устунлигига қаратилган бир пайтда, ҳали ҳам оилавий низоларнинг жуда катта қисми эркаклар томонидан аёл ҳуқуқларининг тан олинмаслик ҳолатлари шунингдек, айrim ҳолатларда жамиятда ҳам хотин-қизларнинг ҳуқуқ ҳамда имкониятларига етарлича аҳамият берилмаётгани ҳақиқатдир.

Ана шундай салбий ҳолатларга қарши мазкур қонуннинг 2-моддасида “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир. Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома

қоидалари қўлланилиши” белгиланган. Шунингдек, қонунда гендер тушунчаси ҳам қайд этилган бўлиб, унга қўра, гендер — хотин-қизлар ва эркаклар ўртасидаги муносабатларнинг жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан сиёсат, иқтисодиёт, хукуқ, мафкура ва маданият, таълим ҳамда илм-фан соҳаларида намоён бўладиган ижтимоий жиҳати кўрсатилган. Демак, гендер тушунчаси фақат аёллар манфаатларини ифодаламайди. Балки ҳар икки жинс вакилларининг ўз орзу ва мақсадлари сари дадил одимлаши, ҳаёт сифатини ошириш учун бир хил имкон бериш кераклигини илгари суради, холос. Айнан ривожланган жамиятнинг талабларидан бири бу эркак ва аёл хукуқлари тенглигининг таъминланишидадир.

Дарҳақиқат, қадим юонон Суқрот, Арасту, Афлотун каби олимлари энг яхши давлат сифатида жамиятда тенглик ва адолат хукм сурган полисни назарда тутишган. Энг яхши қонунлар сифатида ҳам барча тенглигини кафолатлаган қонунларни илгари суришган. Эркак ва аёллар тенглиги ғоясини юонон олими Антифонт ўз асарларида қўллаган ҳолда: «Табиат барчани: аёлларни ҳам, эркакларни ҳам тенг қилиб яратади, лекин одамлар инсонларни тенгсиз ҳолатга соловчи қонунларни ишлаб чиқишидади», деб таъкидлаган. Шарқ қомусий олимлардан Абу Наср Форобий “Фозил одамлар шахри” асарида тенглик хукм сурган давлатни фозилликка интилган давлат сифатида қайд этган бўлса, 1791 йилда Олимпия Де Гуж томонидан тайёрланган фуқаролик ва аёл хукуқи декларациясида илк бор аёлларнинг эркин фикрлаш ва ўз фикрини билдириш хукуқига эга эканлиги эътироф этилган. Гендер тенглигининг хукуқий ривожига эътибор берадиган бўлсак, энг аввало, гендер тенгликнинг хукуқий асослари халқаро ва миллий қонунчиликни тарихий-назарий ва хукуқий жиҳатларини таҳлил этиш жоиз.

Албатта, барчамизга маълумки, 1948 йилда БМТ Бош ассамблеяси томонидан қабул қилинган Инсон хукуқлари умумжаҳон декларациясида эркак ва аёлларнинг тенглиги алоҳида эътироф этилган бўлиб, Декларациянинг 1-

моддасида «Ҳамма одамлар ўз қадр-қиммати ҳамда хуқуқларида эркин ва тенг бўлиб туғиладилар. Уларга ақл ва виждан ато қилинган, бинобарин бир-бирларига нисбатан биродарлик руҳида муносабатда бўлишлари керак», дея таъриф берилган. БМТ томонидан 1966 йилда қабул қилинган яна бир ҳалқаро ҳужжат – Фуқаролик ва сиёсий хуқуқлар тўғрисидаги ҳалқаро пактнинг 3-моддасида таъкидланишича, «Мазкур пактда иштирок этувчи давлатлар эркаклар ва аёллар учун ушбу Пактда қўриб чиқилган барча фуқаролик ва сиёсий хуқуқлардан бир хилда фойдаланишини таъминлаш мажбуриятини олади». Айнан мазкур ҳалқаро норма “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида” қонуннинг 2-моддасида “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир,-деган модданинг амалий ва ҳуқуқий асосидир.

Демак, юқорида қайд этилган ҳалқаро ҳужжатларни ратификация қилган мустақил давлатимиз ҳалқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган талабларидан келиб чиқиб ўз миллий қонунчилигида аёллар ва эркаклар тенглиги масаласига жиддий аҳамият беришининг сабаби ҳам асослидир.

Мазкур асоснинг яна бир ҳуқуқий кафолати бу Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 46-моддасида «Хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқлидирлар», деб белгиланганлигидир. Демак, гендер тенглигининг ҳам ҳалқаро ҳуқуқий ҳам, конституциявий ҳуқуқий асоси кафолатланган. Гендер тенглиги ижтимоий тенгликни ҳам англатади. Бундай тенгликни таъминлаш учун Конституция ва қонунларга зарур қоидаларни киритишнинг ўзи кифоя эмас.

Шу боис ҳам, “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш”га алоҳида эътибор қаратилган. Чунки, мана шундай синовли кунларда, яъни карантин даврида ҳам шифокорлар, ички ишлар, ҳатто Миллий Гвардия ходималарининг эркаклар билан елкама-елка туриб ишлашганинг гувоҳи бўлдик. Карантин бўлишига қарамай, тиббий никоблар, тиббий кийим-кечак, зарур воситаларни

зудлик билан етказиш учун тадбиркорлик ишларини йўлга қўйишганининг боиси, бирор бир тез тиббий ёрдам кўрсатишда узулишлар, етишмовчиликлар бўлмаганининг гувоҳимиз. Шифокорларимизнинг азалий Гиппократ қасамёди ҳаммага маълум. Куну-тун инсон саломатлиги йўлида хизмат қилган шифокорларимизнинг мешнати эвазига соғайган фуқароларимизнинг хурсандчилигининг ҳам гувоҳимиз.

Ана шундай изчиллик билан амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар натижасида жамиятимизда тинчлик ва иқтисодий барқарорлик таъминланмоқда. Кундалик ҳаётий тажриба шуни кўрсатмоқдаки, халқ фаровонлигида, жамият тинчлигида ҳамда иқтисодий барқарорликда эркак ва аёлнинг teng ҳуқуқлилиги муҳим ўрин тутади. Гендер тенглигини таъминлаш бўйича давлат миқёсида ишлаб чиқилган қонунлар ва дастурлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ҳатто Жаҳон Иқтисодий форуми (The Global Gender Gap) ўтказган тадқиқот натижаларига қараганда, хотин-қизлар эркакларга нисбатан бир йилда қарийиб 35 кундан кўпроқ ишлар экан. БМТ Болалар Жамғармаси (ЮНИСЕФ) тадқиқотларига қараганда эса, қизлар ўғил болаларга нисбатан бирор ишни бажаришда 35-36 фоиз қўп вақт сарфлар экан. Бу ҳали ҳам дунёда гендер тенглигига эриша олинмаётганлигини кўрсатади.

Шу боис ҳам, 2019 йилнинг 2 сентябрида қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизлар ва эркаклар учун teng ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида»ги қонуни мамлакатимизда гендер тенгликни таъминлашга қаратилган яхлит ва асосий қонун ҳужжати ҳисобланади. Ушбу қонун билан илк бор миллий қонунчилигимизда «гендер» тушунчасига таъриф берилган. Унга кўра, хотин-қизлар ва эркаклар учун teng ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, ушбу соҳада давлат бошқаруви механизmlари белгиланди. Хусусан, хотин-қизларнинг гендер камситилишига йўл қўймаслик мақсадида Ўзбекистон Республикасида Гендер тенгликни таъминлаш масалалари бўйича комиссия ташкил этилди.

Комиссиянинг асосий вазифалари хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш соҳасидаги ягона давлат сиёсатини амалга ошириш, ушбу соҳада давлат дастурларини, миллий ҳаракатлар режаларини ва стратегияларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этиш, ушбу соҳада қилинган ишлар бўйича ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис ига ахборот тақдим этиш, хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш ва бу борада халқаро стандартларга риоя этиш соҳасида халқаро ташкилотлар, хорижий мамлакатларнинг тегишли органлари билан ҳамкорликни амалга оширишдан иборат.

Қонуний ҳуқуқ ва эркинликлардан фойдаланишда жинс бўйича камсит ишга йўл қўймаслик айрим ижтимоий муносабатларга татбиқ этилмайди.

Гендер тенглик жамият ривожида мухим бўлган ижтимоий муносабатларда долзарб аҳамиятга эга эканлиги бугунги кунда янада яққол намоён бўлмоқда.

Бугун оилада, жамиятда, айниқса, хотин-қизларнинг ижтимоий ҳаётдаги фаоллигини оширишга алоҳида эътибор қаратилаётгани натижасида ижтимоий муносабатларда ҳам, қонунчиликда ҳам катта ўзгаришлар амалга оширилмоқда.

Хозирги кунда бутун дунёда руй берадиган глобаллашув даврида хотин-қизларнинг ҳукукий эркинликлари, қонуний манфаатларини химоя килиш жуда ҳам долзарб масалага айлануб бормоқда. Жамиятда хотин-қизларнинг иктисадий-сиёсий ҳамда ижтимоий-ҳукукий фаолиятини юксалтириш жараёнлари кечиктириб булмас давр талаби хисобланмоқда. Аёллар масаласи жамият, ижтимоий муносабатлар, миллатлар, давлатлар, маданият ва цивилизациялар билан узвий алокада. Бу масаланинг юзага келиши, ривожланиши ижтимоий-тарихий жараёнларнинг бир боскичдан иккинчи боскичга утиши билан ҳам бөглиkdir.

Президентимиз Ш.Мирзиёев таклифига биноан, мамлакат тарихида илк бор Сенат раислигига аёл киши Танзила Норбоева сайланди. Маълумки, ундан

олдин Т.Норбоева Узбекистон Республикаси Бош вазирининг уринбосари, Узбекистон Хотин-кизлар қумитаси раиси булиб фаолият юритган. Мазкур соҳадаги конунчилик чораларига тухталадиган булсак, Узбекистонда хотин-кизлар хукукларини таъминлаш ва химоя килишнинг хукукий асосларини янада такомиллаштириш максадида 2019 йил сентябрь ойида "Хотин-кизлар ва эркаклар учун тенг хукук хамда имкониятлар кафолатлари тугрисида"ги хамда "Хотин-кизларни тазийик ва зуравонлиқдан химоя килиш тугрисида"ги ^онунлар кабул килинди. БМТнинг деярли барча агентликлари, жумладан БМТ Тараккиёт Дастури, БМТ Ахолишунослик жамгармаси (ЮНФПА), БМТ Болалар жамгармаси (ЮНИСЕФ), БМТ Инсон хукуклари буйича Олий комиссари бошкармаси, БМТнинг Наркотик моддалар ва жиноят бошкармаси, Халкаро миграция ташкилоти ушбу икки конун буйича уз изоҳ ва таклифларини беришди.

Гендер тенглик буйича институционал чораларга келсак, айни пайтда Узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати таркибида аёллар хукукларини таъминлаш ва камситишнинг хар қандай шаклига бархам бериш буйича миллий конунчиликда халкаро стандартларни уйгуналаштириш билан

шугулланувчи янги Хотин-кизлар ва гендер тенглик масалалари қумитаси ташкил килинган. Бундан ташкари, меҳнатга оид хукукларнинг кафолатлари ва куллаб-куватлашни янада кучайтириш, уйдаги зуравонлик курбонларига ёрдам бериш максадида Зурлик ишлатишдан жабр курган шахсларни реабилитация килиш ва мослаштириш хамда уз жонига касд килишнинг олдини олиш республика маркази ва Хотин-кизлар тадбиркорлиги маркази, Хукumat хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқикот маркази ташкил топди. Кейинчалик эса Вазирлар Махкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқикот маркази хамда "Махалла зиёси" республика укув-услубий маркази негизида Узбекистон Республикаси Махалла ва оиласи куллаб-куватлаш вазирлиги хузуридаги "Махалла ва оила" илмий-тадқикот институти ташкил этилди. Ушбу янги ташкил этилган барча институционал механизmlар Узбекистон Хотин-кизлар

кумитаси билан биргаликда БМТ Конвенциясига мувофик аёллар хукуклари, гендер тенглиги ва хотин-кизларга нисбатан камситишларга бархам беришнинг ягона яхлит механизмига айланиши масаланинг мухим томонидир.

Таъкидлаш жоиз, кабул килинган норматив-меъёрий хужжатлар ва амалий чора-тадбирлар Узбекистоннинг гендер сиёсати соҳасидаги мухим кадамидир ва у конунчилик хамда амалиётнинг халкаро меъёр ва стандартларига тулик мос келади, шу билан бирга, уларнинг бир кисми ОБМТнинг инсон хукуклари буйича идоралари тавсияларига асосланган. Айниқса, "Хотин-кизларни тазийик ва зуравонликдан химоя килиш тугрисида"ги Конуннинг кабул килиниши мухим ахамият касб этди. Ушбу Конун куп йиллик мухокамалардан сунг кабул килинди. Конун оиласидаги зуравонлик курбонларига ёрдам бериш, уларга бошпаналар ажратиш, ишонч телефонлари ва нафакат жисмоний зуравонлик, балки психологик ёки иктисадий жиноятлар буйича мажбурий жавобгарликка тортиш оркали аёлларни химоя килиш учун асосдир. Бундай чоралар, хусусан, БМТнинг инсон хукуклари буйича идоралари томонидан узок вакт давомида тавсия килиб келинган.

Кабул килинаётган чора-тадбирлар мамлакатнинг барча худудлари ва хотин-кизларнинг барча тоифаларини камраб олиши керак. Хусусан, 2030 йилгача булган даврда БМТ Глобал кун тартибининг Баркарор ривожланиш максадларини изчил амалга ошириш кун тартибидаги тамойилларни, айниқса, "хеч кимни ортда колдирмаслик" тамойилини хисобга олган холда, хар хил камситиш шаклларига мойил булган хотин-кизларнинг холатига алоҳида эътибор каратиш долзарб масаладир. Бу ерда мамлакатнинг чекка худудларидаги кишлоклардаги хотин-кизларга, этник озчилик гурухлари, ногиронлар, ОИВ/ОИТСга чалинган аёллар, озодликдан маҳрум килиш ва чеклаш жойларидаги хотин-кизларга (шу жумладан камокхоналар, пансионатлар, кариялар уйлари ва руҳий касалликлар шифохоналари), инсон хукуклари химоячилари, фуқаролиги булмаган шахслар ва кочкинларга асосий эътибор каратилади .

Айни пайтда БМТнинг Узбекистондаги агентликлари уртасидаги хамкорлик доирасида гендер масалалари буйича махсус гурӯҳ фаолияти йулга кўйилган булиб, унинг таркибига БМТнинг деярли барча агентликлари вакиллари киритилган. Масалан, юкорида кайд этилган Конунларга берилган тавсиялар хали лойиха пайтида гурӯҳ ишининг бир кисми эди. Ушбу гурӯҳ фаолияти мисолида

БМТ агентликлари бошқа конун хужжатларини ишлаб чикишда ёрдам беришга доим тайёр. Бундан ташкари, конференция, видеоролик, Узбекистон Хотин-кизлар кумитаси кошидаги юридик клиника, ижтимоий тармоклар каби турли форматларда аёллар муаммолари тугрисида хабардорликни ошириш буйича куплаб тадбирлар кун тартибидан жой олган. Бу борада "Тараккиёт стратегияси маркази ва бошқа нодавлат ташкилотлар билан хам фаол хамкорлиқда иш олиб борилмоқда .

Ўз навбатида, Узбекистондаги БМТнинг жамоаси айни пайтда барча миллий хамкорлар ва бошқа манфаатдор томонларнинг кенг маслаҳатлашувлари билан ишлаб чикилаётган "2021-2025 йилларга мулжалланган Баркарор ривожланиш хамкорлик дастури" доирасида гендер тенгликни таъминлаш учун мамлакатга хар томонлама ёрдам беришда давом этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. БМТ: Асосий омиллар. -Т.: БМТнинг Узбекистондаги ваколатхонаси. 2001.51-52 бетлар.
2. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти: Гендер тенглик масалалари. Т.: БМТ ваколатхонаси. 2008. 272-273.
3. 2017-2021-йилларда Узбекистонни янада ривожлантириш буйича Харакатлар стратегияси. Тошкент, 2017-йил.
4. Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2004 йил 24 июндаги карори. <https://www.lex.uz/acts/308925>.

5. Жамиятда хукукий маданиятни юксалтириш миллий дастури. узбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 августда кабул килган 466-сонли карори.

6. Бебель А. Социализм и женщина. М.: Госполитиздат. 1959. -С.49.

7. Эвелин Б. Ланснинг Тошкентдаги "Меридиан" меҳмонхонасида 1998 йил 12 май кунлари булиб утган "Турмушдаги зуравонлик - А^Ш тажрибасидан" конференциясидаги маъruzаси.

8. Эгамбердиева Т. Аёл ва давр. Т.: Мехнат. 1994. - 6-7 бетлар. 10 Антология мировой философии. М., 1969. Т.1. -с. 322 10.

9. Нерсесянц. История идей правовой государственности. М.: 1993. с.59.

10. Холматова М. Жамиятда аёлларнинг урни (тарихий-фалсафий тахлил). Экология ва аёл. Фаргона. 2001. 109-110 бетлар.

**TASVIRIY SAN'AT VA INTERNET DIZAYNNING O'ZARO
BOG'LQLIGI HAMDA ZAMONAVIY TA'LIM SIFATINI
OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

Ergasheva Rayhon Sobir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

rergasheva005@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va yosh rassomlar veb-dizaynning tuzilishi uning funksiyalari, veb-dizaynerlik sohasi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu mutaxassislikda ta'lim oluvchi talabalar veb-dizaynerlik sohasini qo'shimcha ravishda o'rghanishlari zamonaviy ta'limga bo'lgan ilk qadam ekanligi maqolada keltirilgan fikrlar orqali o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Kibersotsiolizm, zamonaviy ta'lim, internet dizayn, veb-saytlar, interfaol usullar

**THE RELATIONSHIP OF VISUAL ART AND INTERNET DESIGN AND ITS
SIGNIFICANCE IN IMPROVING THE QUALITY OF
MODERN EDUCATION**

Ergasheva.R.S

a student 2nd-level Fine Arts and engineering graphics

of Shahrisabz State Pedagogical Institute

rergasheva005@gmail.com

ANNOTATION

Through this article, young artists and young artists studying in the fields of fine arts and engineering graphics can get detailed information about the structure of web design, tasks and the field of web design. The additional study of web design by students studying this specialty is the first step on the way to modern education, which is expressed in the directions presented in the article.

Key words and phrases: Cybersocialism, modern education, internet design, websites, interactive methods

Kirish. Bugungi tobora rivojlanib borayotgan ta'limiy jarayonlarda nafaqat IT texnologiya balki yoshlar o'rtasida kiberijtimoiylashuv jarayonlari ham jadal suratlarda ortib bormoqda. Bugungi kunda institutlarimizda zamonaviy uzlucksiz ta'lim berish jarayonlarida zamonaviy interfaol usullardan ma'lum darajada foydalanilmoqda. Ushbu interfaol usullardan ya'ni internet dizayn kibersotsiolizm tushunchalarini tasviri san'at bilan bog'liq holda ushbu darslarda qo'llangan holda dars olib borilishi zamonaviy kun talablariga javob beradi. Hozirgi kunda har bir sohada zamonaviy internet vositalarini qo'llaganilgani kabi tasviri san'at sohasida ham ushbu metoddan foydalanish muhim. Tasviri san'at mutahassisligida tahsil olayotgan talabalarga internet dizayn va uning bugungi kun ijtimoiylashuvimizdag'i ahamiyati estetik dunyoqarashimizdag'i rolini o'rgatish zamonaviy kasb egalarini tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Veb-dizayn Internetda ko'rsatiladigan veb-saytlar dizaynnini anglatadi. Bu odatda dasturiy ta'minotni ishlab chiqish emas, balki veb-saytlarni ishlab chiqishning foydalanuvchi tajribasi jihatlariga ishora qiladi. Ilgari veb-dizayn ish stoli brauzerlari uchun veb-saytlarni loyihalashga qaratilgan edi; ammo, 2010-yillarning o'rtalaridan boshlab, mobil va planshet brauzerlari uchun dizayn tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Veb-dizayner veb-saytning tashqi ko‘rinishi, tartibi va ba’zi hollarda mazmuni ustida ishlaydi. Tashqi ko‘rinish, masalan, ranglar, shrift va ishlatiladigan tasvirlarga bog‘liq. Tartib ma’lumotlarning qanday tuzilganligi va toifalanishini anglatadi. Yaxshi veb-dizayn foydalanish uchun qulay, estetik jihatdan yoqimli va veb-saytning foydalanuvchilar guruhi va brendiga mos keladi. Ko‘pgina veb-sahifalar foydalanuvchilarni chalg‘itishi yoki chalg‘itishi mumkin bo‘lgan begona ma’lumotlar va funksionallik paydo bo‘lmasligi uchun soddalikka qaratilgan. Veb-dizayner mahsulotining asosiy toshi maqsadli auditoriyaning ishonchini qozonadigan va kuchaytiradigan sayt bo‘lganligi sababli, foydalanuvchilarning umidsizliklarini iloji boricha ko‘proq yo‘q qilish juda muhim masala.

Veb-dizaynerlik soxasi bugungi kun talabidir. Veb saytlar turli maqsad va vazifalarda internet tarmoqlarida foydalanuvchilarga taqdim etilmoqda. Ushbu saytlarning qay darjada faoliyat ko‘rsatishi,nima mahsulot ishlab chiqarishi yoki iste’molchilarga nima bera olishi haqida muhim omillarni veb-dizaynerlik sohasi yoritib bera oladi. Veb-saytlarning dizayni bizning oldimizga qator vazifalarni qo‘yadi: veb-saytlar dizayn yozuvi oddiy soda tilda hamma uchun tushunarli tarzda yozilishi, shriftlar tezda e’tiborni jalb qilish xususiyatiga ega bo‘lishi, ayniqsa ranglarni tanlashda saytning qaysi funksiyani bajarishiga e’tibor qaratilishi muhim.

Ish stolida ham, mobil qurilmalarda ham yaxshi ishlaydigan veb-saytlarni loyihalashning eng keng tarqagan usullaridan ikkitasi sezgir va moslashuvchan dizayndir. Ta’sirchan dizaynda kontent ekran o‘lchamiga qarab dinamik ravishda harakatlanadi; moslashuvchan dizaynda veb-sayt tarkibi umumiy ekran o‘lchamlariga mos keladigan tartib o‘lchamlarida o‘rnataladi. Qurilmalar o‘rtasida iloji boricha mos keladigan tartibni saqlash foydalanuvchi ishonchini va ishtirokini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Ta’sirchan dizayn bu borada qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkinligi sababli, dizaynerlar o‘zlarining ishlari qanday paydo bo‘lishini nazorat qilishdan voz kechishda ehtiyyot bo‘lishlari kerak. Agar ular tarkib uchun ham mas’ul bo‘lsalar, lekin ular o‘zlarining malakalarini kengaytirishlari kerak bo‘lsa-da, ular tayyor mahsulotni to‘liq nazorat qilish afzalligiga ega bo‘lishadi.

Natijalar. Tasviriy san'at deganda nafaqat matoga qog'ozga rasm ishslash balki, komputerda turli texnikalardan foydalangan holda turli maqsadlarda asarlar yaratish tushuniladi. Bugungi kunda san'atning imkoniyatlari chek chegarasiz va hadsiz. O'tgan asrlar davomida san'atga faqat madaniy hordiq olish estetik ta'sir o'tkazish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda bu tushunchalar asosi tubdan o'zgardi. Tasviriy san'at bu zamonaviy texnologiyalar bilan hamohang holda zamonaviy ta'limning asosi va yot g'oyalarga qarshi kurashishdagi asosiy qurol hamdir. Tasviriy san'at bilan internet dizaynning o'zaro boq'liqlik jihatlari ko'p. Tasviriy san'atdagi kompozitsiya, mutanosiblik, badiiy qurish, ijodiy fikrlesh qobiliyati va ranglar uyg'unligi amaliy asar yaratishda muhim rol o'ynagani kabi internet dizaynda ham o'rni beqiyosdir.

Ushbu oyati karimada e'tibor nazari bilan qarasak "fajr Qur'oni" degan jumla "tonggi qiroat" degan ma'noni bildiradi. Alloh taolo Qiyomat surasida shunday marhamat qiladi:

إِنَّ عَلَيْنَا جَمْعُهُ وَقُرْآنُهُ (١٧) فِإِذَا قَرَأْنَاهُ فَاتَّبَعْ قُرْآنَهُ (١٨).

"Albatta, u (Qur'on)ni jamlash va o'qib berish Bizning zimmamizda. Bas, uni o'qisak, qiroatiga zehn solib tur". "Qiyomat" surasi 17-18-oyatlari.

Bu oyatlarda biz "o'qib berish", "qiroat" deya tarjima qilgan so'z "qur'on" kalimasidir. Islom dini bosh dasturning aynan "Qur'on", ya'ni "O'qish" yoki "O'qilmish" deb nomlanishida ham katta ma'no o'z ifodasini topgan. "Bu ilmga, ma'rifatga asoslangan dindir", degan ma'no bor bunda.

Yana bir ma'nosi "jamlash"dir. Lug'atshunoslar "Qur'on" lafzining "o'qimoq", "qiroat qilmoq"dan tashqari "jamlash", "o'zida mujassam etish" ma'nosida ham ishlatar edilar. Bunga Amr ibn Kulsum Tag'libiyning turmush qurmagan bokira qizini sifatlab "لَمْ تَقْرَأْ جَنِينًا" ya'ni "o'zida homila mujassam etmagan" degan gapi misol bo'la oladi.

"Qur'on" lafzida "jamlash" ma'nosi borligiga Allohning oxirgi kalomi harflar va sonlarning bir-biriga qo'shib, jamlanishidan, oyat va suralarning birikishidan xosil bo'lganiga hamda bu kitob o'zida dunyo-yu oxirat yaxshiliklarini jamlaganiga ishora bor.

"Qur'on" so'zing istilohiy ma'nosi. Mana, o'n to'rt asrdan buyon ko'pchilik "Qur'on" lafzining lug'aviy ma'nosini bilmasa ham, uning musulmonlarning muqaddas kitobi ekanini tan olib kelmoqda. Lekin Qur'oni karimni tanish, uning ismining lug'aviy ma'nosini yoki u kimlarning muqaddas kitobi ekanini bilishning o'zi bilan bo'lmaydi. Bu muqaddas kitobning qanday ekanini bilish uchun ham ilm egalarining maxsus ta'rifiga murojaat qilishga tog'ri keladi.

Uning istilohiy ma'nosi: "**Qur'on Alloh taoloning Muhammad sollallohu alayhi va sallamga vahiy orqali nozil qilngan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan ojiz qoldiruvchi kalom**" hisoblanadi.

Ushbu ta’rifni yaxshi tushunib etishimiz uchun uni bir oz sharhlashimga to‘g‘ri keladi.

“Alloh taolonning Muhammad sollallohu alayhi va sallamga vahiy orqali nozil qilingan” degan jumladan Alloh taolonning Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan boshqa payg‘ambarlariga nozil qilgan Tavrot, Zabur, Injil hamda turli sahifalari Qur’oni karim bo‘lmasligi kelib chiqadi. Haqiqiy Zabur, Tavrot va Injil ham Alloh taolonning kalomi, ammo ular Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nozil etilmagani uchun Qur’oni karim bo‘la olmaydi.

“Tavotur ila naql qilingan” degan iboradan tavotur ila naql qilinmagan kalom, Qur’oni karim bo‘la olmasligi kelib chiqadi. “Tavotur” deganda kalomning yolg‘onchiga chiqarib bo‘lmaydigan darajadagi ko‘p sonli kishilar tomonidan naql qilinishi tushuniladi. Ularning hammalari ishonchli, ya’ni biror og‘iz yolg‘onga yaqinlashmagan odamlar bo‘lib, ko‘pliklari sababli, yolg‘onga kelishib olishga ham imkonlari yo‘q bo‘ladi.

Qur’oni karimning birinchi kalimasidan boshlab, oxirgi kalimasigacha har bir so‘z aynan ana shu tarzda naql qilingan. Qur’oni karimni Alloh taoladan vahiyning amini (ishonchli sohibi) bo‘lmish Jabroil alayhissalom Muhammad sollallohu alayhi va sallamga naql qilinganlar. Ushbu naql qanday kechishini, ya’ni Muhammad sollallohu alayhi va sallamga Qur’oni karim oyatlari Jabroil alayhissalom tomonlaridan qanday yetkazilishini ko‘pchilik sahabalar o‘z ko‘zlar bilan ko‘rib turganlar.

Buning ustiga, har safar vahiy nozil bo‘lgandan so‘ng, Muhammad sollallohu alayhi va sallam “Menga kotiblarni chaqiringlar” der edilar. Kotib sahabalar kelganlaridan so‘ng, ularga oyati karimalarni Jabroil alayhissalomdan qanday qabul qilib, olgan bo‘lsalar, shunday qilib, o‘qib berar edilar. Kotiblik qiluvchi sahabalar oyatlarning har bir harfini ulkan ehtimom ila yod olar edilar. Muhammad sollallohu alayhi va sallam Qur’oni karimning har bir oyati, har bir kalimasi, har bir harfining misli ko‘rilmagan e’tibor bilan qabul qilib, olinishi, yodlanishi, yozilishi hamda amal qlinishiga, vasfiga so‘z ojiz qoladigan darajada katta ahamiyat bergenlar.

Alloh taolo esa payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga Qur’oni karimning o‘zida Jabroil alayhissalomning qiroatiga diqqat bilan qulqoq solishni buyurgan. Qur’oni karim oyatlarining rasululloh sollallohu alayhi va sallamning qalblariga joylanib, tillaridan joriy bo‘lishini hamda uning tafsirini bayon qilib, berishni Alloh taolo O‘z zimmasiga olgan.

O‘z navbatida payg‘ambar alayhissalomdan Qur’oni karim oyatlarini qabul qilib, olgan sahabayi kiromlar ham shogirdlariga oyatlarni yuqorida zikr qilinganidek, harfma-harf yetkazganlar. Qur’oni karim o‘sha davrdan hozirgacha huddi o‘sha tarzda son-sanoqsiz odamlar tomonidan ishonchli tariqada naql qilinib kelmoqda.

“Ibodatda o‘qiladigan” degan qayddan “namozda o‘qiladigan” degan ma’no kelib chiqadi. Qur’oni karim tilovatisiz namoz bo‘lmaydi. Alloh taoloning boshqa vahiyilari, misol uchun, hadis qudsiyalarni namozda o‘qib bo‘lmaydi. Namozda o‘qishga faqatgina Qur’oni karim xos qilingan. Bu ham ilohiy kitobni ajratib turuvchi sifatlardan biridir.

“Ojiz qoldiruvchi kalom” degan sifat ham faqatgina Qur’oni karimning o‘ziga xos xususiyatlardan biridir. Qur’oni karimning har bir oyati, har bir ahkom-u axbor jihatidan kishilarni ojiz qoldiruvchidir. Ya’ni insonlar har qancha urinsalar ham, unga o‘xhash narsani ijod qila olmaydilar. Alloh taolo aytgandek:

وَإِنْ كُنْتُمْ فِي رَيْبٍ مِّمَّا نَزَّلْنَا عَلَىٰ فَأَتُوا بِسُورَةٍ مِّنْ مِّثْلِهِ وَادْعُوا شُهَدَاءَكُمْ مِّنْ دُونِ اللَّهِ إِنْ كُنْتُمْ صَادِقِينَ

Agar bandamizga (Muhammadga) **tushirgan narsamizdan** (Qur’ondan) **shubhada bo‘lsangiz, bas, siz ham unga o‘xhash** (birgina) **sura** (yoziб) **keltiring** va **Allohdan o‘zga guvohlaringizni chaqiring** – agar rostgo‘y bo‘lsangiz. “Baqara” surasi 23-oyati.

Alloh taolo Qur’oni karimning o‘zida odamlarni agar qodir bo‘lsalar, Qur’oni karimga o‘xhash narsa keltirishga chaqirgan. Odamlar har qancha urinmasinlar, bu ishning uddasidan chiqa olmaganlar, chiqa olmayaptilar, chiqa olmaydilar ham.

Alloh taolo Qur'oni karimni o'zining eng afzal va eng so'nggi payg'ambari bo'lmish Muhammad alayhissalomning asosiy mo'jizalari qildi. Avval o'tgan payg'ambarlarning mo'jizilari moddiy mo'jizalar bo'lib, har bir payg'ambarning bu dunyoda turmushiga bog'liq qilingan edi. O'sha payg'ambar alayhimussalomlar bu dunyodan o'tishlari bilan u zotlarga berilgan mo'jiza ham o'z kuchini yo'qotgan edi. Chunki Muhammad sollallohu alayhi va sallamgacha bo'lган barcha payg'ambarlarning shariatlari vaqtinchalik bo'lган.

Muhammad sollallohu alayhi va sallamning shariatlari qiyomatgacha boqiy bo'lgani, u zotga asosiy mo'jiza sifatida qiyomatgacha boqiy qoladigan, u zotning hayotlariga bog'liq bo'lмаган ma'naviy mo'jiza – Qur'oni karim beriladi. Qur'oni karimning ushbu ta'rifi arab tili ulamolari, faqihlar va usuli fiqh olimlari orasida ittifoq qilingan ta'rifdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Doktor Aliy ibn Sulaymon al-Abid. Tarjimatul- Qur'on.
2. Shayx Muhammad Abdulazim az-Zarqoniy. Manahilul-Qur'on fi ulumil-Qur'on. –Saudiya Arabiston: 3. Maktabatu nizar Mustafa Al-boz. 2-nashr 1998. – J. 2.
4. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarinining tarjima va tafsiri
5. Hofiz Jaloliddin Abdurahmon as-Suyutiy. Al-Itqon fi ulumil-Qur'on. – Qohira Darul-G' oddi al-Jadiyd. 2006 – 4-juz.
6. Doktor Muhammad Abdulkarim al-Jazoiri. Muqaddima fi ulumil –Qur'on va ulumit-tafsir. 1-nashr Jamiyatud-Da'val –Islomiya.

BIRINCHI QAVAT TEMIRBETON USTUNLARINI TEMIRBETON HALQA BILAN KUCYAYTIRISH

Dosent **Saydazimov Musurman Ravshanovich**

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

E-mail: SaydazimovMusurman@gmail.com

ANNOTATION

This article describes the procedure for calculating the method of reinforcing reinforced concrete columns of buildings under reconstruction with a reinforced concrete ring. There is also information about the materials used for reinforcement and the technology of its implementation.

Keywords: Reinforced concrete ring, concrete, armature, reinforcement, calculation, frame, result.


KIRISH.

Ma'lumki, temirbeton va boshqa konstruksiyalarining haqiqiy yuk ko'tarish qobiliyatini o'rganish uchun ularni texnik holatini tekshirish va baholash zarur bo'ladi. Bundan maqsad - kuchaytirishning zarurligi va maqsadga muvofiqligini hamda kuchaytirishning samarali usulini tanlash uchun qaror qabul qilish, konstruksiyalarni kuchaytirish, ularning yuk ko'tarish qibiliyatini oshirish va binoning zilzilabardoshligini ta'minlashdan iborat. Buning uchun kuchaytpriladigan konstruksiyalarni, xususan, temirbeton ustunlarni va binoni hisobiy seysmik kuchlar ta'siriga hisoblash kerak bo'ladi [6].

ASOSIY QISM. Kuchaytirish uchun qo'llannladngan materiallar (beton, armatura, prokat, sement qorishmasi) xossalari amaldagi standartlar talablariga javob berishi kerak [1.2,3].

Betonning siqilishga bo‘lgan mustahkamligi bo‘yicha sinfn B15 dan kam bo‘lmasligi zarur va shu bilan birga mayda donaln beton qo‘llashga rioya etiladi. Po‘lat armatura sifatida sinfi A300 va A400 davrny yuzali armatura qo‘llaniladi.

Temirbeton ustunni kuchaytirish talab qilinadi, uning kondalang kesimi 1 - rasmda ko‘rsatilgan, vaqtinchalik yukning ortishi bilan bog‘liq [5].



1 – rasm. Mavjud temirbeton ustunning kesimi

Dastlabki ma’lumotlar: ustunning kesimi $b \times h = 400 \times 400$ mm; qavat balandligi $H_{et} = 4.8$ m; qavatlar soni $n = 4$; og‘ir beton sinfi B20 ($R_b = 11.5$ MPa; $R_{bt} = 0.9$ MPa); ishchi bo‘ylama sterjenli armatura $4\varnothing 16A-II$ ($R_{sc} = 280$ MPa; $A'_s = 804$ mm 2). Qorli hudud - IV ($S_g = 2,4$ kPa) [4].

Biz ustunni mustahkamlash zarurligini aniqlaymiz.

Biz ustunga yangi oshirilgan yukni aniqlaymiz (1- jadval).

1 m 2 tom yopma uchun yuk

Yuk turi	Me’yoriyyuk,	Yuklar	bo‘yicha	Hisobiy yuk,
----------	--------------	--------	----------	--------------

	kN /m ²	ishonchilik koeffisienti γ_f	kN/m ²
Doimiy: uch qatlamlı tom yopish materiallari gilam	0.1	1.3	0.13
Sementli suvoq ($\delta = 0,02 \text{ m}$; $\rho = 18 \text{ kN / m}^3$)	0.36	1.3	0.47
Penobetonli isitgich ($\delta = 0,11 \text{ m}$; $\rho = 0.5 \text{ kN / m}^3$)	0.55	1.3	0.72
Paroizolyasiyalı qoplama	0.05	1.3	0.06
Ko‘p g‘ovakli plita ($\delta = 0,2 \text{ m}$; $\rho = 25 \text{ kN / m}^3$)	3.0	1.1	3.3
Jami	4.06	-	4.68
Vaqtinchalik	1.68	-	2.4
Hammasi	5.74	-	7.08

1 m² ora yopma uchun hisobiy yuk

$$q_1 = q + g_1 = 19.26 + 0.91 = 20.17 \text{ kN/m}^2,$$

bu erda $q = 19.26 \text{ kN / m}^2$ - ora yopmaga to‘liq hisobiy yuk jad. 1.1;

g_1 – temirbeton ora yopma plitalarini kuchaytirish (ikki bo‘shliqda),

$$g_1 = \left(\frac{\pi \cdot 0.159^2}{4} \cdot 2 \right) \cdot \rho \cdot \frac{\gamma_f}{b} = \left(\frac{3.14 \cdot 0.159^2}{4} \cdot 2 \right) \cdot 25 \cdot \frac{1.1}{1.2} = 0.91 \frac{\text{kN}}{\text{m}^2}.$$

Kuchaytirilgan rigelning og‘irligidan ustunga hisobiy yuk (rigel

qo‘shimcha elastik tayanch qo‘shilishi bilan kuchaytirilgan)

$$N_{rig} = g_{rig} \cdot l_2 + g_{qo'sh} \cdot l_2 = (4.125 + 7.315) \cdot 6 = 68.64 \frac{\text{kN}}{\text{m}},$$

$$\text{bu yerda } g_{rig} = \gamma_f \cdot \rho \cdot b \cdot h = 1.1 \cdot 25 \cdot 0.25 \cdot 0.6 = 4.125 \frac{\text{kN}}{\text{m}};$$

$g_{qo'sh}$ - GOST 8239-89 bo‘yicha № 45 – dvutavrli tayanuvchi to‘sining bir metr uzunlikdagi og‘irligi,

$$g_{qo'sh} = q_1^n \cdot \gamma_f = 7.315 \text{ kN/m.}$$

Bir qavat ustunining og'irligidan hisoblangan yuk

$$N_y = b \cdot h \cdot H_{qav} \cdot \rho \cdot \gamma_f = 0.4 \cdot 0.4 \cdot 4.8 \cdot 25 \cdot 1.1 = 21.12 \text{ kN.}$$

Yuk maydoni $A = l_1 \cdot l_2 = 6.0 \cdot 6.0 = 36 \text{ m}^2$ bo'lganda, birinchi qavat ustuning bo'ylama hisobiy kuch qiymatini hisoblaymiz :

$$\begin{aligned} N_1 &= A \cdot [q_2 + (n - 1) \cdot q_1] + [N_{rig} + N_y] \cdot n = \\ &= 36 \cdot [7.08 + (4 - 1) \cdot 20.17] + [68.64 + 21.12] \cdot 4 = 2792.28 \text{ kN.} \end{aligned}$$

Mavjud ustunning yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlaymiz (2 - rasm) [5].


NATIJALAR.

1. Shartni tekshiramiz

$$\frac{l_0}{h} \leq 20; \frac{4.8}{4} = 12 < 20,$$

bu yerda $l_0 = H_{qav} = 4.8 \text{ m.}$

Shart bajarildi, ya'ni. ustunni tasodifiy eksantriklik $e_a = 0$ qiymatini olib, markaziy siqilgan element sifatida hisoblash mumkin



2 – rasm. Ustunning yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash uchun:

a - ustunning hisoblash sxemasi; b - hisoblangan qism.

2. $\frac{l_0}{h} = 12$ egiluvchanligiga qarab φ koeffitsientini aniqlaymiz [(2, 6.2-jadval, 3.3-jadval 3-ilova)]. $\varphi = 0,872$ ni qabul qilamiz [4].

3.Ustun tomonidan qabul qilinadigan bo'ylama kuch quyidagilarga teng bo'ladi:

$$\begin{aligned}
 N &= \varphi \cdot (R_b \cdot \gamma_{b1} \cdot A + R_{sc} \cdot A'_s) \\
 &= 0.872 \cdot (11.5 \cdot 10^3 \cdot 0.9 \cdot 0.4 \cdot 0.4 + 280 \cdot 10^3 \cdot 804 \cdot 10^{-6}) = \\
 &= 1640.34 \text{ kN}.
 \end{aligned}$$

Shartni tekshiramiz

$$N_1 \leq N; \quad 2792.28 \text{ kN} > 1640.34 \text{ kN}$$


Shart bajarilmadi, ortiqcha yuk:

$$\frac{N_1 - N}{N} \cdot 100\% = \frac{2792.28 - 1640.34}{1640.34} \cdot 100\% = 70.23\%;$$

shuning uchun, ustunni kuchaytirish talab qilinadi.

Temirbeton halqa bilan ustunni kuchaytirish

Temirbeton halqa bilan markaziy siqilgan ustunni kuchaytirishni hisoblashni amalga oshiramiz (3 - rasm) [5].



3 – rasm. Temirbeton halqa bilan kuchaytirilgan ustunning hisobiy kesimi

1. Halqaning qalinligini $\delta = 60 \dots 300$ mm qilib belgilaymiz. Qabul qilamiz $\delta = 60$ mm. Ustun kesimining yangi o‘lchamlari quyidagilarga teng bo‘ladi:

$$h_1 = h + 2 \cdot \delta = 400 + 2 \cdot 60 = 520 \text{ mm} = 0.52 \text{ m};$$

$$b_1 = b + 2 \cdot \delta = 400 + 2 \cdot 60 = 520 \text{ mm} = 0.52 \text{ m}.$$

Biz halqaning kesim maydonini hisoblaymiz:

$$A_1 = h_1 \cdot b_1 - b \cdot h = 0.52 \cdot 0.52 - 0.4 \cdot 0.4 = 0.11 \text{ m}^2.$$

2. Egiluvchanlikka qarab φ koeffisientini aniqlaymiz

$$\frac{l_0}{h_0} = \frac{4.8}{0.52} = 9.23 \text{ qabul qilamiz } \varphi = 0.904.$$

3. Talab qilingan kuchaytirish armatura yuzasining yig‘indisini topamiz, uni A400 sinfidagi sterjenlardan bajaramiz ($R_{sc,1} = 350$ MPa). B25 dan past

bo‘lmaqabeton sinfini tanlaymiz. Mavjud ustunning betonidan birpog‘ona yuqoriqoq B25 og‘ir beton sinfini qabul qilamiz ($R_{b,1}=14,5 \text{ MPa}$).

$$A_{s1} = \frac{\frac{N}{\varphi} - (R_b \cdot \gamma_{b1} \cdot A + R_{sc} \cdot A'_s + m \cdot R_{b1} \cdot \gamma_{b1} \cdot A_1)}{m \cdot R_{s1}} = \\ = \frac{2792.28}{0.904} \cdot \\ \cdot \frac{(11.5 \cdot 10^3 \cdot 0.4 \cdot 0.4 + 280 \cdot 10^3 \cdot 804 \cdot 10^{-6} + 0.9 \cdot 14.5 \cdot 10^3 \cdot 0.9 \cdot 0.11)}{0.9 \cdot 350 \cdot 10^3} 10^6 \\ = -2.68 \cdot 10^4 \text{ mm}^2 < 0,$$

bu erda $m = 0.9$ - halqaning ish sharoitlari koeffisienti.

Hisoblash orqali qo‘shimcha kuchaytirish talab qilinmaydi. Конструктив талаблардан kelib chiqib siqilgan elementlar uchun, 4Ø16A400 ni qabul qilamiz ($A_{s1,f} = 804 \text{ MM}^2$).

•Kuchaytirilgan ustun kesimining yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlaymiz.

1. Kuchaytirilgandan keyin birinchi qavatning ustuni tomonidan qabul qilingan bo‘ylama kuchni hisoblaymiz:

$$N_f = \varphi \cdot [(R_b \cdot \gamma_{b1} \cdot A + R_{sc} \cdot A'_s) + m \cdot (R_{b1} \cdot \gamma_{b1} \cdot A_1 + R_{sc,1} \cdot A_{s,1})] = \\ 0.904 \cdot [(11.5 \cdot 10^3 \cdot 0.9 \cdot 0.4 \cdot 0.4 + 280 \cdot 10^3 \cdot 804 \cdot 10^{-6}) + 0.9 \cdot (14.5 \cdot 10^3 \cdot 0.9 \cdot 0.11 + 350 \cdot 10^3 \cdot 804 \cdot 10^{-6})] = 3097.40 \text{ kN}.$$

2. Oqimdan ko‘rib chiqilayotgan ustundagi bo‘ylama kuch temirbeton halqadan qo‘shimcha yukni hisobga olgan holda yuk teng bo‘ladi:

$$N'_1 = N_1 + N_{qo'sh} = 2792.28 + 14.57 = 2806.85 \text{ kN}.$$

$$bu yerda N_{qo'sh} = (h_1 \cdot b_1 - h \cdot b) \cdot H_{qav} \cdot \rho \cdot \gamma_f = \\ = (0.52 \cdot 0.52 - 0.4 \cdot 0.4) \cdot 4.8 \cdot 25 \cdot 1.1 = 14.57 \text{ kN}.$$

3. Kuchaytirilgan ustunning mustahkamligini tekshiramiz:

$$N_f > N'_1;$$

$$N_f = 3097.40 \text{ kN} > N'_1 = 2806.85 \text{ kN}.$$

Shart bajarilgan; shuning uchun kuchaytirilgandan keyin ustunning yuk ko‘tarish qobiliyati etarli. Mustahkamlik zahirasi

$$\frac{N_f - N'_1}{N'_1} \cdot 100\% = \frac{3097.40 - 2806.85}{2806.85} \cdot 100\% = 10.35\%.$$

Agar shart bajarilmasa, ya’ni. $N_f < N'_1$, halqaning qalnligini (tavsiya etilgan diapazonda) yoki qo’shimcha bo‘ylaina armatura diametrini oshirish kerak. Mustahkamlik zahirasini oshirish talab etilsa, xuddi shunday qilish kerak (kelajakda yukning ko‘payishini e’tiborga olish mumkin).

- **Ustunni temirbeton halqa bilan kuchaytirish ishlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**

- kuchaytirilayotgan ustundan yuk tushiriladi (vaqtinchalik yuk olib tashlanadi);
- pol konstruksiyasi poydevorning yuqori chetiga qadar (yoki ora yopma plitasining darajasigacha) ochiladi;
- ustunning yuzasi suvoq qatlamidan tozalanadi, shikastlangan beton qismlari olib tashlanadi, 3 ... 6 mm chuqurlikdagi tirqish qilinadi;
- himoya qatlami olib tashlanadi, ochiladi va korroziyadan tozalanadi, beton qoldiqlari va ishchi bo‘ylama armatura ustun qismlarida va birlashtiruvchi elementlarni payvandlash joylarida (ochilishning qismlari 500...1000 mm gacha oralioda amalga oshiriladi);
- birlashtiruvchi elementlar (sterjenlar yoki po‘lat plastinlar) ustunning bo‘ylaina armaturasiga payvandlanadi;
- loyihaviy holatda o‘rnatiladi va kuchaytiruvchi bo‘ylama armaturaning birlashtiruvchi elementlariga payvandlanadi;
- ko‘ndalang kuchaytiruvchi armatura (qisqichli halqalar) o‘rnatiladi;
- ustun yuzasi changdan tozalanadi va suv bilan yuviladi;
- qolip qalqonlari yaruslar bilan o‘rnatiladi va mahkamlanadi;
- beton aralashmasi qatlamlili qilib zichlashtirilgan holatda yotqiziladi (qatlam balandligi 200...300 mm);

- qolip demontaj qilinadi (beton quyish paytida halqa mustahkamligi, loyihadagi 50% dan past emas) [4].

Xulosa. Shikastlanpshlarga ega bo‘lganrekonstruksiya qilinadigan bino-ning temirbeton ustunlarini kuchaytirish ishlarini hisoblashni o‘tkazish uchun maqolada keltnrilgan hisob tartibidan foydalanish mumkin. O‘tkazilgan hisoblar natijalariga ko‘ra, kuchaytirish yetarli qo‘sishimcha yuk ko‘tarshi qobiliyatini taminlay oladimi degan savolga javob topish mumkin. Olingan hisob natijalari asosida tegishli tavsiyalar berish imkonи yuzaga keladi va buni qo‘llash kuchaytiralayotgan konstruksiyaning ishonchli ishslashini ta’minlashga yordam beradi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г ОСТ 10180-90 Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам.
2. ГОСТ 5781-82* Сталь горячекатаная для армирования железобетонных конструкций Технические условия.
3. КМК 3.03.01-99 Приготовление и применение строительных растворов. Ташкент. 1999.
4. В.И. Мулenkova, Д.В. Артюшин «Расчет и конструирование усиления железобетонных и каменных конструкций»: учебные пособие. Пенза: ПГУАС, 2014. – 118 с.
5. Asqarov B.A., Nizomov Sh.R. Temirbeton va tosh-g‘isht konstruksiyalari. Darslik. - Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2008 yil.
6. Mag. S.F. Bozorqulov, dos. M.R. Saydazimov Maqola. Rekonstruksiya qilinadigan binolar temirbeton ustunlarini kuchaytirilishini hisoblash. “Arxitektura, qurilish va dizayn ilmiy – amaliy jurnali” 4 – son 2021 yil.

O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna

QarMII magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada mintaqalarda sanoat tarmog'ini rivojlantirishning hududiy jihatlari, ishlab chiqarish salohiyati, holati va imkoniyatlari o'rghanildi. Hozirgi kunda Respublikada iqtisodiy islohotlarni olib borishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, uning omillaridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatimizning bir nechta hududlaridagi sanoatning tutgan o'rni statistik ma'lumotlar orqali o'rganilib kerakli tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: sanoatini rivojlantirish, mintaqa, sanoat siyosati, investitsiya, makroiqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, moliyaviy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, yalpi sanoat mahsuloti.

ABSTRACT

In the article, the territorial aspects of the development of the industrial network in the regions, production potential, state and opportunities were studied. Currently, in carrying out economic reforms in the Republic, the main task is to ensure macroeconomic stability, increase the size of the gross domestic product, effectively use its factors, and improve the structural structure of the economy. The role of the industry in several regions of our country was studied through statistical data and the necessary recommendations were made.

Key words: *industrial development, region, industrial policy, investment, macroeconomics, economic reforms, financial stability, gross domestic product, gross industrial product.*

Kirish

Respublikamizda qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi va milliy iqtisodiyotga investitsiyalarning keng jalgan etilishi natijasida nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida ham muhim sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Iqtisodiyotda tub burilish kechayotgan bir vaqtida iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatning mavqeい alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyyod O'zbekiston Respublikasini Prezidenti qarorlari qabul qilindi.²¹

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi va uning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli farmoni bilan 2022 yil 28 yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi [1].

Ushbu strategiyaning aynan uchinchi yo'naliishiga ko'ra Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'milash va YaIMda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirtib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 bavararga oshirish, 2030 yilgacha uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va "Sanoatni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish"ga qaratilgan davlat dasturlarida

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli 2022 yil 28 yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"

mintaqalar sanoatini o'stirishni ta'minlash, iqtisodiyotni yanada liberlashtirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Chunki, ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xom ashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma - bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimiz qazilma boyliklari, qurilish xomashyolari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari jihatidan boy va yuqori imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Shu asosdan ko'plab olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz tomonidan mamlakatimizda hududlar sanoatini, ularning imkoniyatlari jihatidan rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan:

D.Sh.Raximov o'zining "Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo'nalishlari" nomli maqolasida "Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan-mintaqa sanoati raqobatbardoshligini oshirish, o'z imkoniyatlari hisobiga ichki talabni qondirish, hududlararo, respublika va xalqaro bozorlar ulushini kengaytirish, resurs tejamkor siyosatni ishlab chiqish, budget yig'imlarini ko'paytirish, moliyaviy barqarorlik va hududlar mustaqillagini ta'minlash muhim hisoblanadi." deb iqtibos keltiradi [5].

B.B.Muhammadjonovning "O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari" nomli maqolasida "Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri bo'lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab

chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi” deb ta’kidlaydi[6].

S.A.Sheraliyevaning “Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish” deb atalgan maqolasida hududlar sanoatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar ahamiyati to‘g‘risida va investitsiyalarni jalb etish loyihalarining muhimligi haqida fikr yuritadi [7].

Ko‘plab iqtisodchilarning fikricha, iqtisodiyot sanoat sektorining muvozanatlashgan tarkibi tizimning maqbul holati hisoblanadi. Muvozanatlashganlik ishlab chiqarish va iste’mol sohalari o‘rtasidagi nisbatlarning muvozanatini, qayta ishlovchi va undiruvchi ishlab chiqarishlar ulushlarining maqbul nisbatini ko‘zda tutib, ularning muvozanati sanoatda fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mamlakatimiz hududlari sanoatini rivojlantirishdagi ishlab chiqarish korxonalarining o‘rnini hamda ayni damdagi vaziyatni chuqurroq o‘rganildi. Mamlakatdagi hududiy nomutanosibliklar tumanlar bo‘yicha baholandi va bunda qiyosiy tahlil va guruhash usullaridan foydalanildi. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad mamlakatimiz sanoat siyosatini yaxshilash va davlatning ishlab chiqarish salohiyatini optimallashtirishdir, natijada xalqaro miqiyosdagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatishga erishish orqali hududlar sanoatini holatini yaxshilash.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi, muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘sish sur’atlarining aholi o‘sish sur’atlaridan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ta’kidlash lozimki, yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’ati, aholining yillik o‘sish su’ratlaridan yuqori bo‘lgandagina mamlakatda iqtisodiy o‘sish sodir bo‘ladi. Xususan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki

mahsulot va yalpi sanoat mahsuloti kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari mazkur talabga to'la javob beradi.

YaIMning tarmoq tarkibidagi muhim siljishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tarkibda qishloq xo'jaligining ulushi sezilarli darajada pasayib, sanoatning ulushi o'sib bormoqda. Jumladan, 2022 yilda YaIMning tarmoq tarkibida Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 828 054,2 mlrd.so'm (93,2%), mahsulotlarga sof soliqlar 60 287,5 mlrd.so'm (6,8%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 208 452,9 mlrd.so'm (25,1%), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) 276 227,0 mlrd.so'm (33,4), sanoat 220 704,3 mlrd.so'm (26,7%), qurilish 55 522,7 mlrd.so'm (6,7%), xizmatlar esa 343 374,3 mlrd.so'mni (41,5%) tashkil etdi. (*1-jadval*)

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tendensiyalarida ayrim yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'sish sur'atlariiga nisbatan yalpi sanoat mahsulotining (YaSM) o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, 2019 yilda YaSMning o'sish sur'ati 9,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, YaIMning o'sish sur'ati esa, 8,0 foizni, shuningdek, 2020 yilda YaSMning o'sish sur'ati 8,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, YaIMning o'sish sur'ati esa 8,1 foizni tashkil etdi. Qaralayotgan davrda YaIMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8,1 foizni, YaSMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,8 foizni hamda SQQning o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 5,0 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarining yirik tarmoqlaridan biri sanoat bo'lib unda ish bilan band bo'lgan aholining 1/8 faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ko'p tarmoqli soha, O'zbekistonda uning yuzdan ortiq tarmog'i mavjud. Yalpi ichki mahsulotning 26,7%i sanoatda yaratiladi. Mamlakatimiz sanoati korxonalarida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, qishloq xo'jaligi mashinalari, elektrosvigatellar, akkumulyatorlar, kabellar, ekskavator, yigiruv mashinalari, samalyotlar, mineral o'g'it, sun'iy tola, oltingugurt kislotasi, turli qurilish materiallari, gazlamalar, un, paxta moyi, guruch, kiyim-kechak va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tarmoqlarning sanoatda tutgan o'rni har xil.

I-jadval

Yalpi ichki mahsulot (YIM)ning tarmoq tarkibi (jamiga nisbatan foiz hisobida)²²

Ko'rsatkichlar nomi	2017 - yil	2018 - yil	2019 - yil	2020 - yil	2021 - yil	2022-yil
YaIM	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:						
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymat	89,0	89,3	91,5	92,7	93,0	93,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	11,0	10,7	8,5	7,3	7,0	6,8
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon, va baliq xo'jaligi	32,2	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,5	30,5	33,8	33,4	33,9	33,4
Sanoat	21,1	24,7	27,5	26,8	27,3	26,7
Qurilish	5,4	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
Xizmatlar	41,4	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5

Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur davrda mamlakat sanoati jadal rivojlandi. 2022-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 134,2 foizga o'sib, yalpi ichki mahsulot o'sishidan (129,5 %) yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.²³

Andijon, Namangan, Xorazm, Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ishlab chiqarish quvvatini oshirish, investitsiya va tadbirkorlik faolligini (asosan, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, kauchuk va plastmassa, qurilish materiallari, elektron qurilmalar, elektrotexnika ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, metallurgiya) rag'batlantirish hisobiga sanoat tarmog'ida hududlar kesimida yuqori o'sishga (1,4—1,9 baravar) erishildi.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stasistika agentligi <https://stat.uz/uz/>

²³ Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI)

Mahalliy resurslar va hududlar salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakllari maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar, klasterlar keng joriy etildi.

Natijada 2022-yilga kelib mamlakat sanoat ishlab chiqarishida 2017—2022-yillarda tashkil etilgan 20 ta erkin iqtisodiy zonaning ulushi 4,9 foiz, 506 ta klasterning ulushi 5,2 foiz, 317 ta kichik sanoat zonasining ulushi 1,2 foizgacha oshdi.

Mamlakatning 10 ta viloyati (Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari) YHM tarkibida sanoat tarmog‘ining ulushi ortdi.

Aksariyat hududlarning (Andijon, Jizzax, Xorazm, Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo viloyatlari) qayta ishlash sanoatida o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning hissasi oshdi.

Qoraqalpog‘iston, Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi yanada diversifikatsiyalashdi.

Sanoat rivojlanish darajasi past bo‘lgan Buxoro, Jizzax, Namangan, Xorazm viloyatlarida aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish respublika parametriga yaqinlashib, mintaqalararo nomutanosibliklar qisqardi.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kelgusida hududlar sanoatini rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqarish omillari (inson kapitali, resurs tejamkor texnologiyalar, innovatsiyalar va samaradorligi tufayli sifat o‘zgarishini ta’minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Ko‘p sonli tadqiqotlarda qayd etilishicha, sanoat iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi va aksariyat tadqiqotlardagi mazkur fikr, aynan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdarligi va ishlab chiqarishning o‘sishiga olib keladi, natijada iqtisodiy o‘sish ta’milanadi. Sanoat tarmog‘ining dinamikligi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari rivojlanishiga ham sezilarli darajada ijobiy

ta'sir etadi. Xususan, sanoatning oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari rivojlanishi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohalarining rivojlanishini rag'batlantiradi. Qayta ishlovchi sanoatning rivojlanishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir etadi.

Hududlarda qayta ishslash sanoati quyi darajada rivojlangan bo'lib, bir tomondan, hududlar bo'yicha tarmoqlarning rivojlanishi va joylashuvi muvozanatlashmagan bo'lsa, boshqa tomondan bir yoqlama, diversifikatsiyalashmagan sanoat ishlab chiqarishi (paxta tozalash, oziq-ovqat va yoqilg'i sanoatiga ixtisoslashuv) shakllangan.[Viloyat hududlarining bir - biridan va markazdan uzoqda joylashganligi, infratuzilma ta'minotining yuqori darajada emasligi, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash jarayonining sustligi va asosiy fondlarning eskirishi kabi bir qator salbiy omillar viloyatda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishga tushirmasligi, aholining asosiy iste'mol tovarlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ishlab chiqarishning muvofiq emasligi, ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarning yetarli darajada raqobatbardosh emasligi va eksportga yo'naltirilmaganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham viloyat sanoatini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini puxta ishlab chiqish va bunda yuqoridagi muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi” www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Stasistika agentligi <https://stat.uz/uz/>
3. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi <https://qashstat.uz/uz>

4. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI)

<http://i1.md.uz>

5. Raximov.D.Sh Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari. Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2021

6. Muhammadjonov.B.B O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences – Google Scholar 2022.

7. Sheraliyeva.S.A Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalg etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Journal of Academic Research in Educational Science - 2021

8. Amonboev.M Increasing the Effectiveness of Investment Management by Introducing Corporate Governance in Joint-Stock Companies. Journal of International Business Research and Marketing 4 (5), 7-12

9. Rasulov.N, Amonboev.M Corporate Governance and Development: The Case of Uzbekistan Journal of International Business Research and Marketing 1 (6), 31-36

ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING MA'NOVIY JIHATDAN O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Ashirboyeva Sevinch Axrorjonovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

Filologiya tillarni o'qitish italyan tili 4 - bosqich talabasi

mirjalolxonmuslimaxon@gmail.com

Annotatsiya: Italian maqollarida vatanparvarlik g'oyalarning nomoyon bo'lishi va ularning etimologik tahlili atrolicha izohlab berildi.

Kalit so'zlar: Italian va o'zbek maqollari o'xhash va farqli jihatlari haqida maqola.

Abstract: In this article, Attitudes to Italian and Uzbek proverbs, was explained in details.

Keywords: In this article, interpretation of Italian and Uzbek proverbs

Аннотация: Подробно объяснялось отсутствие патриотических идей в итальянских пословицах и их этимологический анализ.

Ключевые слова: Статья о сходствах и различиях итальянских и узбекских пословиц.

Italian tili roman tillaridan biri bo'lib, undan asosan Italya, Shvetsariya, Vatikan, San Marinoda gaplashiladi. Til o'zining jozibasi va musiqiy ohangi bilan o'rghanuvchilarni o'ziga jalb qilmoqda. Ammo har bir xalq o'g'zaki ijodi va urfodatlari o'zgachaligi va jozibadorligi bilan ayrimlari o'xhash bo'lsa ayrimlari ajralib turadi, keng qamrovliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bizning umumiy milliy xususiyatlarimiz juda yaqin

bo‘lsada, italyan qadimiy tarixi, urf–odatlari, an’analari, til, madaniyatiga xos betakror jihatlari bilan ajralib turadi”. Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalanishi bilan qadrli, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar – hech bir podsho e’lon qilmagan konstitutsiyadir. Maqollarni ”hayot qomusi”, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar vamuammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Maqolning nomi birinchi marta Yunonistonda V asrda ham komik, ham tragedik yo‘nalishda ijod qiluvchi yozuvchilar ijodida va Aflatunning dialoglarida tilga olingan. Maqolga ba’zan “parola”, ba’zan “discorso”, “racconto” sifatida ta’rif berilgan, lotin tilidan olingan verbum e praeceptum atamalariga murojaat qilingan.

Vatan va vatanparvarlik: E meglio bere acqua in patria, che vino all'estero o‘zga yurtning vinosida o‘z yurtingda suv ichgan afzal o‘zga yurda shox bulguncha o‘z yurtingda gado bo‘l.

Mexnatsevarlik va ish yoqmaslik: Solo quando il lavoro e’ fatto, si riposa il diligente serg‘ayrat ish tugaganda keyingina dam oladi .Qo‘ling ishda, ko‘ngling Allohda bo‘lsin.

Halollik va tekinxo ‘rlik: L’onestà non si compra Halollikni sotib bo‘lmaydi

Haromdan ming tanga haloldan bir tanga.

Maqollar ustida izlanishlar olib borar ekanmiz, shu o‘rinda paremiologiya sohasiga murojaat qilishimiz shart. “Paremia” grekcha so‘z bo‘lib, “Hikmat, naql, hikmatomuz obrazli ibora” ma’nolarini anglatadi. Italyancha “Le buone parole unguono, e le cattive pungono” o‘zbek tiliga -“Yaxshi so‘z xush keladi, yomon so‘z chaqib oladi” deb tarjima qilinadi.

O‘zbekcha muqobil variant sifatida “Yaxshi so‘z- jon ozig‘i, yomon so‘z-bosh qozig‘i” maqolini keltiramiz. Patti chiari, amicizia lunga - Hisobli do‘st ayrilmas;

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir qismi tasviriy xususiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: Non dire all’amico ciò che sai, perché un giorno nemico averlo potrai –Do‘stga aytdim so‘zimni, Dushman bildi sirimni;

Un nemico è troppo e cento amici non bastano - Do‘st ming bo‘lsa ham-oz, Dushman bir bo‘lsa ham ko‘p: Chi si marita con parenti, corta vita e lunghi tormenti- Qarindoshdan qiz olma, Qarindoshga qiz berma . O‘zbek tilida ba’zan 4 komponentli maqollar ham uchrab turadi. Biroq italyan maqollari orasida 4 komponentli maqollar kam uchraydi.

*Zamon seni o ‘qitar,
Tayoq bilan so ‘kitar.
Sabog ‘ingnibilmasang.
Do ‘konda bo ‘z to ‘qitar.*

"Maqollar shakliga ko‘ra, nasriy hamda she’riy tuzulishga ega bo‘ladi: La buona moglie fa il buon marito-xotin yaxshi - er yaxshi;

Meglio un bravo vicino che un parente lontano-uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi kabi maqollar nasriy tuzilishdagi maqollar hisoblanadi.

Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o‘rinda italyan va o‘zbek xalqining o‘ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliyligini ko‘rsata oladi. Ya’ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqollarda ibrachtilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o‘zining umuminsoniy jihatlarini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" PQ 1875 sonli qarori, 2012-yil 13-dekabr.
2. Augusto Alfani , Proverbi e modi proverbiali , Tipografia e Libreria Salesiana Torino,1882.
3. Pareoparemiologia in: Trovato C. Salvatore, 1999.5.
- 4.Imomov K.Mirzayev T.,Sarimsoqov B.Safarov O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.-T.;O'qituvchi,1990.
- 5.Jan Pavlik Strutture morfosintattiche nei proverbi italiani del campo
6. <https://www.frasimania.it/proverbi-italiani/>

MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Kasimova Nargiza Rixsivoy qizi

Toshkent temir yo‘l texnikumi

“Buxgalteriya hisobi va audit” o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjetlar daromadlari bazasi barqarorligini oshirish hamda byudjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish masalalari yoritilgan.

Tayanch iboralar: byudjet, soliq, daromad, xarajat, dotatsiya, stavka.

Kirish

Hozirgi kunda eng muhim masalalardan biri bu - byudjetlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish va ularning iqtisodiy potensialidan foydalanish muammosidir. Mamlakat soliq tizimidagi muammolar iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning chuqurlashib borishiga mutanosib ravishda bosqichmabosqich bartaraf etib borilmoqda.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta’milangan oila va shaxslarni etarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qila bilishga bog‘liqdir.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas’uliyatini oshirishni ta’minlash asosiy maqsadimizdir[1]

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi davrida hududlarni moliyaviy barqarorligini ta’minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortmoqdaki, ushbu maqsadda mahalliy byudjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini oshirish va ulardan samarali foydalanish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy byudjetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa ko‘shish bilan bir qatorda hududlar iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasini yanada mustahkamlashda byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri - mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini oshirishdan manfaatdorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mulkka, erga, resurslarga soliq solish va yuqorida ko‘rsatilgan boshqa turdagи tushumlar alohida o‘rin tutadi.

Mahalliy byudjetlarni mustahkamlashning yana bir muhim manbasi - jismoniy shaxslar daromad solig‘ini mahalliy byudjetlarga biriktirib qo‘yilishidir. SHuningdek, soliqlar katorida soliqsiz yig‘imlar xam byudjetlarning muhim manbasi bo‘lib qolishi

kerak. Chunki, soliq yukini oshirish chegaralanganligini hisobga olsak, bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlash, byudjetlararo munosabatlarni tartiblashtirish va davlat moliyaviy mablag'larini boshqarishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiyotimizning modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimini barqarorligini ta'minlash va mavqeini oshirishdagi muhim strategik vazifasi sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugungi kunda byudjetlarni tartibga solishning bir nechta usullari amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, umumdavlat soliqlari hisobidan belgilangan ma'lum qismini hududiy byudjetlar ixtiyorida qoldirish uslubi jahon tajribasida keng tarqalgandir. Umumdavlat soliqlari hisobidan ma'lum belgilangan qismini mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda hududlarning moliyaviy ahvoli va o'z daromadlarining hajmi; hududlarda umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi; tovarlar va xizmatlar narxlaridagi farqlarning mavjudligi; aholi soni, tarkibi va zichligi; hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'ları oluvchilarining byudjet mablag'lariga bo'lgan talablari e'tiborga olinadi.

Hozirgi vaqtida respublikamizda umumdavlat soliqlaridan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalaridan yagona soliq to'lovi, mikrofirma va kichik korxonalardan yagona soliq to'lovi hamda er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar qonun bilan belgilangan tartib va me'yorlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlar daromadi asosan mahalliy soliqlar, soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlar, shuningdek, qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan tarkib topib, shakllangan mablag'lar mahalliy ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarf-xarajat qilinadi. Respublika byudjeti daromdlari asosan umum davlat soliqlari va qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa moliyaviy manbalardan shakkalanib, asosan umumjamiyat ahamiyat kasb etuvchi chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida sarf-xarajatlar amalga oshiriladi.

Odatda, mahalliy byudjetlar va respublika byudjeti o'rtaida biriktirilgan daromadlar borasidagi nisbat o'rganilganda, ular mos ravishda 20-25 va 75-80 foizni tashkil etadi. Ammo xarajatlaridagi nisbat bir oz farq qilib, mahalliy byudjetlar taxminan 55 foiz, qolgan 45 foizni respublika byudjetidan moliyalashtirish amalga oshiriladi. Tabiiy savol tug'iladi, biriktirilgan daromadi maksimum 25 foiz bo'lgan bir sharoitda qanday qilib 55 foiz xarajatni amalga oshirish mumkin? O'rinni savol, albatta. Yuqorida qayd etilganidek, mahalliy biriktirilgan soliq va soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlardan tashqari qonun orqali ta'qiqlanmagan boshqa daromad manbalari deyilganda, aynan umum davlat soliqlaridan normali ajratmalar va yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarib bermaslik sharti bilan ajratiladigan subvensiyalar moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. [2]

Mamlakatimiz bo'yicha mahalliy byudjetlar daromadi 31 083,0 mlrd. so'mni tashkil etib, har bir hududda byudjet muassaslarining soni va u yerda byudjet mablag'lari oluvchilarining ko'lamidan kelib chiqqan holda taqsimlangan. Ma'lumotga tayanib aytadigan bo'lsak, mahalliy byudjetlar ichida eng ko'p mablag' oladigan hudud Farg'ona viloyati bo'lib, 4 038,0 mlrd. so'mni tashkil etadi. Undan keyingi mahalliy byudjetlar tarkibiga Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahri bo'lib, mos ravishda 3493,7 va 3236,2 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Mahalliy byudjetlar daromadidagi nisbatan kam bo'lgan xududlarni tahlil etadigan bo'lsak,

Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlari bo‘lib, bularning daromadlari mos ravishda 736,3; 1106,2 va 1232,2 mln. so‘nni tashkil etmoqda.

Shu holatni alohida qayd etish joizki, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlariga 2019 yilda respublika byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan 7 763,1 mlrd. so‘m miqdorida maqsadli ijtimoiy transferlar ajratilishi ko‘zda tutilgan. Respublikaning qolgan xududlari respublika byudjetidan subvensiya olishga hojat qolmayapti. Bu, o‘z navbatida, mahalliy byudjet boshqaruv hodimlari va viloyat moliya boshqarmalari samarali mehnat qilyapti deyishga asos bo‘lmoqda.

Kelgusida O‘zbekistonda byudjetlararo mutanosiblikni ta’minlash, mahalliy byudjetning daromadlarini oshirishda sanoat ishlab chiqarishni oshirish hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish, hududlar soliq potensiali tushunchasini soliq qonunchiligiga kiritgan holda har bir hududning soliq potensialini hisoblab chiqish, uni orttirish borasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusini rag‘batlantirish mexanizmini yaratish lozim.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish va bu orqali soliq tushumlarini ko‘paytirish avvalombor, soliq tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamiz soliq tizimi mavjud soliq tizimini amaliy tadbiq qilish va davlat iqtisodiy siyosatining yo‘nalishlariga mos ravishda olib borayotgan ishlar natijalarini hisobga olgan holda, doimo takomillashib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish va bu orqali soliq tushumlarini ko‘paytirish avvalombor, soliq tizimini takomillashtirishni taqazo etadi. Respublikamiz soliq tizimi mavjud soliq tizimini amaliy tadbiq qilish va davlat iqtisodiy siyosatining yo‘nalishlariga mos ravishda olib borayotgan ishlar natijalarini hisobga olgan holda, doimo takomillashib bormoqda.

Fikrimizcha, byudjet daromadlarini ko‘paytirishda, jismoniy shaxslar mulklaridan olinadigan soliqni ham takomillashtirish zarur. Bu aholining mulkiy

holati bo'yicha tabaqalanish sharoitlarida juda ham muhim. Mulkning qiymatiga qarab darajalangan soliq stavkalarini joriy qilish maqsadida muvofiq bo'ladi. Belgilangan me'yor bo'yicha uy-joy maydoni va er uchastkalariga ega bo'lgan oilalardan minimal stavka bo'yicha soliq olish lozim. Belgilangan normadan bir necha baravar ortiq mulkka ega bo'lgan oilalardan yuqori stavkalar bo'yicha soliq olish joiz. Buni shu bilan oqlash mumkinki. Xususiy mulkdorlaring shakllanayotgan yangi qatlami jamg'armalardan qurilish youi qo'shimcha uy-joy sotib olish uchun foydalanadilar va ularni keyinchalik ijaraga beradilar.

Bunday fuqarolar qo'shimcha mulk bilan bog'liq bo'lgan renta xarajatlarini bemalol ko'tara oladilar va bu davlat hamda mahalliy byudjet daromad oqimlarini ko'paytirishni ta'minlaydi.

Byudjet Kodeksiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar balanslashgan bo'lishi lozim, ya'ni ushbu hududlar byudjetlari defitsitli bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar balanslashganligi umumdavlat soliqlarini O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan hamda yuqori turuvchi byudjetlardan beriladigan me'yoriy ajratmalar va moliyaviy yordamni taqsimlash va qayta taqsimlash hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston amaliyotida deyarli barcha umumdavlat soliqlaridan tartibga soluvchi soliq sifatida foydalanishini kuzatishimiz mumkin.

Me'yorlarni aniqlashda mahalliy va umumdavlat soliqlari hamda tegishli byudjetlar minimal xarajatlari prognozi amalga oshirilib, unga muvofiq ajratmalar me'yori aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlariga ajratmalar me'yori har yili Oliy Majlis tomonidan davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlar byudjetlariga ajratmalar miqdori ham har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari asosida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning 3 ta asosiy modelidan foydalaniladi. Federativ tizim hamda ko'p munitsipial sub'ektlarga ega mamlakatlar amaliyotida ko'p hollarda barcha 3 ta modeldan foydalanish kuzatiladi.

Birinchi model – soliqlarni yig'ish bo'yicha vakolatlar chegaralarini o'rnatish va ularni ma'lum hukumat darajasiga biriktirish. O'zbekiston amaliyotida ushbu modeldan foydalaniladi, rasman har bir soliq turi qaysidir byudjet darajasiga biriktirilgan, ya'ni umum davlat va mahalliy soliqlar.

Ikkinci model – soliqlar tortish bazasidan birgalikda foydalanish. Bu modeldan Rossiya Federatsiyasida foydalanishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, korxona foydasiga soliq stavkasi 20% ni tashkil etadi, uning 2% dagi miqdori Federal Byudjetga tushishi ko'zda tutilgan bo'lsa, qolgan 18% i RF sub'ektlari ixtiyorida qoladi.

Uchinchi model – butun mamlakat hududida yagona stavkada soliqlar tortiladigan aniq soliqlardan kelib tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida me'yoriy taqsimlash.

O'zbekiston Respublikasida birinchi va ikkinchi modellar byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish uchun keng qo'llaniladi. Xususan, yuqorida ta'kidlanganidek, birinchi modelga asosan soliqlar ma'lum bir byudjet darajasiga biriktirilgan. Ikkinci model, tartibga soluvchi soliqlarni mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishida foydalaniladi.

2019 yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga umum davlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normativlari keltirilgan bo'lib, 2019 yilda mahalliy byudjetlarga yuridik shaxslar foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i va QQSdan ajratmalar ajratilgan. YUridik shaxslar foyda solig'i Toshkent viloyati va Toshkent shahridan tashqari barcha hududlarga to'liq miqdorda ajratilgan, shuningdek jismoniy shaxslar daromad solig'i ham mazkur hududlarga boshqalariga nisbatan qamrov ya'ni, Toshkent viloyatiga 77 foiz, Toshkent shahriga esa 10 foiz miqdorida ajratma qilingan. Qo'shilgan qiymat solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan viloyati va Farg'ona viloyatiga to'liq 100 miqdorda, boshqa hududlarga nisbatan kamroq miqdorda ajratma qilinishi belgilangan, Toshkent shahriga esa, mazkur soliqdan ajratma qilinishi ko'zda tutilmagan.

Xulosa

Mahalliy byudjetlarning soliq yig'imlarini yig'ish, o'z navbatida, yuqori byudjetdan subvensiya va moliyaviy yordamning boshqa shakllari olinishini qisqartirish faolligi va qiziqishini oshirish maqsadida rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan ortiqcha yig'ilgan soliqlarni taqsimlashning aniq va tushunarli mexanizmini ishlab chiqish zarur. Bu rejadagidan ortiqcha yig'ilgan soliqlarning mahalliy byudjetlarda qoladigan miqdorini aniqlash va ularning qonuniy asosda tasdiqlanishini ko'zda tutadi.

Mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammolarini hal qilish maqsadida moliya bozorlaridan jalb qilingan mablag'lar ko'rinishidagi daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llanilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buning uchun:

- mintaqalardagi rejimlarini muvozanatlashni va byudjet ehtiyojlarini ta'minlashni muvofiqlashtirish uchun, mahalliy hokimiyat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda faol ishtirok etish huquqini qonunan rasmiylashtirish;

– mintaqaning ijtimoiy va investitsiya manfaatlarini hisobga olgan holda imtiyozli soliq solishning ustivor yo‘nalishlarini belgilash, uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini kafolatlaydigan soliq tadbirlari bo‘yicha huquqiy me’eriylar xujjalarni shakllantirish kabi vazifalarni bajarish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksi”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 52 (I)-son, 2013 yil, 31 dekabr – 212 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847 sonli qarori. 2017 yil 18 mart.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi 4086-sonli qarori.
5. Islamkulov A. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq potensialidan foydalanish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil.
6. Qobulov H.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. T.-2006. – 24 b.
7. Xaydarov N.X. Mahalliy byudjetlar daromadini oshirishning samarali yo‘llari. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirishda davlat moliyasiniisloq qilishning ustuvor yo‘nalishlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: DBA. 2017 yil, 12 aprel. 463-466 betlar.

SO‘FI OLLOYOR PEDAGOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY TA’LIM-TARBIYAGA TA’SIRI

Kotibov Rustamxon Bositxon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotasiya: Maqolada So‘fi Olloyorni asarlarida aks etilgan pedagogik qarashlarning o‘zbek zamonaviy ta’lim tizimiga ta’siri tahlil qilish uchun turli metoddan foydalanishi mumkin. Ular ichida So‘fi Olloyorni asarlarining tahlil va muhokamalariga, o‘zbek ta’lim tizimi va tarixiga tegishli ilmiy uslubiy materiallardan foydalanishi, O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va boshqa faktorlarga ta’sirni o‘rganish.

Kalit so‘zlar: Tahlil qilish, Pedagogik g‘oyalar, O‘qitish usullari, Ta’lim tizimi, o‘zgarishlar, o‘qitish metodlari, o‘zbekistonda ta’lim sharoitlari

O‘zbek zamonaviy ta’lim tizimi, pedagogik qarashlarni o‘zgartirish va ta’limni yanada rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va reformalar bilan turli bosqichlardan o‘tkazilgan. Bu o‘zgarishlar esa, o‘quvchilarning sotsial, psixologik va ma’naviy taraqqiyotini oshirish, ularning kreativ va analistik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘zlashtirish, kelajakda mustaqil fikrni shakllantirish va jamiyatga foydali bo‘lishlari uchun jihozlangan.

So‘fi Olloyorning asarlari o‘quvchilarni o‘ziga xosligini, rivojlangan insoniy xususiyatlarni, o‘z-o‘zini o‘rganish va tafakkur qilish qobiliyatlarini yuksaltishga qaratilgan. O‘zbek ta’lim tizimida bu pedagogik qarash asosida yaratilgan maktablarda o‘quvchilarga adabiyotlar, san’at, fikr va madaniy asarlar bilan tanishish

imkoniyati beriladi. Ular o‘z fikrlarini ifoda qilish, o‘z qarashlarini bildirish, o‘z o‘ylarini shakllantirish jarayonida mustaqil bo‘lish imkonini topadi.

Bundan tashqari, So‘fi Olloyorning pedagogik qarashlari asosida ta’lim jarayonida tarbiya va madaniyatning yuksalishi ham o‘zgaradi. Bu pedagogik qarashlarning o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini o‘rganish va xotirani rivojlantirish jarayonlari orqali o‘quvchilarga adabiyotlar va ma’ruzalar orqali tarbiya va madaniyat bilimini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagogik qarashlarni tashkil etish va ularni amalga oshirishda kutilgan o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Maqolada quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor berilishi mumkin: Pedagogik qarashlarning tarixi o‘zgarishlari: Maqolada o‘zbek ta’lim tizimida pedagogik qarashlar tarixi bo‘yicha kuzatish va ularning o‘zgarishlarini o‘rganish mumkin. Tarixiy o‘zgarishlar, ta’limning turli davrlarida o‘ziga xos bo‘lib kelganligi sababli, hozirda o‘zbek ta’limida amalga oshirilayotgan pedagogik qarashlar bilan taqqoslab chiqish imkonini beradi.

Xalqaro ta’lim standartlari bilan solishtirish: O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro ta’lim standartlari bilan solishtirilgan pedagogik qarashlarning ta’siri o‘rganilishi kerak. Xalqaro standartlar bilan solishtirish, o‘zbek ta’lim tizimining dunyo standartlariga muvofiqligini aniqlashga imkon beradi.

Yangi texnologiyalardan foydalanish: Maqolada, o‘zbek ta’lim tizimida yangi texnologiyalardan, masalan, internetdan, interaktiv darsliklardan, videolar va onlayn ta’lim platformalaridan qanday foydalanishning o‘zbek ta’limida pedagogik qarashlarga ta’sirini o‘rganish mumkin.

O‘zbek ta’lim tizimiga ta’sir etilgan pedagogik qarashlar esa o‘quv jarayonlari, o‘qitish-uslubiy amaliyotlar, o‘quv dasturlari va boshqa muhim pedagogik

vositalarning o‘zini tahlil qiladi. Bu maqolalarda pedagogik qarashlarning o‘zbek ta’limida talabalar, o‘qituvchilar, o‘quv yurtlari, universitetlar, maktablar, kollejlar va boshqa o‘quv muassasalarida qanday amalga oshirilganligi va uni natijasida o‘quvchi bilim va bilim bilan bog‘liq qobiliyatini oshirishda qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Islamovich, Ismailov Temurbek. "Democracy and youth: formation of democratic values." European science review 5-6 (2019): 112-114.
2. Bositxon o‘g‘li, Kotibov Rustamxon, and Ismoilov Temurbek Islomovich. "So‘fi Olloyorning asarlarida pedagogik va ma’naviy qarashlarning tahlili va insoniy kamolot bilan bog‘liq g‘oyalarning targ‘ib va tashviq qilish." *PEDAGOGS jurnali* 36.1 (2023): 26-28.
3. Bositxon o‘g‘li, Kotibov Rustamxon, and Ismoilov Temurbek Islomovich. "So‘fi Olloyorning asarlarida pedagogik qarashlarning qiyosiy taxlili." *Образование наука и инновационные идеи в мире* 23.1 (2023): 65-67.

IT TEXNOLOGIYALARI QAYSI YO‘NALISHLARDA JADAL RIVOJLANMOQDA?

Jo‘raqulov Najmuddin Jahon o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti talabasi:

najmuddinjurakulov14@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada IT texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir necha yo‘nalishlarga ega. Bunlar dasturlash va tizimlar, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, bulut hizmatlari, Internet of Things (IoT), virtual va qo‘sishimcha axborot o‘yinlarida qo‘llaniladigan Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR), blockchain, biometrik identifikasiya, nanotexnologiya va kvant kompyuterlar kabi sohalardir. Bu yo‘nalishlar hayotimizning har bir sohasida keng qo‘llanilmoqda va jadal rivojlanmoqda. IT texnologiyalari, hayotimizni osonlashtirish, yangiliklarni yaxshilash, ma’lumotlarni oqimay olish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish uchun zarur texnologiyalarni yaratish uchun ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. *dasturlash, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, bulut xizmatlari, IoT, VR va AR, blockchain, nanotexnologiya, quantum computing.*

IT texnologiyalari bir necha yo‘nalishlarda jadal rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishlar odatda quyidagilardir:

Dasturlash va tizimlar: Bu yo‘nalishda dasturlash tillari va tizimlar, serverlar, omonatlar va boshqa IT infrastrukturasi bilan bog‘liq texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Bu yo‘nalishga kiruvchi sohalarda, masalan, web dasturlash, mobil ilovalar, iste’molchi interfeysi yaratish va tizimlar integratsiyasi kabi texnologiyalar kengaymoqda.

Sun'iy intellekt: Bu yo'nalish sun'iy intellekt (SI) va ma'lumotlarni tahlil qilish (data analytics) kabi texnologiyalarni o'z ichiga oladi. SI texnologiyalari yordamida, ma'lumotlarni tahlil qilish, ma'lumotlar bazalarini boshqarish va ma'lumotlar analitigi yaratish kabi ishlarni bajarish mumkin.

Kiberxavfsizlik: Bu yo'nalishda kiber xavfsizlik sohasidagi texnologiyalar rivojlanmoqda. Bu, ma'lumotlarni himoya qilish, hackerning qarshi kurashish va ma'lumotlarni muhofaza qilish uchun zarur texnologiyalar, masalan, firewall, antivirus dasturlari, shifrlash va boshqa xavfsizlik texnologiyalari kabi narsalarni o'z ichiga oladi.

Bulut xizmatlari: Bu yo'nalishda bulut hizmatlari, tizimlar, ma'lumotlar va boshqa manbalarni internet orqali uzatish uchun zarur texnologiyalarni rivojlantiradi. Bulut hizmatlari, iste'molchilarga ma'lumotlarga har qanday joydan o'zaro kirish, ma'lumotlarni ko'chirish va boshqa faoliyatlar uchun zarur manbalar beradi.

Internet of Things (IoT): Bu yo'nalishda IoT, ya'ni narsalararo tarmoqlar, masalan, avtomobillar, ko'chiriladigan buyumlar, elektr energiya tarmoqlari va boshqa narsalar, internet orqali bog'liq texnologiyalarni o'z ichiga oladi. IoT texnologiyalari, narsalarni bir-biriga bog'liqlash, ma'lumotlarni toplash va tahlil qilish kabi ishlarni bajarishga imkon beradi.

Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR): Bu yo'nalishlar, virtual va qo'shimcha axborot o'yinlarida, sayohat, ta'lim va boshqa xizmatlarda qo'llaniladi.

VR va AR texnologiyalari, o‘qituvchilar uchun ta’lim dasturiy ta’minotini rivojlantirish, maxsus o‘yinlarni yaratish, kasallikni davolash va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Blockchain: Bu yo‘nalishda, ma’lumotlarni xavfsizlik va ishonchlilik bilan saqlash uchun blockchain tekshiruv tizimlarini yaratish va rivojlantirish kabi ishlar bajariladi. Blockchain, kriptovalyuta, elektron xujjatlarni tuzish, ma’lumotlar bazalarini boshqarish va boshqa sohalarda ham qo‘llaniladi.

Biometrik identifikasiya: Bu yo‘nalishda, odamlarning biometrik ma’lumotlari, masalan, yuz, qo‘l izi yoki ko‘kraga, identifikasiya uchun qo‘llaniladi. Biometrik identifikasiya, banklar, hokimiyatlar, transport sohasi va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Nanotexnologiya: Bu yo‘nalishda, nanomateriallarni va nanosensorkalarni yaratish va rivojlantirish kabi ishlar bajariladi. Nanotexnologiya, elektronika, tibbiyot, transport sohasi va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Quantum computing: Bu yo‘nalishda, kvant kompyuterlar yaratish va rivojlantirish kabi ishlar bajariladi. Kvant kompyuterlari, ma’lumotlar analitigi, ma’lumotlarni shifrlash va boshqa sohalarda foydalaniladi.

IT texnologiyalari keng qo‘llanilgan va jadal rivojlanayotgan sohalardan faqat bir nechasi. Bularning har biri, hayotimizni osonlashtirish, yangiliklarni yaxshilash, ma’lumotlarni oqimay olish va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish uchun zarur texnologiyalarni yaratish uchun ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.Sh Rustamov. B.NTahirov. Havaskor web dizaynerlar uchun bepul hosting saytlari orqali web saytlar yaratish.//BDU Ilmiy axborotnoma 2018 yil 3-son
2. B.N Tahirov. Bulutli texnologiyalardan ta'lif jarayonida foydalanish imkoniyatlari// BuxDU amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman. 2022 15 aprel
3. <https://www.texnoman.uz/>
4. <https://old.mohirdev.uz/front-end-dasturchi-bolish/>

SHIRINMIYA (QIZILMIYA) O‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Bafoyev Bekzod Bo‘ron o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolada biz shirinmiya (qizilmiya) o‘simligining biologiyasi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik xususiyatlari, sanoat hamda inson hayotidagi ahamiyati haqida tanishib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Qizilmiya, “mo‘jizakor o‘simlik”, dorivor o‘simlik, ildizpoya, vegetatsiya, glyukoza, gigrofit, polikarp o‘t.

ANNOTATION

In this article, we will learn about the biology, chemical composition, medicinal properties, industry and importance of the licorice plant in human life.

Keywords: Licorice, “miracle plant”, medicinal plant, rhizome, vegetation, glucose, hygrophyte, polycarp herb.

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы узнаем о биологии, химическом составе, лечебных свойствах, промышленности и значении растения солодки в жизни человека.

Ключевые слова: Солодка, “чудо-растение”, лекарственное растение, корневище, растительность, глюкоза, гигрофит, трава многолетника.

Qizilmiya — dukkakdoshlarga mansub ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘t. Poyasi sershox, dag‘al, bo‘yi 40-150 sm, tik o‘sadi. Barglari murakkab, toq patsimon,

uzunchoq. Gullari binafsha rang, shoda to‘pgulga yig‘ilgan. Mevasi cho‘zinchoq dukkak. Aprel - iyunda gullab mevalaydi. Urug‘i va vegetativ usulda ildizpoyalaridan ko‘payadi. Ildiz sistemasi kuchli rivojlanadi, 3 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizpoyalaridan yer usti novdalari hosil bo‘ladi, urug‘i qattiq qobiqli, 30-35° C haroratda ko‘karadi. O‘rta Osiyoning hamma rayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Hamma chopiqtalab ekinlar, ayniqsa, beda va donli ekinlar orasida uchraydi, sug‘orish kanallari bo‘ylari, ariq yoqalari, bog‘ va uzumzorlarda o‘sadi.

Qizilmiyaga “mo‘jizakor o‘simlik” deya ta’rif beriladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki undan 110 turdan ortiq dori vositalari olinishi bilan birga, sanoatning 20 yo‘nalishida foydalaniladi. Bunday xususiyat boshqa o‘simliklarda kamdan-kam uchraydi. Respublikamizda mazkur o‘simlikning silliq qizilmiya turi keng tarqalgan bo‘lib, u tabiiy holda o‘sadi.

Qizilmiya ildizlaridan tayyorlangan quruq va quyuq ekstraktlar shamollash, sil hamda o‘pka, jigar, nafas yo‘llari va yurak-qon tomirlari kasallanganda, modda almashinuvini me’yoriga keltirishda, bo‘g‘ma, onkologik, ovqatdan zaharlanish, oshqozon, me’da hamda o‘n ikki barmoqli ichak yarasida, teri kuyishi, shuningdek, boshqa xastaliklarda tavsiya etiladi.

Oziq-ovqat sanoatida qizilmiya ildizidan kaloriyasiz ichimliklar, qandolatchilik va non mahsulotlari, murabbo, shinni, konserva, ozuqa konsentratlari, saqich, tish pastasi hamda boshqalarni tayyorlashda foydalaniladi. Yengil sanoatda rangli bo‘yoqlar olinsa, metallurgiya sanoatida metallarni gidrolizlashda, kimyo sanoatida siyoh tayyorlashda, qog‘ozlarga rang berishda qo‘llaniladi. Uning chiqindisidan esa qog‘ozli termoizolyatsiya plitasi, qog‘oz singari mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Shu bois bugungi kunda ushbu o‘simlikka AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Yaponiya, Germaniya, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa ko‘pgina davlatlarda talab yuqori.

Qizilmiya qishloq xo‘jaligida ham juda foydali. Masalan, undan ajratib olingan faol moddaning 1 milligrammini 1 litr suvga aralashtirib, kartoshkaga ishlov berilsa,

kurtaklarning uyg‘onish ko‘rsatkichi 28 foiz oshadi, g‘unchalash va gullash fazalari tezlashadi, natijada hosildorlik 17 foizga ortadi.

Kimyoviy tarkibi. Shirinmiyaning ildiz qismidan juda ko‘plab biologik faol moddalar ajratib olingan bo‘lib, xomashyo quruq massasining 40-50 % miqdorini tashkil etadi. Ularning orasida miqdor jihatidan ko‘pligi va dorivor xususiyatlari hamda qo‘llanilish sohalari kengligi bo‘yicha glitsirrizin alohida o‘rin tutadi. O‘simplik tarkibida triterpen, saponin, flavonoidlar, polisaxaridlar, pektin, aminokislotalar, mineral tuzlar, oshlovchi moddalar, alkaloidlar kabi qator moddalar mavjud. Ildizida asosan glitsirrizin, flavonoidlar, steroidlar, asparagin, pigmentlar hamda qand uchraydi. Yer ustki qismlaridan kumarin, flavonoidlar, oshlovchi moddalar, pigmentlar, askorbin kislota, efir moyi mavjudligi aniqlangan. Shirinmiya o‘simpligining yer ustki qismi o‘z tarkibida 8% miqdorda saponin saqlaydi. Shuningdek, o‘simplik bargida 17 % oqsil, 4,88 % yog‘, 21,12 % kletchatka va 6,78 % miqdorda kul muddasi mavjud. Adabiyotlarda O‘rta Osiyo va Kavkaz respublikalarida shirinmiya ildizidan olingan bo‘yoqlar kigiz va jun matolarini bo‘yashda ishlatilishi, shuningdek, poyasidan arqon tayyorlash dag‘al tola olinishi aytilgan. Shirinmiya ildizini maydalab, xlorid kislota hamda suv bilan aralashtirilganda ko‘pirishi tufayli o‘t o‘chirishda ham qo‘llaniladi.

Xalq tabobatida qo‘llanilishi. Abu Ali ibn Sino shirinmiya ildizidan o‘pka, me’da yallig‘lanishi, buyrak, qovuq, isitma kabi kasalliklarni davolashda foydalangan. Shirinmiya ildizidan tayyorlangan qaynatma va damlamalar, ildiz kukuni surgi vositasi hamda terlatuvchi sifatida, yo‘tal, nafas qisishi hamda ko‘krak og‘riqlarida uzoq yillardan beri qo‘llanib kelinadi. O‘rta Osiyo xalq tabobatida ildizdan tayyorlangan qaynatma tomoq quriganda, me’da va o‘n ikki barmoq ichakning yara kasalliklari hamda gemaroyda qo‘llaniladi. Ildiz qaynatmasi yuqori nafas yo‘llarining shamollash kasalliklari va yo‘talda balg‘am ko‘chiruvchi hamda siyidik haydovchi sifatida qo‘llaniladi.

Tibbiyotda shirinmiya o‘simpligining quyuq hamda suyuq ekstrakt, sharbat parashog shakllardagi dorivor preparatlari asosan nafas yo‘llari xastaliklarini

davolashda balg‘am ko‘chiruvchi o‘rab oluvchi sifatida, shuningdek surgi dori sifatida qo‘llaniladi. Undan tashqari, o‘simlikdan tayyorlangan preparatlar siyidik haydovchi, ich yumshatuvchi choy yig‘malar tarkibiga kiritiladi.

Shirinmiya o‘simligi qadimdan ko‘plab olimlarni o‘ziga jalg qilib kelgan va hozirgi kunda ham ko‘plab olimlar hamda yosh tadqiqotchilar jumladan magistrlar, doktorantlar va xatto tadbirkor, dehqonlar ham ushbu noyob o‘simlikka katta qiziqish bilan yondashmoqda. Qadimgi grek olimlari Gippokrat va Feofrast shirinmiya ildiziga yuqori baxo berib, nafas yo‘llari kasalliklarida ishlatishni tavsiya etgan. Ushbu o‘simlik Abu Ali ibn Sino asarlarida ham uchraydi.

XULOSA

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne’matlaridan foydalana boshlaganidan buyon dorivor o‘tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o‘simliklar haqida ma’lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O‘rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o‘simliklardan foydalanib davolash o‘zining qadimgi an’analariga ega. Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning “Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtida dorivor o‘simliklarning turi ko‘payib, xalq tabobati shifobaxsh o‘simliklar bilan boyigan. Bular orasida maqolada keltirilgan shirinmiya o‘simligi ham alohida o‘rin tutadi.

Dorivor o‘simliklarning organizmga ta’siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarining miqdoriga bog‘liq. Bu birikmalar o‘simlikning qismlarida turli miqdorda to‘planadi. Dorining ta’sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo‘lish davri ularning gullah hamda urug‘lash davrining boshlanishi vaqtiga to‘g‘ri keladi. Dorivor moddalar ba’zi o‘simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba’zi o‘simliklarning guli yoki mevasida, ba’zilarida ildizi yoki po‘stlog‘ida to‘planadi. Shuning uchun o‘simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko‘p bo‘lgan qismi yig‘ib olinadi. O‘simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o‘simlik

uyquga kirgan davrda — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib yetilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi yig'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Qizilmiya" O'zME. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Xolmatov H.X., Ahmedov O.A. Farmakognoziya. T.: 1995
3. Oljaboyeva N. 『XALQ TABOBATI xazinasidan javohirlar』. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009 1135 bet.
4. Murdaxayev Y.M. —O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. Toshkent, 1990
5. To'xtayev B.YE.『O'zbekistonning sho'rangan yerlarida introduksiya qilingan dorivor o'simliklar』. b.f.d. uchun doktorlik dissertatsiyasi, 2009 y.

**SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA YO‘LOVCHILAR OQIMINI
HISOBLASHNI AVTOMATLSHITIRISH
(Jizzax shahri misolida)**

Ortiqov Anvar Aliddin o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti 101MA-22 YeUTV va T guruhi 1-kurs magistri

anvarortiqov17@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini hisoblashda avtomatlashdirilgan texnologiyalarning imkoniyatlarini o‘rganish va avtomatlashdirishning joriy etilishi ma’lumotlar yig‘ish samaradorligi va ishonchliligin qanday oshirishi mumkinligini baholashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadlari:

1. *Shahar jamoat transporti tizimlarida yo‘lovchilar oqimini yig‘ishning mavjud usullarini baholash*
2. *Ma’lumotlarni yig‘ishda avtomatlashdirish texnologiyalarining imkoniyatlarini o‘rganish*
3. *Yo‘lovchilar oqimini hisoblashda avtomatlashdirish texnologiyalarini joriy etishdagi muammolarni tahlil qilish*
4. *Shahar jamoat transporti tizimlarida yo‘lovchilar oqimini hisoblashda avtomatlashdirish texnologiyalarini joriy etish modelini taklif qilish.*
5. *Yo‘lovchilar oqimini hisoblashda avtomatlashdirilgan texnologiyalarning samaradorligi va ishonchliligin baholash.*

Kalit so‘zlar:

Jamoat transporti, Yo‘lovchilar oqimi, Sensorlar, GPS, Tizim, Avtomatik hisoblash, Urbanizatsiya

ABSTRACT

This paper aims to explore the possibilities of automated technologies in urban public transport passenger flow estimation and evaluate how the introduction of automation can improve the efficiency and reliability of data collection. The objectives of this study are:

- 1. Evaluation of existing methods of collection of passenger flow in urban public transport systems*
- 2. To study the possibilities of automation technologies in data collection*
- 3. Analysis of problems in the introduction of automation technologies in the calculation of passenger flow*
- 4. To propose a model for the introduction of automation technologies in the calculation of passenger flow in city public transport systems.*
- 5. Evaluation of efficiency and reliability of automated technologies in passenger flow calculation.*

Keywords:

Public transport, Passenger flow, Sensors, GPS, System, Automatic calculation, Urbanization

Yillar davomida shahar jamoat transporti tizimlari yo‘lovchilar sonining ko‘payishini kuzatdi, chunki shaharlar kengayishda davom etmoqda va odamlarning samarali harakatlanishiga bo‘lgan ehtiyoj yanada muhimroq bo‘lib bormoqda. So‘nggi paytlarda shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini qo‘lda hisoblash bilan bog‘liq stressni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradigan avtomatlashdirilgan tizimlar yo‘lga qo‘yildi, bu esa yo‘lovchilarga bo‘lgan talablarni tezroq, oson va samaraliroq hal qilish imkonini beradi.

Yo‘lovchilar oqimini qo‘lda hisoblashning an’anaviy usuli nafaqat zerikarli va ko‘p vaqt talab etadi, balki xatolar va noaniqliklarga ham moyil bo‘lib, haqiqiy

yo'lovchilar sonining buzilgan ko'rinishiga olib keladi. Ushbu an'anaviy usullar orasida yo'lovchilar transport vositasiga chiqish va chiqish paytida transport xodimlari tomonidan qo'lda hisoblash, qo'lda yozib olingan qog'oz chiptalardan foydalanish, kuzatuv kameralaridan hisoblash va boshqalar kiradi. Ushbu an'anaviy usullarning nomutanosibligi va yo'lovchilar sonining ortib borishi shahar jamoat transportida yo'lovchilarni hisoblash samaradorligini oshirish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishni talab qildi.

Shahar jamoat transportida yo'lovchilar oqimini hisoblashda qo'llaniladigan avtomatlashtirilgan tizimlar kompyuterlashtirilgan bo'lib, avtobuslar, poezdlar va jamoat transportining boshqa turlarida strategik tarzda joylashtirilgan sensorlar va kameralardan iborat. Bu kameralar va datchiklar yo'lovchilarning vizual va harakat ma'lumotlarini ushlaydi, so'ngra dasturiy ta'minot orqali qayta ishlanib, istalgan vaqtida jamoat transportiga chiqish va tushish yo'lovchilarining soni real vaqt rejimida qayd etiladi.

Shahar jamoat transportida yo'lovchilar oqimini avtomatlashtirilgan hisoblashning afzallikkлari

1. Aniqlik - avtomatlashtirilgan tizimlar yo'lovchilar sonining aniq va aniq bo'lishini ta'minlab, inson xatosi xavfini yo'q qiladi. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida qaror qabul qilish va ish faoliyatini baholash uchun zarur bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadigan tugmani bosish orqali umumiyoq yo'lovchilar sonini olish mumkin.

2. Vaqtini tejash - avtomatlashtirilgan tizimlar samarali bo'lib, yo'lovchilar raqamlarini qo'lda hisoblash va qo'lda yozishning an'anaviy usuliga tezroq alternativa beradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida ma'lumotlar real vaqt rejimida yig'iladi va qayta ishlanadi, bu tizim ma'murlariga tezkor qaror qabul qilish imkonini beruvchi qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

3. Tejamkorlik - avtomatlashtirilgan tizimlar yo'lovchilar oqimini hisoblashning qo'lda usullari bilan bog'liq mehnat xarajatlarini kamaytiradi. Har bir bekatda

yo‘lovchilarni hisoblash uchun qo‘lda kamroq ma’lumot kiritish va jarayonni boshqarish uchun kamroq xodimlarga bo‘lgan ehtiyoj tufayli avtomatlashtirilgan tizimlar jamoat transporti tizimlarini ishlatish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

4. Ma’lumotlarni tahlil qilish - Avtomatlashtirilgan yo‘lovchi oqimini hisoblash tizimlari jamoat transporti tizimlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan keng ko‘lamli ma’lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma’lumotlar yo‘lovchilarga bo‘lgan talablarni aniqlash, mavjud resurslarni taqsimlash, marshrutlarni baholash va hattoki siyosatlarning ta’sirini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

5. Foydalanish qulayligi - Avtomatlashtirilgan tizimlar yo‘lovchilar oqimini hisoblashning an’anaviy usullari bilan bog‘liq bo‘lgan texnik tajribaga bo‘lgan ehtiyojni yo‘q qiladi, bu hatto texnik bo‘lmagan xodimlar tomonidan ham foydalanish va boshqarishni osonlashtiradi.

Shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini avtomatlashtirilgan hisoblashning kamchiliklari

1. Ma’lumotlar maxfiyligi - Avtomatlashtirilgan tizimlarda kameralardan foydalanish bilan shaxsiy hayotga oid muammolar paydo bo‘lishi mumkin, bu esa ba’zi yo‘lovchilarni jamoat transporti tizimlaridan foydalanishni istamaydi.

2. O‘rnatishning yuqori narxi - avtomatlashtirilgan tizimlar nisbatan yuqori bo‘lgan dastlabki kapital qo‘yilmalarni talab qiladi. Biroq, bu xarajat uzoq muddatda yo‘lovchilarni hisoblashning qo‘lda usullarini qisqartirish bilan qoplanadi.

3. Texnik xatolar - Sensorsning noto‘g‘ri ishlashi va dasturiy ta’minotning ishdan chiqishi kabi avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan texnik muammolar noto‘g‘ri ma’lumotlar natijalariga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Shahar jamoat transportida yo‘lovchilar oqimini hisoblashni avtomatlashtirish transport boshqaruvini inqilob qilgan muhim yangilikdir. Yaxshiroq yo‘lovchi oqimi ma’lumotlari transportni rejalashtiruvchilarga avtobus marshrutlarini, jadvallarini va

transport vositalarini taqsimlashni optimallashtirishga yordam beradi. Yaxshilangan ma'lumotlar, shuningdek, transport operatorlariga mijozlar talabini bashorat qilishda yordam beradi va mijozlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun xizmatlarini moslashtiradi, bu esa mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, foyda bilan birga shaxsiy hayotga oid masalalarga aralashish ehtimoli borligini tushunish kerak. Biroq, ushbu turdagи hujumlardan himoya qiluvchi qoidalar va siyosatlar bilan avtomatlashtirilgan tizimlarning afzalliklari qabul qilingan kamchiliklardan ancha ustundir. Samarali, tejamkor va to'g'ri avtomatlashtirilgan yo'lovchilar oqimini hisoblash shahar jamoat transporti tizimlarining kelajagi bo'lib, kelgusi yillar davomida shunday bo'lib qoladi.

MADIATA'LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MEDIA VOSITALARINING AHAMIYATI

Magistrant **Djumanov Xojiakbar**

Oriental (Al-Buxoriy) universiteti

ABSTRACT

Chinoz tumani 8-maktab misolida mediata'limning ahamiyati o'r ganilan va mediata'lismi tashkil etishdagi muammolar ochib berilgan, shuningdek, multimedia vositalarida dars o'tishning samarasi, o'quvchilarning bilim olish va darslarda faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi so'rovnomalar asosida o'r ganilgan. Maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatlaridan kelib chiqib, xulosa qismida taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mediata'lim, media vosita, multimedia

Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish, ta'limga tizimida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish pedagogika fanining o'quvchilarning media-ta'limga masalalariga e'tiborini kuchaytirishning asosiy sabablari va dolzarbliji hisoblanadi.

Mediata'limning ahamiyati va uni qo'llab-quvvatlash YUNESKO qaror va tavsiyalarida bir necha bor qayd etilgan. YUNESKOning 2002 yilgi tavsiyalarida ta'kidlanishicha, "mediata'limi har bir mamlakat fuqarosining so'z va axborot erkinligiga bo'lgan asosiy huquqining bir qismi bo'lib, demokratiyanı qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi. Turli mamlakatlarda media-ta'limga yondashuvlari va rivojlanishidagi farqlarni e'tirof etgan holda, uni imkon qadar milliy o'quv dasturlari doirasida, shuningdek, insonning butun hayoti davomida qo'shimcha, norasmiy ta'limga o'z-o'zini tarbiyalash doirasida joriy etish tavsiya etiladi".²⁴

²⁴ UNESCO. The Seville Recommendation. In: Youth Media Education. Paris: UNESCO, 2002.

Jahonda mediata'lim kundan kunga yangilanib, takomillashib bormoqda. Bu shubhasiz, texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etishi bilan bog'liq bo'lib, insonlar ayniqsa, yoshlar yurish-turishini, hayotini media(internet)siz tasavvur qilolmaydi. Darhaqiqat, hozirgi bolalar (10 yoshdan 16 yoshgacha) alohida qiziqishlarga ega. Ko'p jihatdan ular ijtimoiy tarmoqlar va Internet makonidagi axborot oqimiga bog'liq. Shu bois, yoshlarni darslarda faol bo'lishi va fanlarga qiziqishi va mavzularni o'zlashtirishi ko'p jihatdan o'qituvchi-pedagoglarning multimediamdan keng foydalanishiga bog'liq bo'lmoqda. Multimedia loyihalaridan foydalanish nafaqat darsni ko'rgazmali va qiziqarli qiladi, balki insonning shaxsiy yo'nalishiga ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.²⁵

Mamlakatimizda ta'lim sohasida keng miqiyosli islohotlar olib borilmoqda. Davlatimizning ta'lim sohasiga e'tibori yuksak bo'lib, ayniqsa, oxirgi yillarda jadal ta'lim siyosati va islohotlari olib borilayotganligiga har kuni guvoh bo'lmoqdamiz. Islohotlar zaminida inson manfaatlari, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajak avlodlarni munosib kasb egalari bo'lib yetishlari ko'zda tutilgan bo'lib, olib borilayotgan ishlar o'z natijalarini ko'rsata boshlaganini ta'kidlash o'rnlidir.

Ta'lim islohotlarida umumta'lim muassasalarida media vositalaridan hususan multimedia va boshqa turli ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga bag'ishlangan keng qo'lamlı ishlar haqida maqsad-vazifalar qo'yilayotganini ko'rishimiz mumkin. Hususan, davlat siyosatining muhim poydevori bo'lgan "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da qo'yilgan 100 maqsaddan 10 ga yaqinida (41, 50, 70, 71, 72, 76, 78, 82, 89 va boshqa maqsadlarda) yoshlarning media bilan munosabatlarini ko'zda tutuvchi muhim ishlar belgilangan.²⁶

Bundan tashqari, "2022 — 2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

²⁵ Духтаева А., Мультимедийные проекты как способ повышения медиаграмотности учеников средней общеобразовательной школы. Под ред. В. В. Тулупова. – Воронеж: Квартал, 2016. – С. 28.

²⁶ Batafsilroq qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2022 — 2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA" 28.01.2022 yildagi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

11.05.2022 yildagi PF-134-sonli Farmonida, Xalq ta'limi vazirligiga Farmonning b) bandida: maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali 2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish vazifasi yuklangan edi.²⁷

Mamlakatimizda olib borilgan ta'lim uchun multimediali dan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rasm va so'zlarni birlashtirishgan o'quvchilarda faqat so'zlardan foydalanadiganlarga qaraganda ko'proq ijobiy natijalar kuzatilgan.²⁸ Jumladan, multimedia vositalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish samarasi an'anaviy usulga qaraganda 2 barobar unumli va vaqtan yutish mumkin ekan. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqt ni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% gacha oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, vedio va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.²⁹

Tadqiqotchilar A.S. Amonova, N.B. Qobulovalarning yozishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qitish va o'rganish jarayonida multimedia qo'llash vositalarining ba'zi afzalliklari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. Mavhum tushunchalarni aniq tarkibga aylantirish qobiliyati
2. Cheklangan vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotlarni kamroq harakat bilan taqdim etish qobiliyati
3. Qobiliyatli o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini rag'batlan-tirish
4. O'qituvchiga o'quvchilarning ta'limdagi pozitsiyasini bilish qobiliyatini beradi.³⁰

²⁷ Batafsilroq qarang: "2022 — 2026-YILLARDA XALQ TA'LIMINI RIVOJLANТИRISH BO'YICHA MILLIY DASTURNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son, <https://lex.uz/uz/docs/-6008663>

²⁸ Ta'limni boshqarish tizimlarida multimodal biometrikaga asoslangan talabalar davomatini o'lchash. Multimedia bo'yicha IEEE Xalqaro Simpoziumi (2009), 699-744-betlar. Iqtibos manbasi: Amonova A.S., Qobulova N.B., Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda multimedia vositalarining ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal, December 2021 / Volume 2, Issue 12, 528-b.

²⁹ Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.

³⁰ Amonova A.S., Qobulova N.B., 2012, 528-b.

Ta’lim sohasida mediata’limni joriy qilish borasida yetarlicha huquqiy asoslar va davlat dastrulari qabul qilingan hamda mahalliy ilmiy tadqiqotlarda uning foydasi va samarali jihatlari yuqoriligi asoslangan bo‘lsa-da, umumta’lim muassasalarida media ta’limni tashkil etilishini qoniqarli dep bo‘lmaydi. Shu bois, mazkur holatning sabablarini o‘rganish uchun Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi maktab direktorlari va o‘qituvchilaridan suhbat va so‘rovnama o‘tkazish qaror qilindi.

Tajirba-sinov uchun 20 kishidan iborat maktab direktorlari va o‘quvchilarining mediata’limga nisbatan qarashlari, multimedia asosida dars o‘tib-o‘tmasligi so‘raldi. Ishtirokchilar shartli ravishda A1-A4, D1, D2-4, E1-E4, F1-F4, K1-K4 va hakozo ko‘rinishda belgilandi. Ishtirokchilardan quyidagilar so‘raldi:

- Ishtirokchilar mediata’lim haqida nimani tushunadi?
- Mediasavodxonlik dars yoki kursi kerakmi va uning mazmuni va davomiyligi qancha bo‘lishi lozim?
- Media savodxonligi va media vositalarning yo‘qligi ta’limga salbiy ta’sir ko‘rsatadimi?

Birinchi savol yuzasidan, barcha ishtirokchilar mediata’lim nima ekanligi haqida tasavvurga ega. Biz malaka oshirish kurslarida ushbu mavzu bo‘yicha ta’lim olishni xohlovchilar orasidan tanlab olingan namunaga duch kelganimiz sababli, ularning ushbu mavzu bo‘yicha biron fikrlari bo‘lishi tabiiydir. Biroq, berilgan javoblardagi diqqatga sazovor tafsilot shundaki, ishtirokchilar asosan an’anaviy ommaviy axborot vositalariga e’tibori ustunlik qiladi. Shuningdek, mediata’lim qanday o‘tiladi va media turlari haqida hamma ishtirokchi ham yetarli bilimga ega emas.

Shu o‘rinda birinchi savol yuzasidan berilgan javoblarning (hammasini yozishga hajm jihatdan imkoniyatimiz yoqligi uchun) ba’zilarini o‘rtoqlashishni maqsadga muvofiq dep bilamiz:

E.1.: Mediata’lim savodli bo‘lishdan tashqari bilimdir. Bu zarurat, muntazam kitobxon yoshlarni tarbiyalash kerak.

E.2.: Farzandlarimizga internetdan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanishni o‘rgatishda mediata’lim katta ahamiyatga ega.

E.3.: Bu asrda biz ommaviy axborot vositalarining doimiy bombardimoniga duchor bo‘lamiz. Biz nima eshitamiz, nimaga ishonamiz, qaerdan va qanday o‘rganamiz - bu mutlaqo yangi vaziyat. Shuning uchun mediatirim darslari men uchun juda muhim.

E.4.: Ota-onalar ham bizdan ko‘p so‘rashadi, farzandlari nimani ko‘rishi kerak, qancha ko‘rishi kerak. Juda ko‘p bolalar telefon / televizor / kompyuterga qaram bo‘lishadi. Buni qanday oldini olishimiz mumkin, bu vaqtarni qanday qisqartirishimiz mumkin, men bu savollarga javoblarni o‘rganmoqchiman.

D.1.: Internet davrida yashayotgan bir paytda mediata’limni nafaqat o‘quvchi, balki ota-onsa va o‘qituvchi ham bilishi kerak, deb o‘layman. Biz farzandlarimizni o‘rgatishimiz va ularni himoya qilishimiz mumkinligini bilishimiz kerak.

D.4.: Internet tufayli kitob va gazeta o‘qish odati ancha kamaydi. Yangiliklarni hech kim kuzatmaydi, umumiylardan madaniyatimiz pasayib ketdi. Bu nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham. Mediata’lim kursi doirasida shu savollarga javob topmoqchiman, balki kitobxonlik odatini qanday qilib olishimiz mumkin, bu odatni qanday kuchaytirishimiz mumkin.

Birinchi savol yuzasidan ishtirokchilar tomonidan berilgan javoblarda e’tiborli bir jihat mobil telefonlarni (smartfonlar) zamonaviy aloqa va media vositasi sifatida emas ko‘proq ahloq va tarbiya buzuvchi vosita sifatida ko‘rishidir. Hususan, ishtirokchilardan:

A.1.: Albatta, biz bolalarga nimani, qaerda va qanday foydalanishni o‘rgatishimiz kerak. Misol uchun, men sinfimda uyali telefonlarni taqiqlayman. Bu darsning yaxlitligini buzadi. Bu menga ham, do‘srlarimga ham hurmatsizlik.

K.2.: Ha, ular ham ko‘p vaqtlarini uyali telefonlarida o‘tkazishadi. Eski va an’anaviy bo‘lgan ommaviy axborot vositalari sinfning yaxlitligiga ta’sir qilmasdi, ammo mobil telefonga qaramlik tufayli bola uyga borganida televizor ko‘ra olmaydi va uy vazifasini bajara olmaydi. Lekin hozir uni hatto darsda ham tashlagisi kelmaydi.

Ikkinchi savolga javob bergan ishtirokchilar mediasavodxonlik kursi yoki darslarini ham o‘qituvchilar hamda o‘quvchilarga kerakligini va uni ko‘proq o‘tilishini ta’kidlashmoqda:

E.4.: Masalan, o‘qituvchi bolalarga kompyuterda nimanidir ko‘rsatadi. Kompyuter xonasida mavjudlik muammosi bor, takrorlash uchun vaqt kerak, har bir bolaga kompyuter kerak, dastur kerak. Bular mavjud bo‘lsa ham, haftasiga ikki soat bolaga texnologik ta’lim berish uchun sinf(o‘quvchilar) hajmi kichik bo‘lishi kerak.

A.3.: Mediasavodxonlik kursida o‘qiydigan hamkasblar va o‘quvchilar bilan gaplashamiz, kitobni o‘qib, aytib beramiz, deyishadi. Yana nima qilish kerakligini bilishmaydi, amaliy mashg‘ulotlar kam. To‘g‘rida, ikki soat ichida yana nima qilish mumkin?

K.3.: Men ham o‘qituvchi, ham onaman. Shu sababdan men o‘z farzandlarim uchun ham foydali bo‘lishi uchun mediata’lim bo‘yicha malaka oshirishni xohlardim. Chunki internetda har kuni yangi tahdid paydo bo‘ladi, lekin biz bilmaymiz, ulgurolmaymiz. Ota-onal kelib so‘raydi, nega bolam shunday deydi, javob bera olmaymiz. Agar media kursi berilsa va bizga beriladigan ta’lim tez-tez bo‘lib tursa, biz ham bolani, ham ota-onani o‘rgatishimiz mumkin.

D.3.: Ona kelib so‘raydi; “Ustoz, men bu bolani kompyuterdan olib tashlay olmayapman. U nimani ko‘rayotganini kim biladi? Men nima qilaman?” deydi. Ochig‘i men ko‘p aqli fikir berolmayman. Men bu bolalar internetda qayerda ekanligini bilmayman va mening kompyuter bilimim shu dastur bu dastur deyish uchun yetarli emas. Shunga birinchi navbatda bizni o‘zimizga ya’ni o‘quvchilarga mediata’lim lozim.

K.4.: Ba’zida o‘quvchilar men bilmagan va tushunmaydigan tilda gaplashayotgandek tuyuladi. Ma’lum bo‘lishicha, ular Internetda juda mashhur bo‘lgan eskizlardan iqtibos keltirishgan. Aytgan ayrim gaplari yoshiga mos kelmaydi. Ammo ularni qanday blokirovka qilish, bu videolarga qayerdan kirishni biliш va o‘rganishimiz kerak.

A.2.: *Men internetdan yarim soatda topgan narsani, o‘quvchilar ikki daqiqada topadi. Bu juda yaxshi, lekin agar biz bu bolalarga nimadir o‘rgatmoqchi bo‘lsak, ular kabi tezkor bo‘lishimiz kerak. Aks holda ular bizni jiddiy qabul qilishmaydi.*

E.1.: *Bolalar uy vazifalarini bajarishda internetdan ko‘p foydalanadilar. Ular hamma narsaga kompyuter orqali kirishadi. Shuning uchun men hozir ulardan izoh so‘rayapman. Aks holda, ular uy vazifasiga nima topsa, qo‘yishadi.*

Uchinchi savol yani, mediasavodxonligi va media vositalarning yo‘qligi ta’limga salbiy ta’sir ko‘rsatib-ko‘rsatmasligi borasidagi savolga ishtirokchilarning javoblari quyidagicha bo‘ldi:

A.1.: *Bugungi kunda ta’lim sohasini texnologiyalaridan holi tushunish qiyin. O‘quvchilar telefonga juda bog‘lanib borayapti va bu jarayonni to‘xtatishni iloji yoq. Shu bois, ta’limni texnologiyaga moslashtirish, u bilan bahamjihat shakllantirish orqali o‘quvchilarni qalbiga va ongiga kirishimiz mumkin.*

A.4.: *Multimedia vositasida dars o‘tish juda samarali ekanligiga ko‘p guvoh bo‘lganman. Yoshlar texnologiya yoshlaridir. Ularning fikri-hayolida internet oyunlari va kliplari. Ularni darsga jalb qilishda ularga yaqin tilda ya’ni multimedialar orqali dars o‘tish bilan samaraga erishish mumkin. Busiz ta’lim sifati tushub ketadi.*

K.1.: *Hozirgi ta’lim talabi yoshlarga zamonaviy bilimlarni berishda interaktiv usullar, multimedia, OAVlari va boshqa ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdan iborat. Shu bois, ta’limni tashkil etishda media vositalaridan foydalanish ham bugungi kun talabi hamda mufavvaqiyat garovidir.*

D.2.: *Ochig‘ini aytish kerak joylarda ta’lim sifati tushub ketgan, menimcha buning sabablaridan biri shu texnologiyalardan samarali foydalana olmayotganligimizadir.*

Yuqoridagi suhbat asosida tashkil etilgan so‘rovnomalarga javoblardan ko‘rishimiz mumkinki, ishtirokchi o‘qituvchilar mediata’limini tashkil etishni yuqori baholaydi. Shu bilan birga, bu borada ko‘plab kamchiliklar borligini ilgari suradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, dunyoda va mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim siyosati va amaliyotlari, media savodxonligi har kuni o‘zini yangilab borayotgan aloqa texnologiyalarining aql bovar qilmaydigan tezligi bilan kundan-kunga ahamiyatini oshirmoqda. Yangi aloqa texnologiyalari tezligiga moslashishda qoidalar va siyosatlardan tezroq bo‘lgan oxirgi foydalanuvchi xabarni qabul qilish, ishlab chiqarish, ko‘paytirish, baholash va tarqatish jarayonlarida doimiy ravishda yangilanadigan xatti-harakatlar modellari va usullarini namoyish etmoqda. Bu tez o‘zgaruvchanlik va moslashuvchanlik, ayniqsa boshqaruv va tartibga soluvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi.

O‘zbekistonda media savodxonligi ta’limiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2000-yillarning boshidan buyon bu masala davlat siyosati va tadqiqot sohasi sifatida qabul qilinganini, shuningdek, 2017-yildan e’tibor yanada oshganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, ushbu mavzu bo‘yicha nazariy ishlarni va xalqaro platformalardan olingan bilimlarni boshqarish, tartibga solish va amaliyotga kiritishda ba’zi muammolar mavjud. Bu kamchiliklar o‘tkazilgan seminar va yig‘ilishlarda ham, joylardagi o‘rganishlar natijalarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Muvaffaqiyatsizliklarning boshida mediata’limining (texnologiya fani ko‘rinishida) o‘quv dasturiga amaliyotdan uzoq tarzda qo‘silishi va uning ikki soat bilan cheklanishidir. Biroq, mediata’limi maktabgacha yoshdagи davrdan boshlab berilishi kerak bo‘lgan, o‘zgaruvchan tarkibni ishlab chiqarish mexanizmlariga qarab kontekstda tez yangilanishi kerak bo‘lgan va eng muhim turli darslarga qo‘llash uchun integratsiya qilinishi va turli darslarda ichkilashtirilishi kerak bo‘lgan ta’lim to‘plamidir.

Ushbu tadqiqotda o‘tkazilgan suhbatlar shuni ko‘rsatdiki, mediata’lim o‘qituvchilar tomonidan muhim deb hisoblanadi va u haqida ko‘proq bilishni xohlaydi. Biroq o‘tkazilgan suhbatlar natijasida o‘qituvchilarda mediasavodxonlik ko‘لامи va ta’rifida ma’lum kamchiliklar borligi ma’lum bo‘ldi. Bu mediasavodxonlikning yagona kurs bo‘lishdan ko‘ra, turli kurslarga integratsiyalashgan va butun ta’limga yoyiladigan modul sifatidagi zaruriyatiga eng

muhim to'siqlardan biridir. Chunki mediasavodxonlik kompetensiyasiga ega bo'lмаган педагог ота-оналарнинг бу борадаги маслаҳат со'ровларига жавоб беришда, шунингдек, балаларни шу ўналишда тарбиялашда қиynалади. Боз устига балаларни media faoliyatini назорат qilish, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, darslarni mazmunli, samarali va qiziqarli tashkil etishda muammo va kamchiliklarga duch keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Выводы: Таким образом, результаты исследования изобразительно-выразительных средств каракалпакизмов в русском языке показывает, что в качестве изобразительных средств каракалпакизмы употребляются как тропы из них в количественном отношении преобладают сравнение и безусловно имеют определенное значение в деле дальнейшего изучения проблемы происхождения тюрканизмов в составе русского языка, так как происхождение тюрканизмов до сего времени окончательно не решено. Поэтому, актуальность работы предопределяется тяготением современной лингвистики к ее взаимовлиянию и взаимодействию культур и ценностям, как национальным достоянием, к которым в настоящее время уделяется особое внимание.

Использованная литература

1. Антология каракалпакской поэзии Издательство художественной литературы им. Гафура Гуляма Ташкент – 1968с.117
2. Жуков О. Р. Системные аспекты дефинирования в терминологии выразительных средств языка (на материале русского языка) // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. – Саратов. - 2018. - 20с
3. Кумук С.Х. Паремия как средство формирования особенностей идентификации и самоидентификации адыгов //Научная дискуссия: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии №5(44) 2016.- с.131-134.
4. Юсупов И. Шыгармаларынын еки томлыгы, I том. Нукус, 1973, с.80

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING NUTQIY MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Suyunova Marjona

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

Boshlangich ta’lim fakulteti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning til birliklari yuzasidan muhim tushunchalar tizimini o‘zlashtirishlari, nutqqa, o‘qishga, yozishga oid ko‘nikma va malakalarni egallashlari muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida, “Boshlang‘ich ta’lim umumiyligi o‘rtalama ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini, nutqiy rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan” deb o‘tilgan. Ushbu ilmiy maqola bolalarning nutqiy madaniyatini takomillashtirish xususidagi ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *nutqiy birliklar, interfaol usullar, axloqiy qadriyatlar, nutqiy madaniyat, elektron materiallar...*

KIRISH.

O‘quvchilarni umumiyligi o‘rtalama ta’limiga tayyorlashni Nutq madaniyatini shakllantirishsiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Nutq madaniyatini o‘qitishda darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, elektron materiallardan foydalanish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol usullarni, ta’limiy vositalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish muhim ta’limiy ahamiyatga ega.

Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e’tibor beradi. Ana shu ma’naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri, nutqiy madaniyati bilan

chambarchas bog‘liqdir. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo‘lmaydi. “O‘z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”. (I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori).

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq ya’ni talaffuz urg‘u, so‘z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tolning tasviriy vositalardan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o‘qish va so‘zlay olish madaniyatini egallah demakdir.

Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko‘rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko‘ra nutq madaniyatini:

1. Tildagi mavjud til hodisasi nomi;
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya’ni aniq nutqiy ko‘rinishning nomi;
3. Madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo‘lgan aniq normativ tasavvurlarning nomi;
4. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob’yekti bo‘lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
5. Nutq madaniyati muammosini tadqi qilish bilan shug‘ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo‘lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko‘rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o‘z tekshirish ob’yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normativlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir.

Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba’zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo‘lishini kuzatib qayd etib boradi.

Odam nutq yordamida o‘zining fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg‘ulari, istaklarini anglab oladi.

Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega. Og‘zaki nutq odatdagи tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab Grammatik qurilmalardan foydalanimaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali maqsadida to‘liqsiz gaplar keng qo‘llaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi. (monologik, diologik nutq).

Yozma nutq esa harf va so‘zlarning ma’lum qonuniyatları asosida o‘zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro‘yobga chiqadi.

Jonli nutqning ikki qanoti bir-biridan kuch oladi. Bu nutq madaniyatining ikkita ko‘rinishidir. Muomala jarayoni bularni puxta bilish, o‘zlashtirish va amalda muvaffaqiyatli qo‘llashni taqozo etadi. Bu og‘zaki va yozma nutq madaniyatini egallashdir. Kimdir og‘zaki nutqqa mohir bo‘lsa, kimdir yozma nutqqa. Aslida, har ikkalasining ham ustasi bo‘lish kerak. Xalq iborasi bilan aytganda, «gapga do‘ppi kiygizadigan» so‘z ustalarining nutqi kishini o‘ziga rom etmasdan qo‘ymaydi. Ustozlardan biri shunday degan edi: «*Men minbarga chiqsam, o‘zimni miltiq*

o‘qtalgan ovchi oldida dag‘-dag‘ titrayotgan quyonga o‘xshataman, yozish uchun stolga yaqinlashsam, o‘zimni bamisoli arslondek tasavvur qilaman».

Bu og‘zaki nutqqa, so‘zga chechanligim yo‘q, fikrni qog‘ozga tushirish va etkazish bobida uquvim yo‘q emas, deganidir. Og‘zaki nutqning ham, yozma nutqning ham o‘z talablari, imkoniyat doirasi bor. Shunday hamkasblarimiz borki, so‘z bobida birov oldiga tusholmaydi, hech kimga gap ham, gal ham bermaydi. Lekin, yozish bobida ojiz. Ikkita jumlani bir-biriga bog‘lab, fikrni qog‘ozga tushira olmaydi, umumlashtira olmaydi.

Og‘zaki va yozma nutq aslida, bir-birini to‘ldiradi, boyitadi. Har ikkala nutqning imkoniyati va qamrovini bilmagan notiq na unisida zo‘r, na bunisida. Xo‘s, muomala madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan og‘zaki va yozma nutqning farqli jihatlari biri talaffuz, ikkinchisi yozuv bilan ifodalanishidami? Yo‘q, albatta.

Og‘zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ancha faol, jonli jarayon. Og‘zaki nutq qo‘llanish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: oddiy so‘zlashuv nutqi va adabiy so‘zlashuv nutqi. Oddiy so‘zlashuv nutqi kundalik hayotimizda, o‘zaro muomala jarayonida ishlatilsa, adabiy so‘zlashuv nutqi muayyan shaxslar doirasida tilning me’yoriy mezonlarini qo‘llash orqali ro‘yobga chiqadi.

Og‘zaki nutqda shevachilik ta’siri sezilib turadi. Biz qaysi viloyat, qaysi go‘shadan bo‘lmaylik, nutqimizda ma’lum muddat yashagan makonimizning so‘zlashuviga xos shevaning ta’siri bo‘ladi. Bu nutq tovushlarining talaffuzida yoki shevaga xos so‘z va iboralarni qo‘llashda seziladi. Og‘zaki nutq tezkor, avtomatik jarayon bo‘lgani sababli o‘ylab turish, so‘ng so‘zda davom etish qiyin. So‘zlov va o‘ylov bir vaqtning o‘zida amalga oshadi. Boshqacha aytganda, so‘zlab turib o‘ylaniladi. Og‘zaki nutq shaxsiy, individual faoliyatdir. SHuning uchun ham fikriy bayon va nutqiy uslub, ovoz ifodalari bir-biriga o‘xshayvermaydi. Og‘zaki nutq so‘zlovchining kayfiyati, ruhiyati, tabiatiga hamda vaziyatga, nutqiy a’zolarning sog‘lom va normal ishlashiga ham bog‘lik. Odamning behol, kasalvand vaqtidagi nutqi bilan sog‘lom, ruhan tetik paytidagi nutqi orasidagi farqni sezish qiyin emas. Kishi so‘zlayotganda o‘z nutqiga yozayotgandagidek etarli darajada e’tibor

beravermaydi. Ma'lum bir davrada so'zlayotganida nutqida kamchilikka yo'l qo'yganini o'zi sezib qolsa, nutqning keyingi holati ham ko'ngildagidek bo'lmaydi. Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilishiga va qurilish tartibiga ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashinishi, takrorlar, keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi.

Og'zaki nutqdagi ma'no ottenkalari, munosabatdagi tasdiq yoki inkor alomatlari, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshiriladi. Yozma nutqda esa bu xususiyatlarni ifoda etuvchi boshqa belgilar mavjud. Unda imloviy va punktuatsion normalar muhim rol o'ynaydi.

Yozma nutq, avvalo, u manba. Xohlagan paytda uni qayta o'qish, tuzatish, boshqa so'z va so'z birikmali bilan almashtirish mumkin. Yozma nutq namunasidagi maqsadni to'la anglash uchun imlo hamda tinish belgilarining xususiyatlarini o'quvchi ham yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Aks holda, matn zavqu shavqidan bebahra qolinadi.

Nutqni yozma ravishda bayon etish qadimdan qo'llanib kelingan. Munshiylar, kotiblar va allomalar bu san'atni yuqori darajaga ko'targanlar. Yozma va og'zaki nutqning jilosi tafakkur mashqlaridir. Shu haqda so'z yuritib, professor Nusratillo Jumaev yozadi: «*yozma nutq bilan shug'ullanmagan notiq nutqining rivoji sust, sayqal topishi qiyin kechadi. Uning so'z boyligi, ifoda imkoniyatlari cheklangan bo'ladi*».

Og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi ularning shakllanish jarayonidagina emas, balki taraqqiy etishida, sayqal topishida muhim ham muqimdir. Davraga chiquvchi notiq demoqchi bo'lgan maqsadini to'la bo'lmasa-da, xomaki tarhini qog'ozga tushirib rejalashtiradi. Nimadan nimaga o'tish, qancha to'xtalish, nimalarni aytish yoki aytmaslik haqidagi chizgilar notiq so'zlayotgan paytda ham uning ko'z oldida xuddi qog'ozdagidek xayoliy suvrati namoyon bo'lib turadi. Aks holda, nutq me'yori buzilib, vaqt cho'zilib ketishi, auditoriya yaxshi qabul etmasligi mumkin. Qo'pol aytganda, notiq o'zining fikr tizginini jilovlay olmasdan talmovsirab qolishi mumkin. Yuqorida keltirilgan iqtibosning davomida xuddi shunday ibratomuz

fikrlarni o‘qiymiz: «*Notiqning fikru o‘ylari, qalb kechinmalari yozma nutq jarayonida rosa ishlanadi, pishib mumtoz darajaga etadi. So‘ng og‘zaki nutqda jamol ko‘rsatadi. Og‘zaki nutq ham ijod jarayoni. Unda inson favqulodda noyob fikr, g‘oyalarni, badiiy ifodalarni kashf etadi. Ularni so‘zlab yurib, pishitib sayqal toptiradi va qiyomini quyma qilib yozma nutqida terib yozadi».*

Og‘zaki nutqning qator vazifaviy ko‘rinishlari mavjudki, ular kezi kelganda, yozma nutqqa jilo beradi. Uning ta’sirchanligini oshiradi. Kundalik so‘zlashuv nutqi, lektorlar nutqi, radio va televidenie nutqi, sahna nutqi bularning har biri alohida tadqiqni talab etadi.

Ko‘z, qulqoq, miya, yurak bu ko‘rish, eshitish, anglash, his etish demakdir. Ularning ro‘yobi til, nutq orqali ikkinchi vujudga, tom ma’noda aytadigan bo‘lsak, ommaga etib boradi. Biz bir-birimizga fikrimizni, tushunchalarimizni nutq orqali etkazib anglatamiz. Ularda tasdiq yoki inkor ma’nosida fikr uyg‘otamiz. SHuning uchun ham allomalar nazdida tilga e’tibor alohida ahamiyat kasb etgan. Hadisi shariflardan birida “so‘zda sehr, she’rda hikmat bor” deyilishi bejiz emas. So‘zning sehrini bilish uchun unga mehr qo‘yish zaruriyatini ham yoddan chiqazmaslik zarur.

Kishilik jamiyati paydo bo‘libdiki, so‘z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr etkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Notiqlik, voizlik, ritorika, oratorlik, krasnorechie, xatoba ana shunday san’atdir. Ushbu san’atlar har bir davrda o‘scha zamonning mafkurasiga xizmat qilib kelgan. Turli “izm-izm”lar, har xil mafkuraviy oqimlar undan ustalik bilan foydalanishgan. Shu ma’noda, notiqliknin dudama xanjarga o‘xshatishadi. Ya’ni, u ikki tomoni ham kesuvchi quroldir. Bir tomonida adolat tursa, ikkinchi tomonida adovat. Kim undan qanday foydalanishiga bog‘liq. Demak, voiz va voizlik san’atining sir-asrorlari va mohiyatini chukur bilish kerak. Voiz o‘zi ham so‘zi joiz bo‘lishi uchun chuqur bilim va malakaga, etuk dunyoqarash va saviyaga ega bo‘lishi kerak. Toki, uning har bir so‘zi xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan ravnaqiga xizmat qilsin.

Hozirgi zamonda xalq qalbi va onggi uchun kurash ketayotgan paytda turli xil usullar bilan o‘z manfaatlarini ifoda etuvchi g‘ayri kuchlar paydo bo‘laveradi.

Bularga qarshi chuqur bilim va ma'rifat bilan javob bera olish, voizlik mahorati orqali fikr etkazish san'atini egallash lozim. "Mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan katta kuchga ega" ekanligi "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanishi bejiz emas. Mafkura, g'oya birligi ham so'z bilan. So'z g'oya bayrog'i, mafkura mayog'i, xulq qaymog'i, nutq aymog'idir.

Qanday yosh va qanday kasbda bo'lishdan qat'iy nazar, har birimiz kishilar bilan nutqiy munosabatda bo'lamiz – so'zlaymiz, tinglaymiz, fikrlashamiz. Har kimning o'z didi, saviyasi, dunyoqarashi, sajiyasi, fe'l-atvori, ko'rinishi, kiyinishi bo'lganidek, uning ovozi, so'zlashish uslubi, til va nutqiy madaniyatni egallash darajasi ham o'ziga xos.

«O'zingga qarab kutarlar, so'zingga qarab kuzatarlar»- degan naql bor. Kishining fahm-farosati va saviyasi ikki og'iz so'zidayoq namoyon bo'ladi. Kishi fikrining aniq, samimiy va ta'sirli etib borishi so'zlovchining til va uning harakatdagi ifodasi bo'lgan nutq qoidalarini qanchalik bilishi va amal qilishiga bog'liq. Shunday ekan, nutqning aniqligi-tafakkurning tiniqligiga daxldor bo'lsa, talaffuzning aniqligi-nutqning tiniqligiga bog'liqdir. Notiq nutqining mantiqiy qudrati, ta'sir kuchi, jozibasi ham, aslida shu bilan. Notiq nutqi, voiz va'zi har bir davrlarda, har bir makonlarda joiz bo'lgani haq.

Demak, nutqiy mahoratni egallahsga intilish nutq odobi, aniqrog'i, til va nutq vositalarini puxta bilishni taqozo etadi. Nazariy ma'lumotlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashmas ekan, bunga erishish mushkul.

Har qanday so'zning xosiyati nutqning mohiyati bilan aloqadorgina emas, balki mantiqiy tafakkur mezoni hamdir. Nutq, notiq, mantiq, notiqlik atamalarining bir o'zakdan yasalgani ham bu til birliklarining o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'lishini anglatadi. Biri birisiz ro'yobga chiqmasligini, biri ikkinchisini taqozo etishini bildiradi.

Talaffuz me'yorlari. Nutq shaxsiy hodisa. Agar so'zlovchi adabiy me'yorlarini kishi egallamagan bo'lsa yoki o'z shevasi bergen shaxsiy variantni afzal deb qarasa, uning puxta adabiy me'yordan cheklanishi mumkin.

O‘zbek tili xususiyat jihatidan uch lahzadan iborat.

Kelishik me’yorlari. Adabiy tilimizda “kuchli” va “kuchsiz” me’yorlari bor.

Kuchli me’yorlar adabiy tilda so‘zlovchi shaxslar tomonidan hamma vaqt amalgam oshiriladi.

Kuchsiz me’yorlar og‘zaki nutqida ham e’tibor berilishi oqibatida yuzaga keladi.

O‘zbek tilining qorluq lahjasidagi maxsus shahar shevalarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko‘rsatkichga ega, ya’ni 2 kelishik uchun ham –ni xizmat qiladi.

Qaratqich-qaralmish aloqasida xoslik ma’nosи ifodalanishida ba’zi bir o‘zgacha sharoitlarda qaratqich ko‘rsatkichi ishlatilmaydi. Masalan: O‘zbek tili, shahar kengashi, bahor fasli.

Turli sabablarga ko‘ra kelishik joylarini almashtirib ishlatish, ya’ni hamma hollarda ham hozirgi zamon o‘zbek tili normalarini buzish hisoblanadi.

Birlarni bee ’tiqod.

Birlarni riyо ko ‘rdim.

Turkiy xalqlarning ba’zilari tilida jo‘nalish kelishigi o‘rnida ayrim hollarda o‘rin-payt kelishigidan foydalanish uchraydi.

Suratda ra ’nosan o ’zing, men mubtalo qayda boray?

Egalik qo‘simchasidan foydalanish me’yorlari.

Egalikning ifodalanmasligi birinchi shaxsga qarashli predmet boshqasi bilan qiyoslanganda ham yuz berishi mumkin. Masalan: Ombizning oti yuz km yo‘lni ham pisand qilmaydi.

Egalikdan foydalanish me’yorlariga zid holda egalik qo‘shimchasini tushirish hollari og‘zaki nutqda ko‘zga tashlanmoqda. Masalan: mehnatkashlar tovushi.

Til ham og‘zaki, ham yozma nutq shaklida reallashadi, yashaydi, nutq madaniyati bu har ikki shaklni ham nazarda tutadi. Tilning bu ikki shakli

barcha tasviriy tilshunoslik fanlarida o‘rganiladi, ngunday ekan, nutq madaniyati bu fanlar bilan bevosita munosabatdadir. To‘g‘rirog‘i, nutq madaniyati fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, leksikografiya, morfologiya, sintaksis, semantika, uslubiyat kabi barcha tasviriy tilshunoslik fanlariga asoslangan holda ish ko‘radi. Nutkdagi kommunikativ sifatlarning yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish va baholashda ayni shu fanlarda aniqlangan ma’lumotlarga suyaniladi.

Shu jumladan, har bir o‘qituvchi o‘z nutqi ustida ham mukammal ishlashi zaruriyati tug‘ildi. Barkamol hamda har taraflama yetuk insonni tarbiya qilish uchun o‘qituvchi nafaqat puxta bilimli, balki o‘z fikrini chiroyli, ravon, puxta nutq madaniyati qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Elmurodov N. O‘qituvchining nutq madaniyati. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2003.
2. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O‘zbekiston”, 2003
3. http: www.ziyo.net.uz.
4. http: www.pedagog.uz

READING IS ONE OF THE MOST ESSENTIAL PARTS IN LANGUAGE LEARNING

Ibodullayeva Munira

English teacher

Teaching reading is the most important part in teacher's activity. I think to improve students reading skills firstly, the teacher should find out the students learning styles. We need to figure this out before we begin to teach reading skills. Because most students learn by seeing, hearing or doing. For example, a visual learners pay attention to diagrams and illustrated handouts, auditory leaners are more active oral reports and rhyming games and kinesthetic leaners are interested role-playing activities, games. It is important to balance these approaches to appeal to different types of leaners. To determine students likes and dislikes helps us to organize these activities effectively. One of the best way to help students get excited about reading is to choose material that already interests them. During the first week of lesson, it is very helpful to talk about their likes: about favorite movies, characters or songs. Then choose the reading material towards their interests.

Reading is one of the essential parts in language learning, but it can be difficult skill to teach. In my opinion the following methods of reading can be useful in teaching reading. Scanning for specific information is one of the most essential reading skills. When getting students to scan the text to look for key words, they learn to group specific words together and quickly identify words, their fluency over time. Scanning is also a skill that allow students to read questions carefully and know how to look back in the text quickly to find the answer. A good scanning activity is a "running race". To do this activity 5 or 6 questions are prepare about the details of a text. These questions should have only one clear answer. We can use the activity both

before students read the text or at the revision activity. When students have finished the reading and students are put into pairs with each student having a copy of the text, in front of them enough copy of the question are made each pair. And each pair question number one is given only. When students are told to start, they should race to find the correct answer to teachers desk to show him. If the student is correct answer the teacher should be them question number two. And so on until a group has answered all of the questions correctly. This activity helps well with any text but can be especially challenging. If the teacher gives students the classifieds section of the newspaper. For more advanced students, the teacher can mix-up the order of the question that they do not follow with in order with the text. The scanning activity “find the word” race also helps students to improve their reading skill. With the text in front of them some words are written down on the board, that only occurs once in the text. When students find the word they should stand up. And when the students are stand up to have the first student point out sentence that the word is in. A more challenging alternative is to only say the word aloud without writing it down. This is a good way to pre-teach vocabulary by drawing students attention to these words and discussing the meaning of these words. This activity also works as a way to preview the text as it can lead to a discussion of what the students believe the story will be about based on the words teacher select from the text.

Skimming is also one of the essential skill and skimming helps to preview the text for the leaners. A general understanding of the topic , will help to prepare the students to read for understanding and allow them to read faster. We can give the students such kind of activity for skimming.

Have skimming activities where you copy the text, blocking out everything but the title, pictures, first lines of each paragraph, and the last paragraph. From this information, get students to identify the main idea and why the author is writing this story. Have a discussion about what they already know about the text and what they

think they will learn in the details. Skimming and Scanning are the foundational skills necessary to develop students as strong readers.

I think the best way in teaching reading have students teach each other. Students absorb material better when they learn from their groupmates. They can read aloud to each other and discuss what the reading meant to them. After about ten minutes of group work, have students report their discussions to the class. Some examples are:

-Pair share. Ask a question related to the reading. Pair up your students for a quick discussion about their answer. After about 10 minutes, ask each group to share their responses with the entire class.

-Catch-up. Break up your lecture into segments. Between each segment, have students work in small groups to compare notes and discuss what might not be clear to them. After about five to ten minutes, have each group share their findings with the class.

Reference

1. "Foreign language teaching methodology" 123 page Tashkent, 2018
2. Website; Busy Teacher.org 2018
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii>

SM4 SHIFRLASH ALGORITMINI DASTURIY AMALGA OSHIRISH USULLARI

I.S.Olimov

¹Tashkent university of information technologies named after Muhammad
al- Khwarizmi

E-mail: iskandar.olimov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada SM4 shifrlash algoritmini dasturiy amalga oshirish usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, SM4 shifrlash algoritmi haqida umumiy tasnif, uni dasturiy amalga oshirish usullari bat afsil yoritilgan undan tashqari ularni tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar. SM4, C, C++, Java, Python, OpenSSL, Bouncy Castle, Crypto++.

Kirish

SMS4 nomi bilan ham tanilgan SM4 shifr 2007 yilda Xitoy Milliy Kriptografiya Byurosi (NCB) tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan. U Xitoy uchun ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashda foydanilgan shifrlash standarti DES va uning vorisi o‘rnini bosuvchi milliy standart shifrlash algoritmi sifatida ishlab chiqilgan.

SM4 ni ishlab chiqishni Davlat Kriptografiya Boshqarmasidagi professor Lai Xuejia va uning jamoasi ishlab chiqan. Ularni asosiy maqsadi Xitoyda turli ilovalar, jumladan xavfsiz aloqa, ma’lumotlarni himoya qilish va moliyaviy operatsiyalar uchun keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan xavfsiz va samarali shifrlash algoritmini yaratish bo‘lgan.

SM4 shifrinining xavfsizligini ta’minlash uchun jiddiy tahlil va baholashdan o‘tkazildi. Dizayn jarayoni matematik tahlil, kriptografik tadqiqotlar va keng qamrovli testlarni o‘z ichiga olgan. Algoritm ma’lum hujumlarga qarshi kuchini

tekshirish uchun differensial kriptotahlil va chiziqli kriptoanaliz kabi bir qator kriptotahlil usullaridan o'tkazildi [5,8].

Turli baholash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng, SM4 2012 yilda Xitoyda milliy standart sifatida rasman e'lon qilindi. U SCA tomonidan Xitoydag'i davlat idoralari, moliya institutlari va boshqa tashkilotlar uchun tavsiya etilgan simmetrik shifrlash algoritmi sifatida qabul qilindi. U mamlakat kriptografik hamjamiyatida keng tan olingan va qabul qilingan algoritm bo'ldi.

SM4 asosan Xitoyda qo'llanilsada, u xalqaro e'tibor va e'tirofga sazovor bo'ldi. 2012 yilda SM4 ISO/IEC 18033-3 xalqaro standartiga blokli shifrlar uchun profil sifatida kiritilgan, ya'ni u ushbu standartga mos keladigan kriptografik protokollarda qurilish bloki sifatida ishlatilishi mumkin bo'ldi.

SM4 shifrlash algoritmini dasturiy amalga oshirish usullari

SMS4 algoritmi sifatida ham tanilgan SM4 shifrlash algoritmi ma'lumotlarni shifrlash va shifrini ochish uchun ishlatiladigan simmetrik blokli shifrdir. Bu Xitoyda keng tarqalgan bo'lib qabul qilingan standart bo'lib, turli ilovalarda, jumladan xavfsiz aloqa va ma'lumotlarni himoya qilishda qo'llaniladi. Bu yerda SM4 algoritmining apparat va dasturiy ta'minotni amalga oshirish jihatlari haqida umumiylar ma'lumot keltirilgan:

Dasturlash tillari: SM4 C, C++, Java yoki Python kabi turli dasturlash tillarida amalga oshirilishi mumkin. Tilni tanlash maqsadli platforma, ishslash talablari va ishlab chiquvchining afzalliklariga bog'liq.

Kriptografik kutubxonalar: OpenSSL, Bouncy Castle yoki Crypto++ kabi kriptografik kutubxonalar SM4 shifrlash va ochiq matnga qaytishni amalga oshirish uchun oldindan tuzilgan funksiyalar va API-larni taqdim etadi. Ushbu kutubxonalar past darajadagi kriptografik operatsiyalarni boshqaradi va ishlab chiquvchilar uchun SM4 ni o'zlarining dasturiy ilovalariga osongina integratsiya qilish uchun interfeysi taqdim etadi.

Operatsion tizimni qo'llab-quvvatlash: SM4 ilovalari turli xil operatsion tizimlarda, jumladan Windows, Linux, macOS va RTOS (Real-Time Operating Systems) kabi o'rnatilgan tizimlarda ishlash uchun ishlab chiqilishi mumkin.

Ilovalar bilan integratsiya: SM4 ilovalari xavfsiz xabar almashish ilovalari, VPNlar, fayllarni shifrlash dasturlari yoki tarmoq xavfsizligi vositalari kabi turli ilovalarga birlashtirilishi mumkin [1,2,5].

SM4 shifrlash algoritmiga qo'yilgan xavfsizlik talablari

Shuni ta'kidlash kerakki, SM4 kabi kriptografik algoritmlarni qo'llashda xavfsiz kodlash, kalitlarni boshqarish va algoritm konfiguratsiyasi uchun o'rnatilgan eng yaxshi amaliyotlarga amal qilish juda muhimdir. Bundan tashqari, amalga oshirishda aniqlanishi mumkin bo'lgan har qanday zaiflik yoki zaifliklarni bartaraf etish uchun muntazam xavfsizlik talablarini oshirish kerak.

SM4 simmetrik blokli shifrlash algoritmi bo'lib, Xitoy standart shifrlash algoritmi bo'lib, tuzilishi va ishlashi jihatidan AES (Advanced Encryption Standard) algoritmiga o'xshaydi. SM4 shifrlash yoki har qanday blokli shifrlash algoritmini tahlil qilishda odatda bir nechta jihatlar hisobga olinadi:

Xavfsizlik: Kriptografik algoritmlar turli xil hujumlarga chidamliligiga qarab baholanadi. SM4 xavfsizligi kriptografik hamjamiyat tomonidan keng tahlil qilingan. U ma'lum hujumlarga, shu jumladan differential va chiziqli kriptoanalizga qarshi chidamlilagini ta'minlash uchun jiddiy tekshiruv va baholashdan o'tdi.

Asosiy quvvat: SM4 bilan ishlatiladigan shifrlash kalitining kuchi uning xavfsizligi uchun juda muhimdir. Shuning uchun 128 bit uzunlikdagi kalit tavsiya etiladi.

Ishlash tartibi: SM4 ham boshqa blokli shifrlash algoritmlari kabi Elektron Codebook (ECB), Cipher Block Chaining (CBC), Counter (CTR) yoki Galois/Counter Mode (GCM) rejimlar bilan birgalikda ishlatiladi.

Amalga oshirish: Algoritmning amalda bajarilishi juda muhim. Algoritmning to‘g‘ri va xavfsiz ishlashini ta’minlash uchun u eng yaxshi amaliyotlar va xavfsizlik ko‘rsatmalariga amal qilishi kerak [4,6].

Kriptanaliz: Kriptanaliz - bu zaif yoki zaif tomonlarni topish maqsadida kriptografik algoritmlarni o‘rganishdir. *Kriptonalistlar* SM4 kabi algoritmlarni tahlil qilib, potentsial hujumlar yoki ularning xavfsizligiga putur etkazadigan kamchiliklarni aniqlaydilar.

SM4 shifrlash algoritmini kutubxona va dasturlash tillari bilan ishlashi

SM4 shifrlash yoki har qanday blokli shifrlash algoritmini tahlil qilishda ushbu omillarni hisobga olish va tegishli tadqiqot hujjatlari, kriptografik standartlar va professional kriptograflarning tajribasi bilan maslahatlashish zarur. Bundan tashqari, kriptografiya sohasidagi so‘nggi ishlanmalar va yutuqlardan xabardor bo‘lish talab etiladi.

SM4:

Maqsad: SM4 simmetrik blokli shifrlash algoritmi bo‘lib, ma’lumotlarni shifrlash va shifrini ochish uchun ishlatiladi.

Kalit uzunligi: 128 bit

Blok uzunligi: 128 bit

Ishlash tartibi: SM4 turli xil ish rejimlarini, jumladan, ECB (Elektron kod kitobi), CBC (Cipher Block Chaining) va boshqalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xavfsizlik: SM4 ma’lum hujumlardan himoyalanish uchun mo‘ljallangan va tavsiya etilgan kalit uzunliklari bilan foydalanilganda kuchli shifrlashni ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu algoritmlar Xitoy Milliy Kriptografik Algoritm To‘plamining (CNSA) bir qismidir va Xitoya keng qo‘llaniladi. Ular kriptografik hamjamiyat tomonidan keng qamrovli tahlil va baholashdan o‘tdi. Biroq, har doim eng so‘nggi ishlanmalardan xabardor bo‘lib turish va ushbu algoritmlarni real dunyo ilovalarida amalga oshirishda tavsiya etilgan eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish tavsiya etiladi [3,7].

SM4 shifrlash algoritmini ishlashi ba'zi kutubxona va dasturlash tillari orqali taqqoslash jadvali:

1-jadval

SM4 shifrlash algoritmi

<i>Amalga oshirish</i>	<i>Dasturlash tili</i>	<i>Xususiyatlari</i>
OpenSSL	C	SM4 qo'llab-quvvatlashi bilan keng qo'llaniladigan kriptografik kutubxona. Shifrlash funksiyalari va turli xil shifrlash rejimlarini qo'llab-quvvatlaydi.
Bouncy Castle	Java	SM4 qo'llab-quvvatlaydigan keng qamrovli kriptografik kutubxona. Oson integratsiya uchun yuqori darajadagi API-larni taklif qiladi va bir nechta platformalarni qo'llab-quvvatlaydi.
Botan	C++	SM4 qo'llab-quvvatlanadigan samarali kriptografik kutubxona. Shifrlash uchun API taqdim etadi va bir nechta shifrlash rejimlarini qo'llab-quvvatlaydi.
PyCryptodome	Python	SM4 qo'llab-quvvatlanadigan Python kutubxonasi. Nosimmetrik shifrlash uchun yuqori darajadagi API'larni, jumladan, SM4ni va boshqa kriptografik funksiyalarni taklif qiladi.
Cryptlib	C	SM4 qo'llab-quvvatlaydigan. Shifrlash uchun ishlatish qulay API-larni taqdim etadi va bir nechta platformalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, SM4 blokli shifrlash algoritmi feystal tarmog'iga asosolangan bo'lib, ma'lumotlarni maxfiyligini ta'minlashda foydaniladigan algoritm hisoblanadi. Ushbu maqoladi SM4 shifrlash algoritmi haqida umumiylashtirish tushunchasi,

unga qo‘yilgan xavfsizlik talablari, bu algoritmni dasturiy amalga oshirish usullari va ularni tahlili keltirilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Olimov I.S., Ortiqboyev A.M., “Buyumlar internetining (Internet of things, IOT) Arxitekturasi va xavfsizlik muammolari”. Axborot kommunikatsiyalari: Tarmoqlar, Texnologiyalar, Yechimlar. №2 (54). Toshkent-2020. -B. 32-41.
2. Boriyev Y.A., Sadikov M.A., Khamidov SH.J., “Internet of things architecture and security challenges ICISCT 2020 conference international conferencye on information sciencye and communications technologyes 4,5,6 November.
3. Abed, Sa’ed, et al. "Performance evaluation of the SM4 cipher based on field-programmable gate array implementation." *IET Circuits, Devices & Systems* 15.2 (2021): 121-135.
4. Rao, J., & Cui, Z. (2022). Chosen Plaintext Combined Attack against SM4 Algorithm. *Applied Sciences*, 12(18), 9349.
5. Zhou, Y., Wu, N., Hu, B., Zhang, Y., Qiu, J., & Cai, W. (2022). Implementation and Performance of Face Recognition Payment System Securely Encrypted by SM4 Algorithm. *Information*, 13(7), 316.
6. Zhou, Y., Wu, N., Hu, B., Zhang, Y., Qiu, J., & Cai, W. (2022). Implementation and Performance of Face Recognition Payment System Securely Encrypted by SM4 Algorithm. *Information*, 13(7), 316.
7. Li, Y., Wu, X., & Bai, G. (2018, October). Implementation of SM4 Algorithm based on Asynchronous Dual-Rail Low-power Design. In *2018 14th IEEE International Conference on Solid-State and Integrated Circuit Technology (ICSICT)* (pp. 1-3). IEEE.
8. Chen, Rui, and Bing Li. "Exploration of the High-Efficiency Hardware Architecture of SM4-CCM for IoT Applications." *Electronics* 11, no. 6 (2022): 935.

ФОРМИРОВАНИЯ КЛАСТЕРОВ В ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Халматжанова Гульчехра Джурабаевна,

к.э.н., доцент, Ферганский государственный университет

АННОТАЦИЯ

В статье идёт речь о кластерах, содержащие предприятия и фермерские хозяйства, расположенные в вертикальной и горизонтальной связи и занимающиеся производством определенного вида товара (услуги).

Ключевые слова: кластер, легкая промышленность, глобализация, интеграционные процессы, кластерная теория, предприятия, фермерские хозяйства.

Введение. В контексте современной глобализации интеграционные процессы происходят на уровне мировой экономики и национальной экономики, а также в масштабах ее различных отраслей. Этот процесс, в свою очередь, предполагает наличие совместимой системы связи и инфраструктурных объектов. На любом уровне интеграционные процессы попадают через определенные формы бизнеса. В мировой экономике это транснациональные компании, в то время как на уровне национальной экономики территориальные области, участвующие в создании продуктов и услуг, представляют собой «кластеры», которые содержат всех производителей (поставщиков услуг), связанных в «единую технологическую цепочку» межотраслевого сечения.

В нынешний период, когда традиционные методы экономического развития не способны обеспечить достаточную эффективность и

конкурентоспособность, переход на путь инновационного прогресса потребует внедрения новой экономической структуры “кластеры”.

Тематический анализ литературы. Основоположник кластерной теории М.Портер показал, что конкурентоспособные сетевые предприятия разбросаны по разным странам, они обладают свойством накапливаться в одной стране плюс определенном регионе, в котором изучается деятельность кластеров в отраслях промышленности и других производствах, конкурирующих с сетями вне кластерной системы было установлено, что преимущество и уровень жизни населения регионов, в которых они расположены, также высоки.

Группа американских ученых, в том числе М.Энрайт, С.Резенфельд, П.Маскелл, А.Маршалл, М.Сторпера и других теорий о кластере, было показано, что кластер представляет собой систему, гармонизированную с деятельностью образования, науки, техники, экономики и других сервисных организаций в данной области, а также обеспечение доминирования производителей в конкурентной борьбе. Дж.Даннинг, в теориях К.Бrimена и других британских ученых отмечается, что кластер представляет собой систему взаимодействующих институтов. По мнению экспертов А.Мигранян, “кластер представляет собой совокупность относительно эффективных и взаимосвязанных видов экономической деятельности, то есть совокупность взаимосвязанных групп, которые успешно конкурируют, обеспечивая конкурентную ситуацию на сетевом, национальном и мировом рынках”. Опыт развитых стран мира показывает, что существует высокая роль кластеров в производстве конкурентоспособных товаров, повышении устойчивого социально-экономического развития, инвестиционной активности и привлекательности.

Мировые эксперты утверждают, что использование кластерного механизма на сегодняшний день заняло почти 50% экономики в ведущих странах мира. М.Портер и М.Энрайт указали приоритетные аспекты кластерного механизма,

такие как наличие производительности труда на предприятиях кластеризованных регионов до 1,5 раз, а стоимость работ до 30 процентов, дальнейшее стимулирование труда сотрудников, занятых на производстве и научных исследованиях, и наличие создаются условия для создания конкурентоспособных товаров. Кластеры анализа и результатов охватывают не только реальный сектор, сети и секторы экономики, но и социальную сферу (образование, науку).

Анализы и результаты. Кластеры делятся на две категории в зависимости от их организационно-экономической формы:

1. Кластеры, содержащие предприятия и фермерские хозяйства, расположенные в вертикальной и горизонтальной связи и занимающиеся производством определенного вида товара (услуги).
2. Кластеры, расположенные близко друг к другу с географической точки зрения, содержащие совокупность компаний, предприятий, учреждений и организаций, производство которых взаимосвязано.

В обеих формах кластера хозяйствующие субъекты, входящие в него, теряют свою экономическую и финансовую независимость, сохраняя только независимость производства (обслуживания). Свободные экономические зоны, инновационные центры (технополисы), логистические центры, свободные научно-технические зоны, научно-производственные центры являются необходимыми условиями для развития кластерной системы.

Агропромышленные кластеры - это производители сельскохозяйственной продукции, поставщики средств производства для нее, предприятия промышленной сети, перерабатывающие ее продукцию, поставщики услуг для сетевых полей (химический, ветеринарий, семеноводство, селекция, наука и т.д.), коммерческие учреждения, осуществляющие продажу риса продукты, а также различные другие объекты экономической инфраструктуры.

Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиев отметил: “Вопросы сельскохозяйственной реформы и продовольственной безопасности остаются, без сомнения, одной из важнейших задач для нас. В первую очередь, внимание будет уделено последовательному развитию агропромышленного комплекса и его локомотива, то есть многоотраслевых фермерских хозяйств с движущей силой”.

В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, утвержденной указом Президента Республики Узбекистан “Модернизация и ускоренное развитие сельского хозяйства” № 4947 от 7 февраля 2017 года, фермерские хозяйства, прежде всего, в дополнение к производством сельскохозяйственной продукции, занимаются переработкой, определены дальнейшее расширение инфраструктуры для хранения, транспортировки и реализации сельскохозяйственной продукции, агроклиматических, финансовых и других современных рыночных услуг и другие важные задачи.

На современном этапе экономического развития нашей республики значительное место занимают территориальные кластеры хлопчатобумажного текстиля, которые определяют прогрессивность всего агропромышленного комплекса. Потому что хлопково-текстильный кластер охватывает не только легкую промышленность, но и десятки отраслей, включая сельское хозяйство, пищевую промышленность, фармацевтику, производство строительных изделий.

Одним из наиболее рациональных и эффективных способов является то, что вопрос формирования кластеров в легкой промышленности и текстильной системе Узбекистана решается не в масштабах страны, а исходя из конкретных социально-экономических условий в регионах, кластерный эксперимент, который широко начался в Бухарской, Сырдарьинской и Навоийской областях нашей страны, продолжается созданием объектов, относящихся к этой системе, в других регионах.

Сегодня в нашей стране создаются 100 процентные безотходные производственные мощности в форме “выращивание - переработка-перерабатывающее хлопковое сырье, готовое продукция”, которые являются современными для национальной экономики, с использованием кластерного механизма по типу инноваций отрасли, в частности, в хлопководческие кластеры. Поскольку хлопковые предприятия, занимающиеся производством и реализацией высококачественной продукции, соответствующей международным стандартам, путем глубокой переработки продуктов, полученных в результате выращивания хлопкового сырья в текстильных кластерах, посев, культивирование, сбор урожая, переработка и первичная переработка хлопка объединены в единую систему управления.

Применение новых форм и методов экономического развития к сельскому хозяйству и смежным отраслям республики приведет к негласной экономике всей страны и, в частности, к резкой прогрессивности ее аграрной сети. Организация агропромышленных кластеров, в частности хлопково-текстильных кластеров, направлена на достижение следующих целей:

-В концепции стратегии развития Республики Узбекистан до 2035 года достигнута цель формирования высокотехнологичного сельского хозяйства, полностью удовлетворяющего растущие потребности населения Узбекистана и нацеленного на экспорт продуктов высокой степени переработки и новых плодовых культур.

Итоги и предложения. Концепция стратегии развития Республики Узбекистан до 2035 года предусматривает реализацию следующих задач в достижении цели, поставленной для развития сельского хозяйства:

- создание региональных сельскохозяйственных кластеров;
- экспорт готовой продукции с высокой добавленной стоимостью;
- рациональное использование водных ресурсов для сельскохозяйственного производства.

- создание 15-20 центров по хранению, сортировке и переработке сельскохозяйственной продукции;
- принятие международных стандартов качества и т.д.

Подводя итоги, организация производства в сельском хозяйстве в стиле хлопково-текстильного кластера предоставляет возможность интегрировать сеть и применять новые инновационные идеи в производстве. Это приводит к эффективному использованию трудовых и материальных ресурсов, расширению экспортных возможностей и решению социальных вопросов. В конце концов, агропромышленные кластеры определяют прогресс сельского хозяйства и придают импульс развитию фермерской деятельности, основанной на требованиях времени.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан "О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан" № 4947 от 7 февраля 2017 года // "Народное слово". 8 февраля 2017 г.
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2017 года № 2978 "О мерах по созданию современного хлопково-текстильного кластера в Бухарской области".
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан "О дополнительных мерах по дальнейшему развитию хлопково-текстильного производства" № 744. 19 сентября 2018 года. Научный электронный журнал "Международные финансы и бухгалтерский учет". № 2, апрель 2019 г.
4. Халматжанова Г.Д. Локомотив аграрного сектора экономики. Ж .: Образование и наука в России и за рубежом. : Москва. №3, 2020.
- 6.Халматжанова, Г. Д., & Райимджанова, Г. Х. (2020). Кластерный механизм-способ модернизации текстильной отрасли Узбекистана. Межвузовский научный конгресс:" Высшая школа: научные исследования". НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 28.

7.Khalmatjanova, G. D. (2020). Mechanisms of formation of agricultural clusters in the economy of Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 847-852.

8.Халматжанова, Г. Д. (2021). НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ И ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО КЛАСТЕРА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Scientific progress*, 2(3), 179-186.

9.Халматжанова, Г. (2020). КЛАСТЕРЫ-ФАКТОР, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ РАЗВИТИЕ АГРАРНОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Редакционная коллегия: ПМ Першукевич, академик РАН*, 319.

10.Halmathanova, G. J. (2020). The locomotive of the agricultural sectorz. *Образование и наука в России и за рубежом*, (3), 55-56.

11.Халматжанова, Г. Д. (2019). Модернизация и диверсификация-приоритетная задача сельского хозяйства Республики Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 373-377.

12.Халматжанова, Г. Д., & Райимджанова, Г. Х. (2020). Переработка сельхозпродукции и дальнейшее развитие пищевой промышленности Республики Узбекистан. In *НАУКА И ИННОВАЦИИ-СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ* (pp. 38-43).

13.Халматжанова, Г. Д. (2020). ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 26-34).

14.Халматжанова, Г. Д., & Мирзаахмадова, З. М. (2021). "ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫЙ КЛАСТЕР"-ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ. Евразийский Союз Ученых, (3-3 (84)), 20-21.

15.Халматжанова, Г. Д., & Бахрамов, А. Х. (2020). ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО И СБАЛАНСИРОВАННОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 219-225).

- 16.Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ (pp. 238-244).
- 17.Халматжанова, Г. Д., & Мадаминов, Ж. (2008). ИНВЕСТИЦИИ-СТИМУЛЯТОР УСТОЙЧИВОГО РОСТА. Вопросы экономических наук, (4), 80-81.
- 18.Халматжанова, Г. Д. (2021). РАЗВИТИЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
- 19.Халматжанова, Г. Д., & Мадаминов, Ж. (2008). Конкурентоспособность-повышение качества продукции. Проблемы экономики, (3), 33-34.

BADIY ASARDA KOMPOZITSIYA UNSURLARI

Nosirova Setora

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada adabiyotshunoslik ilmida uchraydigan syujet va fabula terminlarining o‘zaro farqli jihatlari hamda badiy asarda syujetni tashkil etuvchi tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi istilohlar Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasi misolida o‘rganib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Syujet, fabula, tugun, ekspozitsiya, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, Nazar Eshonqul, ‘‘Bepoyon osmon’’.

Avvalo, har bir badiiy asar ma’lum bir voqealar tizimi, ya’ni syujetdan tashkil topadi. Syujetlilik badiiy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida tushuniladi.

„Syujet (fran. Predmet, „asosga qo‘yilgan narsa“) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.”¹

Adabiyotshunoslikda <<syujet>> bilan bir qatorda <<fabula>> istilohi ham borki, bu ikki atama 19 asr oxirigacha bir-biriga ma’nodosh holda qo‘llanilgan. Keyinchalik 20 asr bosqlaridan syujetning kengroq o‘rganilishi va chuqurroq tatbiq etilishi natijasida bu ikki atamaning bir-biridan farqli tomonlari borligi isbotlandi va fanga olib kirildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, <<syujet>> bu asardagi ma’lum voqealarning ijodkor tomonidan o‘zaro joylashtirish tartibidir. <<Fabula>> esa

asardagi voqealarning shunchaki hayotda yuz berish ketma-ketligidir. Shu ma'lumotlarga tayanib biz syujet va fabulani farqlar ekanmiz, avvalo, voqealarning hayotda yuz berish tartibi bilan uning badiiy asarda yuz berish tartibining farqini anglab olishimiz lozimdir.

Misol tariqasida O'zbek modernizm adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqulning <<Bepoyon osmon>> hikoyasini olsak. Hikoya asar qahramoniga <<qisqa va zardali>> xat kelishi bilan boshlanadi: <<Xat qisqa va zardali edi-->> <<Oyto'ldi enang og'ir yotibdi. Joni uzilmasdan kel!>> -- bunaqa dag'al jumlalarni faqat ammam yozdirishi mumkin, boshqa hech kim. Pashhsaning qanotiday keladigan shu bir parcha qog'ozda ham Oyto'ldi enamga nisbatan bir umr tark etmagan tana-yu dashnomini, zining azaliy munosabatini bildirish uchun <<Oyto'ldi enang>> deya istehzo qilgani va bunday piching-u kinoyalar faqatgina ammamning qo'lidan kelishini xatni o'qigandayoq tushungan edim. >> Asar mana shunday boshlanadi. Qahramon avvaliga xatni o'qiydi., vaziyat qanchalar murakkab ekanligini, tug'ilib o'sgan qishlog'iga tezroq qaytishi kerak ekanligini tahlil qilar ekan, shu o'rinda u ortga, o'tmishta nazar tashlaydi. Bu o'rinda biz asar syuzet asosida qurilganini anglab olamiz.

Hikoyaga yaxshiroq e'tibor beradigan bo'lsak, asar voqealar tugunidan boshlanadi. Keling, avvalo, asarda voqealar tuguni nima ekanligiga atroficha to'xtalsak: <<Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflekti qo'yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o'laroq, tugun syujetning zarur elementi sanaladi, ya'ni u syuzetda har vaqt hozirdir... Tugun, odatda, asarning boshida, ekspozitsiyadan keyin beriladi. Ba'zan muayyan badiiy estetik maqsadni ko'zda tutgan holda uning o'rni o'zgartirilishi mumkin>>.² <<Bepoyon osmon>> hikoyasini o'qishni boshlar ekanmiz, jumlalarni birin-ketin o'qiganimiz sari tugun ham birin-ketin namoyon bo'laveradi. Masalan: <<... Bunaqa jumlan faqat ammam yozdirishi mumkin, boshqa hech kim. Pashhsaning qanotiday keladigan shu bir parcha qog'ozda ham Oyto'ldi enamga nisbatan bir umr tark etmagan tana-yu dashnomini, o'zining azaliy munosabatini bildirish uchun <<Oyto'ldi enang>> deya

istehzo qilgani va bunday piching-u kinoyalar faqat ammamning qo‘lidan kelishini xatni o‘qigandayoq tushungan edim...>> Hikoyaning boshlanmasi bo‘lgan bu jumlalar bizda turli xil savollar tug‘diradi: Aslida qahramon << ammam>> deya ta’riflayotgan obraz kim, nega qahramon o‘z ammasiga nisbatan bu qadar salbiy munosabat bildiryapti? Oyto‘ldi ena obrazi qanday obraz? Nega qahramon uni shunchaki <<ena>> demasdan <<Oyto‘di ena>> deb murojaat qilyapti? <<Oyto‘ldi ena>> qanday <<yomonlik>> qilganki <<amma>> obrazi <<Oyto‘ldi ena>>ga nisbatan bir umr tark etmagan ta’na-yu dashnomlarning egasi sifatida ta’riflanadi?! Manashu pallada tugun yuzaga keladi va biz asarni o‘qishni davom ettirar ekanmiz, har bir voqealar tuguni birma-bir o‘z yechimini topib boraveradi.

Merkle daraxtlari: Merkle daraxtlari, shuningdek, xesh daraxtlari sifatida ham tanilgan, katta Ma'lumotlar to'plamlarini samarali tekshirish imkonini beruvchi Ma'lumotlar tuzilmalari. Ular Ma'lumotlarni kichikroq bloklarga ajratadilar, har bir blok uchun xeshlarni hisoblaydilar.

Blokcheyn texnologiyasi: Dastlab Bitcoin kabi kriptovalyutalar uchun taqdim etilgan blokcheyn texnologiyasi o'ziga xos Ma'lumotlar yaxlitligi xususiyatlari tufayli turli sohalarda e'tiborni tortdi. Blokcheyndagi har bir blok zanjirni tashkil etuvchi oldingi blokning kriptografik xeshini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonunida elektron raqamli imzoga quyidagichata'rif berilgan:

Elektron raqamli imzo


“*Elektron raqamli imzo (ERI)* — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda, maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan, hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo”.

Elektron raqamli imzo oddiy qo'lda qo'yiluvchi imzo kabi, faqat elektron hujjatlarda qo'yiladi va imzo qo'yilgan Ma'lumotning yaxlitligini ta'minlaydi va imzolovchining qo'yilgan imzodan bosh tortmasligini (rad etmasligini) kafolatlaydi. Axborot xavfsizligida *rad etish* muammosi mavjud, unga ko'ra foydalanuvchi hujjatni imzolaganini rad etadi (ya'ni, men imzolamadim deb turib oladi). Mazkur muammoni oldini olishda aynan elektron raqamli imzo tizimlaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, ERI tizimlari nafaqat Ma'lumot yaxlitligini ta'minlaydi, balki imzolovchining majburiyatlardan tonishiga yo'l qo'ymaydi (yoki rad etishni oldini oladi). Shu sababli, ERI tizimlari Ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlovchi simmetrik kriptotizimlarga asoslangan MAC tizimlaridan ajralib turadi.

MAC tizimlarida xesh qiymatni qayta hisoblay olmaslik uchun, matnga kalit biriktirilgan bo'lsa, ERI tizimlarida Ma'lumotning xesh qiymati shaxsiy kaliti bilan "shifrlash" amalga oshiriladi va ERI hosil qilinadi. Ushbu xabarni "rasshifrovkalash" uchun esa tomonning ochiq kalitini bilihning o'zi yetarli. Demak, oddiy imzo tizimiga o'xhash (oddiy imzo tizimida bir kishi imzo qo'yadi va qolganlardan uning haqiqiyligini tekshirish talab etiladi). ERI tizimida ham shaxsiy kalit egasi xabarni imzolaydi, qolganlar esa, uning ochiq kalitidan foydalanib, imzoni haqiqiyligini tekshiradi.

Agar A tomon xabar M ga imzo qo'ygan bo'lsa, u holda imzo $S = [M]_A$ shaklida ifodalanadi (xuddi ochiq kalitli kriptografiyada shaxsiy kalit bilan reasshifrovkalash kabi). ERI tizimlarini yaratish ikkita muolajadan iborat: *ERIni shakllantirish* va *ERIni tekshirish* (1-rasm).



1-rasm. Elektron raqamli imzo sxemasi

Hozirda ERI tizimini yaratishning bir nechta yo‘nalishlari mavjud. Bu yo‘nalishlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) ochiq kalitli shifrlash algoritmlariga asoslangan;
- 2) simmetrik shifrlash algoritmlariga asoslangan;
- 3) imzoni hisoblash va uni tekshirishning maxsus algoritmlariga asoslangan raqamli imzo tizimlaridir.

Ochiq kalitli shifrlash algoritmlariga asoslangan ERI

Ishonchli bardoshli kriptoalgoritmlar mutaxasislar tomonidan yechilishi murakkab deb tan olingan matematik masalaga asoslanadi. Ishonchli bardoshli kriptoalgoritmlar turkumi tarkibiga kiruvchi yetarli katta sonni tub ko‘paytuvchiga ajratish (**TKA**) **matematik** murakkabligiga asoslangan **RSA** shifrlash algoritmi keltirishimiz mumkin [1];

RSA shifrlash algoritmi. Diffi va Xelman kritografiya sohasida yangicha yondashishni targ‘ib qilib, ochiq kalitli kriptotizimlarning barcha talablariga javob beradigan kriptografik algoritm yaratish taklifi bilan chiqdi. Birinchilardan bo‘lib bunga javoban 1978 yil Ron Rayvets (Ron Rivest), Adi Shamir (Adi Shamir) va Len Adlmen (Len Adlmen)lar shu vaqtgacha tan olingan va amaliy keng qo‘llanib kelingan ochiq kalitli shifrlash algoritm sxemasini taklif qildi va bu algoritm ularning nomi sharafiga RSA algoritmi deb ataldi. RSA algoritmi faktorlash murakkabligiga asoslangan shifrlash algoritmi hisoblanadi [1,2].

Tizimning har bir i- foydalanuvchisi (e_i, d_i) - kalitlar juftligini yaratadi. Buning uchun yetarli katta bo‘lgan p va q - tub sonlari olinib (bu sonlar mahfiy tutiladi), $n = pq$ - soni va Eyler funksiyasining qiymati $\varphi(n) = (p-1)(q-1)$ hisoblanadi (bu son ham maxfiy tutiladi). So‘ngra, $(e_i, \varphi(n)) = 1$ shartni qanoatlantiruvchi, ya’ni $\varphi(n)$ -soni bilan o‘zaro tub bo‘lgan e_i -son bo‘yicha d_i -soni ushbu $e_i d_i \equiv 1 \pmod{\varphi(n)}$ formula orqali hisoblanadi. Bu $(e_i; d_i)$ –juftlikda e_i - ochiq kalit va d_i - mahfiy kalit deb e’lon qilinadi.

Shundan so‘ng i - foydalanuvchidan j - foydalanuvchiga shifrlangan Ma’lumotni imzolagan holda jo‘natishi quyidagicha amalga oshiriladi:

- *shifrlash qoidasi*: $M^{e_j} \bmod n = C$, bu yerda M - ochiq Ma’lumot, C – shifrlangan Ma’lumot;
- *deshifrlash qoidasi*: $C^{d_j} \bmod n = M^{e_j d_j} \bmod n = M$;
- *ERI ni hisoblash*: $H(M)^{d_i} \bmod n = P_i$,

Bu yerda i - foydalanuvchining P_i - imzosi M - Ma’lumotning $H(M)$ - xesh funksiya qiymati bo‘yicha hisoblangan;

ERI ni tekshirish: $(P_i)^{e_i} \bmod n = H(M)^{e_i d_i} \bmod n = H(M)$, agar $H(M) = H(M_1)$ bo‘lsa (bu yerda M_1 - deshifrlangan Ma’lumot), u holda elektron hujjat haqiqiy, aks holda haqiqiy emas, chunki xesh funksiya xossasiga ko‘ra $M = M_1$ bo‘lsa ularning xesh qiymatlari ham teng bo‘ladi.

Ma’lumotni maxfiy uzatish protokoli:

$$[M \cup H(M)^{d_i}]^{e_j} \bmod n = [M \cup P_i]^{e_j} \bmod n = C;$$

Maxfiy uzatilgan Ma’lumotni qabul qilish protokoli:

$C^{d_j} \bmod n = [M \cup P_i]^{e_j d_j} \bmod n = M \cup P_i$, umuman qaraganda dastlabki Ma’lumot o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin, shuning uchun $C^{d_j} \bmod n = M_1 \cup P_i$ bo‘lib, natijada, xesh qiymat imzo bo‘yicha ushbu ifoda $(P_i)^{e_i} \bmod n = H(M)^{e_i d_i} \bmod n = H(M)$ bilan hisoblanadi va qabul qilib olingan Ma’lumotning xesh qiymati $H(M_1)$ bo‘lsa, u holda $H(M) = H(M_1)$ bo‘lganda elektron hujjat haqiqiy, aksincha bo‘lsa qalbaki hisoblanadi.

Elliptik egri chiziqlarga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmlari

Elliptik egri chiziqlarga asoslangan kriptotizimlar kriptografiyaga 1985 yilda V.Miller va N.Koblis tomonidan tadbiq qilingan. Assimmetrik kriptografik algoritmlarning ko‘pchiligi chekli maydonda diskret logarifmlash masalasining murakkabligiga asoslangan bo‘lib, bu algoritmlarni elliptik egri chiziqlarga o‘tkazish masalasi alohida izlanish talab etadi. Quyida xalqaro standart sifatida qabul qilingan EC DSA va GOST R 34.10-2001 elliptik egri chiziqlarga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmlari ko‘rib o‘tiladi [3].

Elektron raqamli imzo algoritmining boshlang‘ich parametrlari. Qaralayotgan algoritmning asosiy parametrlari xarakteristikasi p -tub sondan iborat bo‘lgan chekli maydonda aniqlangan E -elliptik egri chiziq va shu chiziqda olingan katta tub tartibga ega bo‘lgan $G \in E(F_p)$ -bazaviy nuqta hisoblanadi.

Bu chiziq quyidagi tenglama bilan beriladi:

$$y^2 = x^3 + ax + b \pmod{p}.$$

Turli (a, b) parametrlar juftligi izomorf elliptik egri chiziqlarni aniqlaydi. Tenglamaning muhim parametrlari esa mos ravishda diskriminant $d = -16(4a^3 + 27b^2) \neq 0$ va invariant $j = 1728(4a)^3/d$ ko‘rinishda bo‘ladi. Tenglamaning koeffisiyentlari a va b ma’lum j invariant bo‘yicha quyidagicha aniqlanadi:

bu yerda

$$k \equiv \frac{j}{1728 - j} \pmod{p}, \quad j \neq 0, \quad j \neq 1728$$

Elliptik egri chiziqning G nuqtasi $F_p : G = (x_G, y_G)$ maydondan olingan (x_G, y_G) elementlar juftligi bilan aniqlanadi. Bu nuqtani hisoblashning yagona aniq usuli yo‘q. Shuning uchun tanlash usuli bilan – biror x -qiymat olinadi va F_p maydonda $x^3 + ax + b$ ifodaning qiymati hisoblanib, bu qiymat biror sonni kvadrat ildizi bo‘lishi yoki bo‘lmasligi tekshiriladi. Agarda kvadrat ildiz mavjud bo‘lsa, bu idiz y deb olinadi. Kvadrat ildiz mavjudligi $\left(\frac{x^3+ax+b}{p}\right)$ simvoli yordamida tekshiriladi [4,6].

Kriptografik bardoshli raqamli imzo tizimini olish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- elliptik egri chiziq supersingulyar bo‘lmasligi kerak, $\#E(F_p) \neq p + 1$;
- $p^k \neq 1 \pmod{n}$ barcha $k \in \{1, \dots, C\}$ lar uchun, bu yerda C yetarli katta son, qaysiki F_{p^C} maydonda diskret logarifmlashni hisoblash vaqt nuqtai nazaridan mumkin bo‘lmasin (odatda $C = 20$ qilib tanlanadi);
- elliptik egri chiziq anomal bo‘lmasligi kerak, ya’ni $\#E(F_p) \neq p$;

– elliptik egri chiziqning rasional koordinatali nuqtalari soni m quyidagi shartni qanoatlantirsin:

$$\# E(F_p) = m, \quad m = tq, \quad \text{bu yerda } q - \text{katta tub son, } t \in N \text{ va } t \geq 1.$$

Hozirda maxsus chiziqlar sinflariga mavjud bo‘lgan hujumlardan himoyalanishning mavjud usuli – E - Elliptik egri chiziqni yuqoridagi shartlarni qanoatlantiruvchi qilib olishdan iboratdir [1,5].

Ushbu parametrlar foydalanuvchilar guruhi uchun umumiyligi bo‘lishi mumkin. Imzoni generasiya qilish va tekshirish uchun ishlataladigan individual parametrlar – maxfiy va ochiq kalitlar deb nomlanadi.

- imzo qo‘yish kaliti (mahfiy kalit) – bu $[0; q]$ intervaldagagi ihtiyyoriy d soni;
- imzoni tekshirish kaliti (ochiq kalit) – bu elliptik egri chiziqdagi $Q = [d]G$ nuqta;
- bundan tashqari raqamli imzo algoritmida h - xesh-funksiyadan ham foydalilanadi.

DSA ERI algoritmi

1991 yilda NIST (National Institute of Standard and Technology) tomonidan DSA (Digital Signature Algorithm) algoritmiga asoslangan DSS (Digital Signature Standard) ERI standarti yaratildi. Ushbu algoritm chekli maydonda diskret logarifmlash muammosiga asoslangan. Xesh funksiya sifatida SHA1 standartidan foydalaniilgan.

Ochiq va yopiq kalitlar

1. Maxfiy kalit

Imzoni shakllantirish:

1. Imzolanuvchi M Ma’lumotni imzolashda quyidagi ketma – ketliklar bajariladi:

- a. p – tub son tanlanadi ($2^{1023} < p < 2^{1024}$ va bit uzunligi 64 ga karrali);
- b. q – tub son tanlanadi ($2^{159} < q < 2^{160}$ va $p-1$ ning bo‘luvchisi);
- c. $0 < h < p$ va $h^{(p-1)/q} \bmod p > 1$ shartlarni qanoatlantiruvchi h kattalik asosida $g = h^{(p-1)/q} \bmod p$ butun son hisoblanadi;

d. x – maxfiy kalit orqali, $y = q^x \text{ mod } p$ ochiq kalit hisoblanadi (bu yerda: $0 < x < q$);

2. Ma'lumot jo'natuvchisi tasodifyi k sonini tanlaydi ($0 < k < q$ shart bilan). Ushbu kattalik imzo shakllantirilgandan so'ng o'chirib tashlanadi.

3. M Ma'lumotni imzolari quyidagilarga teng bo'ladi:

$$r = g^k \text{ mod } p \text{ mod } q,$$

$$s = k^{-1}(xr + H(M)) \text{ mod } q.$$

Hosil qilingan kattaliklar (r, s) Ma'lumot M ga qo'shib imzoni tekshiruvchi tomonga yuboriladi.

Imzoni tekshirish jarayoni:

Qabul qilingan M' Ma'lumot va unga qo'yilgan imzo (r', s') asosida imzoni tekshirish jarayoni amalga oshiriladi. Bu ikki bosqichdan iborat. Agar imzo birinchi bosqichdagi tekshiruvdan o'ta olmasa, unda ikkinchi bosqichga o'tmaydi.

Qabul qilingan imzolar uchun $0 < s' < q$ yoki $0 < r' < q$ shart tekshiriladi. Bu shart bajarilsa ikkinchi bosqichga o'tiladi [5,6].

1. Ikkinci bosqich quyidagilardan iborat:

a. $v = (s')^{-1}(\text{mod } q)$ hisoblanadi.

b. $z_1 = H(M') v \text{ mod } q, z_2 = r' v \text{ mod } q$ qiymatlar hisoblanadi.

c. Shundan so'ng $u = g^{z_1} y^{z_2} \text{ mod } p \text{ mod } q$ qiymat hisoblanadi.

d. Agar $r' = u$ tenglik bajarilsa, u holda qo'yilgan elektron raqamli imzo haqiqiy ($M = M'$) bo'ladi. Aks holda imzo qalbaki deb topiladi.

- *Parametrlarni generatsiyalash*

– $H = 9_{10} = 1001_2$;

– xesh qiymat uzunligi 4 ga tengligi uchun $q = 11_{10} = 1011_2$ tanlash mumkin.

– shuningdek, $p = 23$ ni tanlash mumkin, ya'ni $23 - 1 = 22 = q * 2$;

– bundan tashqari, $g = 2^2 = 4$.

- *Kalitlarni hosil qilish*

– shaxsiy kalit uchun: $x = 7$;

– u holda ochiq kalit quyidagiga teng bo‘ldi: $y = g^x \text{mod} p = 4^7 \text{mod} 23 = 16384 \text{mod} 23 = 8$.

- *Xabarni imzolash*

- $k = 3$ deb tanlaylik;

- u holda $r = (g^k \text{mod} p) \text{mod} q = (4^3 \text{mod} 23) \text{mod} 11 = 7$;

- $r \neq 0$ bo‘lganligi bois, keying qadamga o‘tamiz;

- $s = k^{-1}(H(m) + x * r) \text{mod} q = 4(9 + 7 * 7) \text{mod} 11 = 1$, ya’ni $3^{-1} \text{mod} 11 = 4$.

- $s \neq 0$ bo‘lganligi bois, keyingi qadamga o‘tamiz:

- Imzo jufti $(r, s) = (7, 1)$ ga teng.

- *Imzoni tekshirish*

- $w = s^{-1} \text{mod} q = 1^{-1} \text{mod} 11 = 1$;

- $u_1 = H(m) * w \text{ mod } q = 9 * 1 \text{ mod } 11 = 9$;

- $u_2 = r * w \text{ mod } q = 7 * 1 \text{ mod } 11 = 7$;

- $v = (g^{u_1} * y^{u_2} \text{ mod } p) \text{mod} q = (4^9 * 8^7 \text{ mod } 23) \text{mod} 11 = 7$;

- $v = r$ bo‘lganligi bois, imzo to‘g‘ri.

ERI algoritmlari tahlili

1-jadval

ERI algoritmlari tahlili jadvali

<i>Belgilar</i>	<i>O‘z Dst 1092:2005</i>	<i>DSA</i>	<i>GOST R 24.10-2001</i>
<i>Algebraik Struktirasi</i>	Parametrlı Algebra	Chekli oddiy maydon	Chekli oddiy maydon, aniqlangan EECh
<i>Modul tipi va o‘lchami</i>	Tub son $p > 2^{255}$ (afzalligi: tezkorlikda)	Tub son $2^{511} < p < 2^{1024}$	Tub son, $p > 2^{255}$
<i>Protseduralarda foydalanilgan asosiy amallar</i>	Parametrlı ko‘paytirish; Parametr bilan darajaga oshirish.	Ko‘paytirish Ko‘shish Darajaga oshirish Teskarilash	Ko‘shish Inkor Ko‘p martalik ko‘shish (kamchili: amallarning murakkbligida)
<i>Daraja asosi tipi</i>	Maxfiy - g. (afzalligi: diskret logarifm masalasini qo‘shish	Oshkora - g. (kamchiligi : diskret logarifmlash masalasini kushish osonligida)	Oshkora - p (kamchiligi: EECh diskret logarifmlash masalasini ko‘shish

	murakkabligida)		osonligida)
ERI uzunligini qisqartirishga yondoshuv	Faktor ((p-1) ning tub ko‘paytuvchisi) dan foydalanish $2^{254} < q < 2^{256}$	Faktordan foydalanish $2^{511} < q < 2^{1024}$	Siklik gruppaning tartibidan foydalanish $2^{254} < q < 2^{256}$ q-gruppa tartibi
Yopiq kalit shakli	Juftliklar(r, s) $\mu=0$, (r,s,y1) $\mu=1$. Kamchiligi $\mu=1$	Juftlik(r,s)	Juftlik(r,s)
Bardoshlilik	$\mu=1$ da daraja parametrning muammosining murakkabligiga asoslangan (afzalligi:RSA ga nisbatan bardoshli)	Modullar (512-1024) bit bo‘landa diskret logarifmlashning murakkab	Modul 255 bitdan kata bo‘lganda EECh da diskret logarifmlashning murakkabligiga asoslangan.
Tekshirish kaliti shakli	Juftlik (y,z) $\mu=0$, (y,z,y1) $\mu=1$ da (afzalligi: soxta imzoni aniqlashda)	Juftlik (s, y)	Parametr - Q
Imzoni tekshirish natijasi shakli	Xesh funksiya qiymati yoki xeshlashdan foydalanilmagan dagi xabar bloki (afzalligi: xeshlanishi shart bo‘lmagan qisqa xabarlarni uzutmaslik mumkinligi)	Ijobiy yoki salbiy	Ijobiy yoki salbiy
Foydalaniladi gan mezon	1. Seans kalitisiz ($\mu=0$) 2. Seans kaliti bilan ($s=1$) (afzalligi: yangi imkoniyatlar tug‘ilishida)	Seans kalitisiz	Seans kalitisiz

Ushbu jadvalda hozirda keng qo‘llanilayotgan bardoshli sanalgan ERI standartlari keltirilgan.

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, har bir kriptotizim o‘ziga tegishli bo‘lgan ochiq va yopiq kalitlarga ega hisoblanib bu parametlar kriptotizimni bardoshliligiga hissa qo‘shuvchi eng muhim parametrlardir.

Xulosa

Mazkur maqolada Elektron raqamli imzo algoritmlari tahlili qilingan bo'lib, unda ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash usullari, elektron raqamli imzo algoritmlari haqida ma'lumot ya'ni electron raqamli imzoni shakllantirish, tekshirish va undan tashqari elektron raqamli imzo algoritmlari tahlili keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kheshafaty, Nafisah, and Adnan Gutub. "Preventing multiple accessing attacks via efficient integration of captcha crypto hash functions." *Int. J. Comput. Sci. Netw. Secur.(IJCSNS)* 20.9 (2020): 16-28.
2. Xu, Cong, Jingru Sun, and Chunhua Wang. "A novel image encryption algorithm based on bit-plane matrix rotation and hyper chaotic systems." *Multimedia Tools and Applications* 79.9-10 (2020): 5573-5593.
3. Hunt, Gareth, and H. E. Payne. "Image Reconstruction with Few Strip-Integrated Projections: Enhancements by Application of Versions of the CLEAN Algorithm." *Astronomical Data Analysis Software and Systems VI*. Vol. 202. No. 25. 1997.
4. Latif, S., Idrees, Z., Ahmad, J., Zheng, L., & Zou, Z. (2021). A blockchain-based architecture for secure and trustworthy operations in the industrial Internet of Things. *Journal of Industrial Information Integration*, 21, 100190.
5. Olimov I. S., Karimov A. A., Ibrohimov X. I. ELLIPTIK EGRI CHIZIQQA ASOSLANGAN DIFFI XELMAN ALGORITMLARI YORDAMIDA KALITLARNI GENERATSIYALASH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 427-432.
6. Salimboyevich O. I. et al. Making algorithm of improved key generation model and software //2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2020. – C. 1-3.

КҮП МАРТА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ЎОКЛАМА ОСТИДА ГРУНТ ЗИЧЛИГИНИНГ ЎЗГАРИШИ

Абдуллаев Азимжон Карим ўғли.

Термиз давлат университети

Архитектура ва қурилиш факултети талабаси

Илмий раҳбар: **Убайдуллаев Анвар Азамович.**

Аннотация: Автомобиль йўли ва ундаги иншоотларнинг мустаҳкамлиги, устуворлиги ва чидамлилиги кўп жиҳатдан унинг асосий қисми бўлган йўл пойи мустаҳкамлигига боғлиқдир. Йўл тўшамасининг мустаҳкам бўлиши ва хизмат муддати давомида деформацияларга учрамай ишлиши учун йўл пойи грунти етарлича зичланган бўлиши лозим

Калим сўзлар: юклама, лёссимон, деформация, оқувчанлик чегараси, штамп, зичланиш

Автомобиль йўли ва ундаги иншоотларнинг мустаҳкамлиги, устуворлиги ва чидамлилиги кўп жиҳатдан унинг асосий қисми бўлган йўл пойи мустаҳкамлигига боғлиқдир. Йўл тўшамасининг мустаҳкам бўлиши ва хизмат муддати давомида деформацияларга учрамай ишлиши учун йўл пойи грунти етарлича зичланган бўлиши лозим [1]. Автомобилдан йўл тўшамаси орқали йўл пойи лёссимон грунтига тушадиган юклама кўп марта ва қисқа вақт таъсир қиласи. Таҳлиллар кўп марта ва қисқа вақтли юкламани таъсирини ўрганиш асосан ҳар хил ўлчамли штампларни грунтга сиқиш йўли билан олиб борилганлигини кўрсатди. Штампни грунтга сиқиб борилганда, маълум бир шароитда, уни четида пластик худуд ҳосил бўлади. Натижада грунтни чўкишини зичлаштириш натижасида ёки грунтни штамп ёнидан четга силжиши


натижасида бўладими, ажратиш қийин бўлади. Шунинг учун қолдик деформацияни, яъни кўп марта ва қисқа вақт таъсир қилувчи юклама таъсири остидаги грунтни чўкишини уни зичлигини ўзгаришига боғлаб компрессион тажрибаларда ўрганилди. Бунда пластик худудни ҳосил бўлишининг олди олиниб, фақат грунтни зичланиши натижасида ҳосил бўладиган қолдик деформация ўрганилади.

Лёссимон грунтларда қолдик деформацияси ёки кўп марта ва қисқа вақт таъсир қиладиган юкламалар таъсирида бирламчи зичликни ўзгариши Н.Н. Масловнинг [2] чўкиш модули билан ифодаланиб, қуйидагича аниқланади:

$$a = \frac{\Delta h}{h} 1000$$

бунда Δh - грунт намунасининг маълум кўп марта ва қисқа вақт таъсир қилувчи юкламалар таъсирида ҳосил бўлувчи мутлақ деформацияси, мм; h – намунанинг дастлабки баландлиги, мм.

Кўп марта ва қисқа вақтли юкламалар таъсирида юзага келадиган деформацияларни ҳосил бўлиш характерини ўрганиш учун намуналар тайёрланди ва тажрибалар ўтказилди. Грунт намунасининг намлиги ($0,55$ - $0,98)W_{OK}$ да (W_{OK} -грунтнинг оқувчанлик чегарасидаги намлиги) ва зичланиш коэффициенти $0,96$ бўлганда, унга кўп марта ва қисқа вақтли $0,1$ МПа юклама таъсир қилганда, унинг зичлигини ўзгариш қонунияти ўрганилди. Юкламанинг энг кўп таъсир сони 10^6 бўлгандаги тажриба натижаси 1-расмда келтирилган.



1-расм. Лёссимон чангли енгил супеснинг зичланиш коэффициентини унинг бошланғич қиймати $0,96$ бўлганида, кўп марта ва қисқа вақт таъсир қилувчи юклама $P=0,1$ МПа остида, $N_p=10^6$ бўлганда намликка қараб ўзгариши.

1-расмда акс эттирилган чизмани таҳлили, лёссимон чангли енгил супеснинг зичланиш коэффициенти 0,96 ва намлик миқдори $(0,55-0,80)W_{OK}$ оралиғида бўлганда, кўп марта ва қисқа вақт таъсир қилувчи юклама $P=0,1$ МПа $N_P=10^6$ марта таъсир қилганда, зичлик миқдори деярли ўзгармаганини кўрсатади. Бундай намлиқдаги грунтда таъсир этувчи кучларга нисбатан унинг қаршилиги катта бўлади. Намлик $0,80W_{OK}$ дан катта бўлганда зичлик миқдорини ўзгариши кузатилади. Чунки бу намлик, таъсир сони ва юк таъсирида грунт намунасидан сувни сиқиб чиқарилиши осон кечади, грунтнинг қаршилиги нисбатан кичик бўлади. Агар зичланиш коэффициенти 0,96 дан катта бўлса келтирилган юк миқдори ва таъсир сонида бошланғич зичланиш коэффициенти ўзгариши янада оз бўлиши керак. Бу хulosани кейинги олиб борилган тадқиқотлар тасдиқлайди.

Ўтказилган тадқиқот натижасида грунт намлиги $(0,55-0,80)W_{OK}$ бўлганда грунтнинг мустаҳкамлиги ўзгарса бу унинг зичлигига боғлиқ эмаслиги ва намлиги $0,80W_{OK}$ дан катта бўлганда мустаҳкамликнинг ўзгариши унинг зичлигини ошиши билан тушунтирилиши мумкин. Амалдаги йўл пойида намлик миқдорини $(0,55-0,70)W_{OK}$ бўлишини ҳисобга олсак ва зичлик юклама таъсирида ўзгармаса, грунтнинг силжишга мустаҳкамлиги унда бўладиган шакл ўзгариш деформацияси билан тушунтирилиши мумкин.

Адабиётлар

1. Каюмов А.Д., Махмудова Д.А., Холияров У.А. Лёссимон грунтли йўл кўттармасининг мустаҳкамлиги. Монография. - Т.: ТошДТУ, 2012. -125 б.
2. Маслов Н.Н. Основы инженерной геологии и механики грунтов. –М.: Высшая школа. 1982. –511 с.

THE CONTRIBUTION OF SCHOLARS, WHO GREW UP IN THE PERIOD OF THE FIRST ENLIGHTENMENT IN OUR COUNTRY TO THE DEVELOPMENT OF THE WORLD

Fazliddinova Zulfiyakhon Dilmurod qizi,

Student of English filology, NAMSU,Namangan

ABSTRACT

It is undeniable fact that the scientists of the first Renaissance created the fundamental ideas and invented much of the sciences, that had a huge contribution to the development of other countries. In this article, I try to investigate the works and contribution of outstanding scholars such as Jalaliddin Rumi, Al- Khorazmi, Abu Ali ibn Sina and so on.

Keywords: *first enlightenment, contribution, scholars, science.*

АБСТРАКТ

Неоспорим том факт, что ученые первого Возрождения создали фундаментальные идеи и изобрели многие науки, внесшие огромный вклад в развитие других стран. В этой статье я попытаюсь исследовать работы и вклад выдающихся ученых, таких как Джалалиддин Руми, Аль-Хорезми, Абу Али ибн Сина и так далее.

Ключевые слова: *первое просветление, вклад, ученые, наука.*

ANNOTATSIYA

Birinchi Uyg'onish davri olimlari fundamental g'oyalarni yaratganliklari va boshqa mamlakatlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ko'pgina fanlarni ixtiro qilganliklari inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Ushbu maqolada men Jaloliddin Rumiy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar kabi buyuk allomalarning asarlari va hissalarini o'rghanishga harakat qilaman.

Kalit so'zlar: *birinchi ma'rifat, hissa, olimlar, fan.*

INTRODUCTION.

The Renaissance - is the period of time when economy, science, policy, culture or art reforms into novel, more civilized, and developed condition. In Uzbekistan, we are living in the Third Renaissance of time, and the First Renaissance lasted between 9-14 centuries in the countries of Central Asia such as Movarounnahr, Khurasan and Iran, being one of the initial rebirth, which lately affected to other countries reformations, due to the contribution of outstanding scholars. The uplift in other countries happened much more lately, where I indicate in the following table -1.

Countries	Period of Renaissance
Central Asia (<u>Movarounnahr</u> , <u>Khurasan</u> and <u>Iran</u>)	9-12 centuries
Italy, Florence	14-15 centuries
European countries (Germany, United Kingdom, France)	16-17 centuries

As you see, the Renaissance started much earlier in the Central Asia, than other countries. In contrast to Italy, which was a few centuries earlier (9th–12th century), there was a significant cultural elevation, substantial development in science, philosophy, and literature, widespread interest in cutting-edge humanitarian principles, and a burgeoning of intellectual and creative activity. In world science, this era is known as the "Muslim Renaissance" (A. Metz) or the "Eastern Renaissance" (NI Konrad). The Eastern Renaissance period embodies the key elements of the European Renaissance: intense creative activity, the completion of outstanding creative works, and the production of mind-blowing works of art. Great intellectuals, encyclopedic experts, and well-known thinkers came from the Eastern Renaissance. Discoveries in the exact sciences were produced by Muhammad al-Khorazmi, Abu Bakr Razi, Abu Rayhan Beruni, Ahmad al-Farghani, Umar

Khayyam, and Mirza Ulugbek. The treasury of thought was enriched by the philosophical writings of Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, Ibn Rushd, Muhammad Ghazali, and Nasafi Azizuddin. The universe, man, and society were studied as a whole, new laws were found, the boundaries of intellectual knowledge were broadened, and the theory of virtuous society and the ideal man was thoroughly developed. Poetry was established by brilliant writers like Abu Abdullah Rudaki, Abulalo alMaari, Abulqasim Firdavsi, Jalaliddin Rumi, Hafiz Shirozi, Nizami Ganjavip, Abdurrahman Jami, and Alisher Navoi, who sung about love, bravery, independence, and goodness. A number of miniature painting schools were established, including Kamoliddin Behzodhis paintings, which established a fresh artistic approach. Another indication of the renaissance period is the rise in interesting adventure-filled works like "One Thousand Nights," "Kalila and Dimna," "Forty Ministers," "Totinoma," "Sindbodnama," and "Jome'ul Hikayot," which capture the spirit of the populace. On the other hand, works like "Khamsa" describe universal concepts that are rife with wisdom and philosophy and represent human ideals.[1]

LITERATURE REVIEW.

Many in deniable masterpieces in the people's life was created firstly by 'Muslim scientists' as the call themselves, they invented the model and masterpieces in almost each direction, which enabled other countries to learn and, to boost their willingness, and willpower and created their own ones. The books of our scholars were and are the main manuals even in these days , that include all of the needed and required information and knowledge. However these scholars great contributions, this article discusses several of scholars heritage an its significance in the development of foreign countries in different spheres for wide demonstration, namely Jalaluddin Rumi, Abu Ali Ibn Sina and Al-Khorazmi.

Jalaluddin Rumi- Jalaluddin Rumi was born on September 30, 1207, in the house of the great sheikh Muhammad Balawaddin Valad, who received the title of

sultanal ulama, in the city of Vakhsh in present-day Tajikistan (the country of Khorezmshahs). Young Jalaluddin studied for 7 years in Sham, Aleppo, Damascus, Caesarea and other major centers of knowledge, becoming a mature scholar of his time. In the words of the well-known Romanist Zarrinkub, "Mawlana's wonderful 68-year life was full of poetry, beautiful, unique, and complex poetry, sound and tone."^[2] During the past eight centuries, Mevlana Jalaluddin Rumi has been acknowledged as a live participant in artistic-pedagogical-psychological-aesthetic art by poets, writers, thinkers, architects, and painters from throughout the world. Mevlana Jalaluddin Rumi, the creator of numerous important works including Divani-Kabir, "Fihi ma fih," "Majlisi-Saba," "Mektubat," and "Masnavi" didn't just recite life-affirming verses, express their ideas through straightforward poetry, or converse with readers in everyday terms. Mevlana was a pedagogue and educator who translated and educated the facts of life with the amazing power of art; he inspired his readers, helped them to comprehend life and its beauty. [3] For seven centuries, Western and Eastern scholars have disagreed and discussed Jalaluddin Rumi's "Spiritual Masnavi," which has been the subject of numerous discussions and disputes. Rumi's "Masnavi" is considered by world thinkers to be a book of the world, an encyclopedia of mysticism, a sea of spirituality, and a poet of humanity, which is evidence of the importance and significance of this work.^[4]

Al-Khorezmi. One of the first encyclopedic scientists in the history of science, Khorezmi, Abu Ja'far (Abu Abdullah) Muhammad ibn Musa al-Khorazmi (783, Khiva - 850, Baghdad) was a Khorezmian mathematician, astronomer, and geographer. The science of algebra was established by Khorezmi, whose book "Kitob mukhtasar min izal aljabr valmuqobala" is where the word "algebra" originates ("A short book about algebraic calculus"). Yet, there is the argument that Khorezmi just systematized the approach to solving linear and quadratic equations that was already well-known at the time. This concept developed since Khorezmi's work was based on this subject. However the majority of Khorezmi's book is devoted to algebraic calculations.^[5] Al-Khorezmi was appropriately dubbed "the Father of Algebra" by

the international scientific community for his substantial contributions to mathematical science and popularization. Al-Khorezmi is the finest mathematician of the time, and, if one takes all conditions into account, one of the greatest of all times, according to the prominent American historian of science of the 20th century George Sarton.[6]

Abu Ali ibn Sina. The renowned Central Asian encyclopaedist Abu Ali ibn Sina (full name: Abal al-Husayn ibn Abd Allah ibn Sn al-Balkh) is mentioned in various sources as a scientist, physician, and philosopher in Bukhara Persian. He passed away at Hamadan on August 16, 1037. He was born on June 18, 980 in the town of Afshona, which is close to Bukhara. More than 30 of Ibn Sina's works on medicine have come to us, including a medical encyclopedia called "Qanun," numerous books on theoretical and practical aspects of medicine, "Urjuza fi-ttibb" ("Medical Ur-juza"), "alAdviyat" alqalbiya" ("Medicines of the heart"), "Daf' almadorr al-kulliya an-al-abdon al- ("Treatise on Health"), Many more treatises exist, including "Risola fi-s-sikanjubin," "Risola fi-lfasd," and "Risola fi-lhindabo" ("Treatise on Sachratqi"). Ibn Sina gave the classification of sciences substantial consideration during his time, and he wrote a book titled "Aqsam al-ulum alaqliya" about it ("Classification of mental sciences").[7] He was well renowned for his contributions to medicine and Aristotelian philosophy. He wrote the Al-Qnn f al-ibb (The Canon of Medicine), one of the most renowned publications in the history of medicine, and the Kitb al-shif (Book of the Cure), a sizable philosophical and scientific encyclopedia. Ibn-Sina pioneered the use of extremely sophisticated drug design principles, including drug delivery, organ targeting, deposition at the site of action, pain relief, wound healing, clearance after action, and support for the organ.[8]

CONCLUSION.

It is an evident notion that uzbek scholars (was born and lived in this territory) have a big contribution to the world's first renaissance. In each direction may it be science, poetry, medicine, geography, astronomy, mathematics and etc... they have

built the initial fundamentals and introduced them to the world, because of this the first uplift in Central Asia was occurred before that in other countries such as Italy, or other European countries.

REFERENCES;

- [1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish_davri
- [2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Jaloliddin_Rumiy
- [3] Khafayat, A. UDC: 37.04 UNIVERSAL IDEAS IN THE PEDAGOGICAL ACCOUNTS OF MEVLANA JALALUDDIN RUMI. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*, 233.
- [4] <https://www.amerikaovozi.com/a/a-36-2006-02-09-voa5-93340884/794378.html>
- [5] <https://uz.wikipedia.org/wiki/Al-Xorazmiy>
- [6] <https://uzbekistan.travel/en/o/al-khorezmi/>
- [7] https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino#Tibbiy_asarlari
- [8] <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3970379/#:~:text=He%20created%20a%20complete%20philosophical,in%20the%2017th%20century.>

MINTAQА IQTISODIYOTI GEOGRAFIYASI TARKIBI VA SALOHIYATI TUSHUNCHASI

Embergenov Alisher Jumamuratovich

QDU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi o‘qituvchisi

Saǵinbaev Sultanbek Turdibay óǵli

QDU Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Kalit so‘zlar: mintaqa iqtisodiyoti geografiyasi, mintaqaviy nomutanosibliklar, iqtisodiy salohiyatni baholash usullari, baholash omillari, mintaqaviy resurslarni boshqarish.

Mintaqa iqtisodiyoti geografiyasi bir mamlakat yoki mintaqa ichidagi iqtisodiy faoliyatning barcha aspektlarini o‘z ichiga olgan soha tushunchasini ifodalaydi. Bu sohaga iqtisodiyotni o‘rganish, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, mamlakatning pul siyosati, ishlab chikarish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va boshqa iqtisodiy muammolarni yechish kiritiladi.

Mintaqa iqtisodiyoti esa bir nechta mamlakatlarning yoki etnik guruhlar tomonidan bir-biriga yaqin bo‘lgan geografik joydagi iqtisodiy faoliyatni ifodalaydi. Bu mintaqa iste’molchilarining mavjud resurslardan foydalanish, savdo-sotiqda hamkorlik qilish va sarmoyalash uchun ko‘plab imkoniyatlarni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Mintaqamizdagи geografik tuzilish va iqlim xususiyatlari va iqtisodiy faoliyat o‘rtasidagi yaqin bog’liqlikni aniqlash mumkin. Mintaqamizdagи muhim sanoat korxonalari va aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarni statistik o‘rganib, tahlil qilish mumkin. Mintaqadagi iqtisodiy faoliyat va mintaqaning geografik xususiyatlari o‘rtasidagi bog’liqlikni tushuntirish uchun quyidagi misollarni keltiramiz.

Mintaqaviy iqtisodiyot tushunchasi bu mintaqaviy resurslarni boshqarishni o‘rganishdir. Mintaqaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun biz har bir hududda yoki har bir tumanda bir xil echimlarni qo‘llay olmaymiz. Chunki, har bir hudud, har bir tumanning o‘ziga xos xususiyatlari bor.

Tashkil etilgan joy tushunchasi yaniy, ular aholi punktigacha bo‘lgan masofa, xom ashyo va transport xarajatlari kabi omillar mintaqaviy rivojlanishda mintaqaviy rivojlanishga ta’sir qiladi, deb xulosa qilsak bo‘ladi. Ushbu omillarga qarab, korxonalar ma'lum bir mintaqada to‘planib, mintaqaviy rivojlanishni ta'minlaydilar. Aholi punktlarining klassik nazariyasiga ko‘ra transport xarajatlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga ta’sirini o‘rganib chiqish va transport qaysidir ma’noda hal qiluvchi rol o‘ynashini etiborga olishimiz kerak. Yaniy transport xarajatlari markazga yaqin joylarda kamayadi va masofa oshgani sayin ijara narxi arzonlashadi. Ammo u tezda yomonlashadigan mahsulotlar aholi punktlariga yaqin joyda joylashgan bo‘lishi kerakligi va bu xarajatlarni ko‘paytiradi, shuning uchun mahsulot narxi oshadi. Kompaniyalarning tashkil etilgan joyini belgilovchi eng muhim omil transport xarajatlari hisoblanadi. O‘rganishlar natiyjasiga ko‘ra, ishlab chiqarish omillari, xom ashyo va ishlab chiqarishning eng maqbul joyi, agar boshqa joydagi ishchilarning ish haqi transport xarajatlaridan past bo‘lsa, kompaniya ham shu joyda tashkil etilishi mumkin. Markaziy joylar tushunchasi bu iqtisodiy faollikni tushuntirishga harakat qiladi. Shunga ko‘ra, shaharlar aro ierarxiya mavjud. Katta shaharlar kichik shaharlarga, tumanlarga ham ta’sir qiladi. Ushbu ierarxiya mintaqa markazi, shahar, tuman qishloqlardan iborat Ushbu markazlarning domenlari olti burchakli shaklga ega. Chunki olti burchakli markazga erishish osonroq. Oltiburchakning o‘lchami kompaniyaning ko‘lami, transport narxi, talab hajmi bilan bog’liq. Kompaniyalar ushbu ierarxiyani hisobga olgan holda o‘zlarining tashkiliy joylarini aniqlaydilar. Talab orqali mintaqaviy rivojlanishni o‘rganadigan yondashuvlar ta’midot tomonidagi mintaqaviy farqlarga etibor berishdir. Mintaqaviy farqlanishning sababi sifatida ishlab chiqarish miqdoridagi farqni ko‘rsatishdir.

Eksport talabi tushunchasi mintaqalar o‘rtasidagi sekinlashuvdagи farq talab va farqlardan kelib chiqadi, deb xulosa qilinadi. Tashqi talab natijasida tovarlarni eksport qilish bilan rivojiana boshlagan mintaqa, daromadlar o‘sishi bilan mahalliy talab ham sekinlasha boshlaydi; o‘sish paytida eksport tovarlari ishlab chiqaradigan sektorda ham, mahalliy ehtiyojlarga javob beradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda ham ishlab chiqarish hajmi keskin o‘sib boradi; tashqi iqtisodiyotning joriy etilishi mintaqalar o‘rtasidagi tafovutni oshishiga olib keladi. Lekin, ushbu yondashuv mintaqada dastlab mavjud bo‘lgan resurslar mintaqalar o‘rtasida bir xil taqsimlanmagan degan farazga asoslanadi.

Xulosa

Mintaqada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar iqtisodiy salohiyatni baholashda xorij tajribasiga tahlilli xulosa sifatida ularni quyidagicha tasniflash imkonini berdi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mintaqaning geografik iqtisodiy salohiyatni baholashning eng samarali va sifatli metodlaridan biri bu barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiluvchi omil modelli metodidir. Unga ko‘ra mintaqaning iqtisodiy salohiyati ko‘plab omillardan tashkil topgan tizimning mavjud va zaxiradagi resurslardan iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda foydalanish xususiyatini anglatadi. Iqtisodiy salohiyatni omilli metod bo‘yicha hisoblashda omillardan foydalanish taklif etiladi. Ushbu metod bo‘yicha mintaqa iqtisodiy salohiyati investitsion, moliyaviy, xo‘jalik, mehnat, bozor va innovatsion omillar yig‘indisi sifatida qaraladi. Har bir omil guruhi xususiy ko‘rsatkichlardan tashkil topadi. Mintqa iqtisodiyoti bizga mamlakat yoki mintaqaning iqtisodiy geografik faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi va ularni bartaraf etish uchun qanday islohatlar amalga oshirish kerakligini yaxshi tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Черницкий С.В. Комплексная методика оценки экономического потенциала регионов. Журнал «Историческая и социально-образовательная мысль». 2014, № 5(27). С. 208-2013.
2. Чаленко А.Ю. Методика определения экономического потенциала // Экономика Украины. –2013.– №. 8. – С. 4054.

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Qobilova , M. M. (2023). O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA SHAXSNI JINS JIHATIDAN IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING BERILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 4–7. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4150
2	Abdug'aniyev , S. A. o'gli, Karimxonov , M. A. o'g'li, & Ikromjonov , I. I. o'g'li. (2023). QUYMA MONOLIT TEMIRBETONLI TURAR-JOY BINOLARIDA ICHKI VA TASHQI DEVORLARNI QURISH TEXNOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 8–11. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4151
3	Tursunxo'jayeva , S. T. qizi. (2023). JISMLARNING SUYUQLIKDA SUZHISH SHARTLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 12–18. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4152
4	Шомуродова, Ш. Б. к. (2023). ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙИСИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN, 1(18), 19–29. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4153
5	Ergasheva , R. S. qizi. (2023). TASVIRIY SAN'AT VA INTERNET DIZAYNNING O'ZARO BOG'LIQLIGI HAMDA ZAMONA VIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 30–33. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4154
6	Жовлиев , Қ. Т. ў. (2023). БИТУМНИ ТЕЖАШ ВА ИШ СИФАТИНИ ЯХШИЛАШ УЧУН ЭМУЛЬСИЯНИ ҚЎЛЛАШ. GOLDEN BRAIN, 1(18), 34–37. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4155
7	Bobomuratov , I. I. (2023). SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ETISHTIRISHINING IQTISODIY STATISTIK TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 38–45. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4156

8

Калжанов , Д. М. (2023). ВЛИЯНИЯ ВЫСОКОЙ ТЕМПЕРАТУРЫ НА СЕРДЕЧНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ У КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ. GOLDEN BRAIN, 1(18), 46–49. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4157>

9

Axmadjonova , J. J. qizi. (2023). ABDULLA AVLONIY IJODIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 50–55. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4158>

10

Manzarov , M. (2023). XIX ASRDA SHAHRISABZ BEKLIGINING MA'MURIY HUDUDI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 56–61. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4159>

11

Soliyev , E. M. o'g'li. (2023). "QUR'ON" LAFZINING LUG'ATDAGI VA ISTILOHDAGI MA'NOLARI TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 62–67. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4160>

12

Saydazimov , M. R. (2023). BIRINCHI QAVAT TEMIRBETON USTUNLARINI TEMIRBETON HALQA BILAN KUCYAYTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(18), 68–75. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4161>

13

Rajabaliyeva , I. A. (2023). O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 76–84. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4162>

14

Ashirboyeva , S. A. (2023). ITALYAN VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING MA'NOVIY JIHATDAN O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 85–88. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4163>

15

Kasimova , N. R. qizi. (2023). MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 89–97. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4164>

16

Kotibov , R. B. o'g'li. (2023). SO'FI OLLOYOR PEDAGOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYAGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 98–100. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4165>

17

Jo‘raqulov , N. J. o‘g‘li. (2023). IT TEXNOLOGIYALARI QAYSI YO‘NALISHLARDA JADAL RIVOJLANMOQDA?. GOLDEN BRAIN, 1(18), 101–104. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4166>

18

Bafoyev , B. B. o‘g‘li. (2023). SHIRINMIYA (QIZILMIYA) O‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 105–109. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4167>

19

Ortiqov , A. A. o‘g‘li. (2023). SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA YO‘LOVCHILAR OQIMINI HISOBBLASHNI AVTOMATLSHITIRISH (Jizzax shahri misolida). GOLDEN BRAIN, 1(18), 110–114. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4170>

20

Djumanov , X. (2023). MADIATA’LIMNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA MEDIA VOSITALARINING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 115–123. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4171>

21

Ergashova , F. S. qizi. (2023). IMPORTANCE OF EDUCATION IN SOCIETY. GOLDEN BRAIN, 1(18), 124–127. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4172>

22

Usenbaeva , G. . A. qizi, & Kudiyarova , S. M. qizi. (2023). BASLAWÍSH KLASS OQÍWSHÍLARÍNA MATEMATIKANÍ ÚYRETIW. GOLDEN BRAIN, 1(18), 128–131. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4173>

23

Otamurodova , M. X. qizi, & Narbayev, A. (2023). ASTRONOMIYA O‘QITISHDA MULTIMEDIALI DASTURIY-PEDAGOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISH AVFZALLIKLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 132–138. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4174>

24

Karimov, A. (2023). CENTRAL ASIA IS THE PRIORITY DIRECTION OF UZBEKISTAN’S FOREIGN POLICY. GOLDEN BRAIN, 1(18), 139–143. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4175>

25

Normurodova, H. (2023). SCIENTIFIC-METHODICAL PRINCIPLES OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" IN PRIMARY GRADES. GOLDEN BRAIN, 1(18), 144–146. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4176>

26

Каландарова , Г. Н. (2023). УПОТРЕБЛЕНИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ЛЕКСИКИ В КАЧЕСТВЕ ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ. GOLDEN BRAIN, 1(18), 147–153. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4177>

27

Suyunova , М. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING NUTQIY MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(18), 154–162. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4178>

28

Ibodullayeva , М. (2023). READING IS ONE OF THE MOST ESSENTIAL PARTS IN LANGUAGE LEARNING. GOLDEN BRAIN, 1(18), 163–165.

Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4179>

29

I.S.Olimov. (2023). SM4 SHIFRLASH ALGORITMINI DASTURIY AMALGA OSHIRISH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 166–171. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4180>

30

Халматжанова , Г. Д. (2023). ФОРМИРОВАНИЯ КЛАСТЕРОВ В ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА. GOLDEN BRAIN, 1(18), 172–179.

Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4181>

31

Nosirova , S. (2023). BADIY ASARDA KOMPOZITSIYA UNSURLARI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 180–183. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4182>

32

Norova , A. A. (2023). PUNS IN ENGLISH LITERATURE. GOLDEN BRAIN, 1(18), 184–188. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4185>

33

Olimov, I., & Ibrohimov , X. (2023). ANALYSIS OF LIGHTWEIGHT CRYPTOGRAPHIC ALGORITHMS . GOLDEN BRAIN, 1(18), 189–197.

Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4186>

34

Meliboeva , G. (2023). CORRECT ORGANIZATION OF THE DESIGN SOLUTION FOR THE RECONSTRUCTION OF MEDICAL INSTITUTIONS. GOLDEN BRAIN, 1(18), 198–206. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4187>

35

Shukurov , I., & Uralov , S. (2023). G'OR TURIZMINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 207–210. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4188>

36

Olimov, I., & Ibrohimov , X. (2023). ELEKTRON RAQAMLI IMZO ALGORITMLARI TAHLILI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 211–221. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4190>

37

Абдуллаев , А. К. ў., & Убайдуллаев , А. А. (2023). КЎП МАРТА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ЮКЛАМА ОСТИДА ГРУНТ ЗИЧЛИГИНИНГ ЎЗГАРИШИ. GOLDEN BRAIN, 1(18), 222–224. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4191>

38

Fazliddinova, Z. D. qizi. (2023). THE CONTRIBUTION OF SCHOLARS, WHO GREW UP IN THE PERIOD OF THE FIRST ENLIGHTENMENT IN OUR COUNTRY TO THE DEVELOPMENT OF THE WORLD. GOLDEN BRAIN, 1(18), 225–230. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4192>

39

Embergenov, A. J., & Saǵınbaev, S. T. 6ǵli. (2023). MINTAQА IQTISODIYOTI GEOGRAFIYASI TARKIBI VA SALOHIYATI TUSHUNCHASI. GOLDEN BRAIN, 1(18), 231–234. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4438>